

83.3(02)  
2-76

M. ZIYAVITDINOVA  
D. XUDJANOVA

ARUZ  
ILMI





83.3(02)

2-76

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK  
UNIVERSITETI

Ziyovuddinova M., Xudjanova D. J.

# ARUZ ILMI

darslik

JIZZAX DPI  
INV № 142415  
INFORMATSION RESURSLAR MARKAZI

Toshkent  
"Innovatsiya-Ziyo"  
2020

UDK: 894.375  
BBK: 83,3(O'z)  
Z 76

**Ziyovuddinova M., Xudjanova D. J.**

**Aruz ilmi /darslik/. – Toshkent: «Innovatsiya-Ziyo», 2020, 122 bet.**

*Ushbu darslik aruz ilmining qonun-qoidalari, tarkibiy qismlari, aruz bahrlari va aruz doirlari hamda mavarounnahrlik olimlarning aruzga doir asarlari haqidagi ma'lumotlarni o'z ichida qamrab olgan.*

*Mazkur darslik "Arab filologiyasi" va "Mumtoz filologiya" mutaxassisligi bo'yicha bakalavr ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarga mo'ljallangan.*

**Taqrizchilar:**

**Xodjayeva R.U.**

– filologiya fanlari doktori, professor

**Sotiboldiyeva S. R.**

- filologiya fanlari doktori

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI TOMONIDAN NASHRGA TAVSIYA ETILGAN.**

ISBN 978-9943-6790-2-3

© Ziyovuddinova M. va boshq. 2020.

© "Innovatsiya-Ziyo", 2020.

## KIRISH

Sharq mumtoz adabiyotining salmoqli qismini nazmiy asarlar tashkil etadi. Shu bois, sharqshunos talabalar mumtoz arab, fors va o'zbek she'riyatini to'g'ri o'qish, ma'lum bir maromdagi ohangini anglash uchun aruz nazariyasini o'rganishlari lozimdir.

Mazkur "Aruz ilmi" darsligining maqsadi arab bo'limi va mumtoz filologiya talabalarini vaznlar tushunchasi bilan tanishtirib, she'riy asarlarni vaznini aniqlab, o'z qolipiga solib, musiqiy ohangda o'qishga o'rgatishdir.

Talabalarga mumtoz va hozirgi arab va o'zbek shoirlari she'rlaridan misollar keltirib, ularning har biri vaznga solib o'qitiladi.

Bu esa, talabalarga murakkab she'riy ohangning jilva-jilosini chuqur his etishga yordam beradi.

Mazkur fanni o'qitilishidan maqsad – talabalarda o'rganilayotgan mamlakatlar adabiyoti va adabiyot nazariyasi fanlarida milliy adabiyotning o'ziga xos xususiyatlari, uning rivojlanish qonuniyatlari bilan bir qatorda, aruz ilmini ixtiro qilgan arab olimining hayoti va ijodi, O'rta Osiyolik olimlarning mazkur fan rivojiga qo'shgan hissalarini to'g'risida bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat.

Aruz vaznida yozilgan qasida, she'r yoki g'azal ma'nolarini tushunish bilan birga, ularni o'z vazni, ohangi bilan o'qish, talaffuz etish ham juda muhim. Har bir she'riy asar o'z vazni bilan o'qilmasa, undagi ma'nolar yorqin va ta'sirchan chiqmaydi. Bitta tovush yoki qo'shimcha noto'g'ri talaffuz etilsa, ohangiga tushmasa, butun asarning jozibasi yo'qoladi va dag'allik yuz beradi. Shu bois har bir she'riy asarni, ayniqsa, g'azalni o'qiganda, ular ohangi to'g'ri kelgan bahrning imkoniyat va xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, aruz qoidalariga mos qilib tushirish yo'llarini topmoq zarur. Buning uchun aruz ilmi qonun qoidalariga rioya etish lozim.

Arab bo'limi talabalariga qasida yoki she'riy parchalar ko'proq ularga xos bo'lgan bahrlarda o'rgatilsa, mumtoz

filologiyasi talabalariga mumtoz o‘zbek shoirlarining g‘azallarini vaznga solib o‘qitiladi.

E‘tiboringizga havola qilinayotgan “Aruz ilmi” nomli darslik uch bo‘limdan iborat. I bo‘lim “*Aruz ilmi va uning tarkibiy qismlari*” deb nomlanib, uch qismga bo‘linadi. Unda aruz atamasining kelib chiqishi hamda aruz ilmini ixtiro qilgan Basra ilmiy maktabi rahnamosi, tilshunos, musiqashunos olim Xalil ibn Ahmad haqida ma‘lumot beriladi. Keyingi qismida bayt, juzv, xamda ruknlar to‘g‘risidagi tushuncha haqida batafsil ma‘lumot berilib, albatta, keyingi bahrlar she‘riy misollar orqali tushuntirib boriladi.

II bo‘lim “*Aruz bahrlari va aruziy doiralar*” deb nomlanib, bahrlar haqidagi to‘liq tushuncha bilan bir qatorda, barcha bahrlarni o‘rganib she‘riy parchalarning bahrlarini aniqlash kerak bo‘ladi.

Albatta, bu jarayonda talabalarga she‘rlar, g‘azallar yodlatilib, aruziy ohangda, bir maromda o‘qish o‘rgatilib, mumtoz sharq she‘riyatining mazmun-mohiyatini anglash, ularning jilva-jilosi, jozibasi hamda ruhiyatimizga lazzat beradigan ta‘sir kuchiga ega ekanligini singdirishimiz lozim.

Aruziy doiralar haqidagi ma‘lumotlar ham jadvallar orqali tushuntiriladi.

III bo‘lim “*Aruz ilmining tarixiy ildizlari*”-deb nomlanib, ona zaminimizdan yetishib chiqqan, aruz faniga o‘z hissalarini qo‘shib arab tilida asarlar yozgan olimlar – Abu Nasr Farobiy, Abu Abdulloh Xorazmiy, Ibn Sino, Mahmud Zamaxshariy, Abu Xafs Nasafiy, Yusuf Sakkokiy hamda aruz ilmini isloh qilgan Abu Nasr Hammad al-Javhariy hayoti va ijodi haqidagi ma‘lumotlar beriladi.

Shu bilan birga qofiya ilmi fazilatlariga oid qator tasri‘, tarsi‘ va tasmit san‘atlari xususida ma‘lumotlar berib, hazrati Alisher Navoiy g‘azallaridan misollar keltiriladi.

## I BO'LIM. ARUZ ILMI VA UNING TARKIBIY QISMLARI

**Darsning maqsadi:** talabalarni “aruz” soʻzining maʼnolari bilan tanishtirish va aruz ilmining ixtirochisi Halil ibn Ahmad bilan tanishtirish.

**Tayanch soʻz va iboralar:** aruz, vazn sistemasi, “Mezon ul-avzon, rukn, Makka bilan Toif, al-Ayn, an-Nagam, al-Iyqo, aruz bahrlari, sheʼriy nazariya.

### 1.1. “Aruz atamasi va unga oid taʼriflar

Aruz (العروض)<sup>1</sup> arab poeziyasining sheʼriy vazni. Aruzdagi sheʼrning birinchi namunalari milodiy V asrga taalluqli. VIII asr ikkinchi yarmiga kelib aruz ilmiy asoslangan fanga, keyinroq tugal tizimga aylandi.

Aruz nazariyasi sharq mumtoz sheʼriyatida eng koʻp qoʻllanilgan yagona sheʼr vazni hisoblanadi. Aruz vazni ilk bora arab sheʼriyatida vujudga keladi, keyinchalik u fors-tojik va turkiy xalqlar mumtoz sheʼriyatining ham asosiy vazn turi sifatida shakllandi va takomillashdi.

A. Rustamovning fikricha, “Aruz deb bir qancha Sharq xalqlari adabiyotida, jumladan, oʻzbek mumtoz adabiyotida qoʻllanib kelinayotgan oʻziga xos vazn sistemasiga hamda shu haqidagi ilmga aytiladi. Aruz vazni boʻgʻinlarning talaffuzdagi uzun-qisqaligiga asoslangan boʻlib, muzika bilan chambarchas bogʻliqdir”<sup>2</sup>.

Nima uchun “aruz” deb nomlangani haqida koʻpdan koʻp har xil fikrlar mavjud. Bu yerda biz hazrati Alisher Navoiyning “Mezon ul-avzon” asaridagi fikrni keltiramiz: “... Aruz fani sharif fandur ... Xalil ibn Ahmad rahmatullohki bu fanning voziʼidur, chun arab ermish va aning yaqinida bir vodiy ermishki, ani

<sup>1</sup> Arab tilida aruz soʻzi “أرض” (dod) harfi bilan yoziladi va “d” tovushi bilan talaffuz qilinadi. Oʻzbek, fors tillarida yuqoridagi harf “Z” (zod) oʻqiladi. Shuning uchun, qoʻllanmaning baʼzi joylari, ayniqsa, arab aruziga tegishli joylarida, til taqozosiga koʻra, “arud” deb berilgan.

<sup>2</sup>Рустамов А. Аруз ҳақида суҳбатлар. – Т.: Фан, 1972. – Б. 5.

“Aruz” derlar ermish va ul vodiya a’rob (arablar) uylar (o’tov)ni tikib, jilva berib, bahoga kiyururlar ermish. Va uyni arab “bayt” der. Chun baytlarni bu fan bila mezon qilib, mavzunini nomavzundan ayururlar ...”

A. Rustamov: ba’zilar aruz so‘zining lug‘aviy ma’nosi “qiyin yo‘l”, bu ilm qiyin bo‘lgani uchun uni “aruz” deb ataganlar deydi. Ayrim aruzchilar bu so‘z “arz qilinadigan” degan ma’noga ega, she’rning vaznini aniqlash uchun bu ilmga murojaat qilinadi. Shu sababdan unga aruz deb nom berganlar degan fikrni aytganlar<sup>3</sup>.

Xatib Tabriziy : “... chodir mustahkam turishi uchun uning o‘rtasiga qo‘yiladigan tirgak ustunni “aruz” deb ataydilar; aruz bilimdonlari esa, birinchi misraning oxiridagi ruknni aruz atashadi. Xuddi chodir o‘sha ustunga tayangani kabi, bayt shu ruknga tayanadi; chunki bu rukn talaffuz etilganda shu she’r qaysi bahrga tegishli ekanligi ma’lum bo‘ladi”<sup>4</sup>.

Shuningdek, “Aruz” terminini kelib chiqishi, Makka bilan Toif o‘rtasidagi vodiya ham “aruz” deb nomlangan. Yana bir ma’lumotga ko‘ra, “aruz” so‘zi Makka shahrining nomlaridan biri bo‘lgan.

Taniqli olim Hanna al-Faxuriy “aruz” so‘zining kelib chiqishini arab she’ri tuyani haydash chog‘ida aytiladigan qo‘shiqalar asosida shakllangan, deb hisoblaydi. Uning fikriga ko‘ra, aruz ritmlari tuyaning o‘ziga xos qadam tashlash maromlariga ya’ni ritmlariga moslab yaratilgan.

Ko‘rinib turibdiki, “aruz” terminining kelib chiqishi borasida ko‘plab olimlar tamonidan turli xil fikrlar va tushunchalar mavjud.

Shunday qilib, “Aruz” termini Sharq adabiyotshunosligida qadimdan bizning zamonimizgacha asosan ichki ikki ma’noda ishlatiladi: *ma’lum she’riy sistema* sifatida hamda *shu sistema haqidagi ta’limot*.

<sup>3</sup>O‘sha asar, – b. 6.

<sup>4</sup>التبريزي الخاطيب، الوافي في العروض و التاني، القاهرة، 1977 ص.



**Xalil ibn Ahmad.** Aruz sistemasini birinchi bo'lib o'rta asrning yirik arab filologi, Basra ilmiy maktabi rahnamosi, musiqashunos olim Xalil ibn Ahmad al-Azdiy al-Farohidiy VIII asrda ixtiro qilgan. Xalil ibn Ahmad taxminan 715-719-yillar o'rtasida Ummon (Janubiy Arabiston)da tug'ildi. Yoshlik chog'lari Basrada o'tdi va u yerda o'z zamonasining olimlari Ali Ayyub Saxtiyoniy, Osim Ahval, al-Avvom ibn Havshab kabi olimlardan nahv va sarf asoslari, hadis, umumiy filologik bilimlarni o'rgandi. Keyinchalik Basra tilshunoslik maktabi asoschilaridan Iso as-Saqafiy huzurida grammatika va leksikologiya asoslaridan tahsil oldi.

Olim qashshoq umr kechirgan bo'lsa ham, o'zidan keyin juda katta boy ilmiy meros qoldirgan. Shuningdek, u iqtidorli shogirdlar jamoasini yetishtirib chiqardi. Ular: al-Lay ibn Muzaffar – qomus muallifi, Abul-Hasan ibn Sa'id al-Ahfas – aruzchi, Sibavayh – mashhur “al-Kitob” muallifi.

Kashfiyotchi olim Xalil ibn Ahmad 786-yili vafot etdi. Uning ilmiy merosiga nazar tashlar ekanmiz, qomusiy ilm sohibi, faqat aruzshunoslikda emas, balki leksikologiya, musiqada ham o'z tizimiga ega ijodkor bo'lganini ko'ramiz. Arab fonetikasi va leksikologiyasining rivojlanishida olimning o'rni beqiyosdir. Uning mashhur “Ayn kitobi” (كتاب العين) arab tili izohli lug'ati bo'lib, uning ta'lifida hali arablarda ma'lum bo'lmagan usul qo'llanildi, ya'ni tovushlar barchaga ma'lum alifbo yo'nalishida emas, balki artikulyatsiya olish o'rinlari tartibida joylashtirilgan hamda tavsif bo'g'izning eng pastida – dastlabki o'rinda paydo bo'luvchi “ayn”dan boshlanadi.

Shuningdek, Xalil ibn Ahmad Sharq, ayniqsa, arab musiqasini yangi nazariy asosga solgan. Uning “an-Nag'am” (“Ohang”), “al-lyqo” (“Ritm”) nomli asarlari musiqaga oid bo'lib, ularda olim arab nazmining turli bayt shakllarini musiqalashtirish va kuylash me'yorlari borasida ilmiy qarashlarini bayon qilgan. Kitobning tazminlarigina bizga yetib kelgan, o'zi yo'qolib ketgan.

Aruzni alohida fan sifatida Xalil ibn Ahmad shakllantirganda, baytlarni chuqur tahlildan o'tkazib, ijod qoidalarini ilmiy asosladi,

bahlarni mavjud shakllar sifatida ajratdi. Biroq olim ularni o‘zi o‘ylab chiqargan emas, u mavjud qasidalaridagi jamlangan qonuniyatlarni ocha bildi. Ularni to‘plab, tartibga solib, xalqga “Aruz bilimi qomusi” (معجم في علم العروض) asarini taqdim qildi. Afsuski, ushbu asarning asl nusxasi bizgacha yetib kelmagan. Xalilning shogirdlari tomonidan ko‘chirilgan ayrim qismlari mavjud. Biroq, so‘nggi yillarda ushbu asarning nusxasini tiklashga arabshunoslar harakat qilishyapti.

Xalil ibn Ahmad islomdan ilgarigi V-VII va o‘z davrigacha bo‘lgan VII-VIII asrlardagi shoirlarning asarlarini o‘qib, o‘rganib, tahlil etib, aruz bahrlari haqida o‘z she‘riy nazariyasiga asos soldi.

Arabiston sahro-yu cho‘llarida arablar qabila-qabila bo‘lib yashashgan. Har bir qabilaning o‘z shoirlari bo‘lgan. Ular og‘zaki ijod qilishgan. Ularning asarlarini roviylar yod olib, avloddan avlodga yetkazishgan.

VII asrda hazrati Usmon ibn Affon xalifalik davrlarida Qur‘oni Karim 6 nusxada xatga tushirilgandan keyin VIII asrdan boshlab Rasululloh (s.a.v.) hadislarini ham to‘plana boshlandi. Aynan shu davrda Iroqning Kufa va Basra shaharlarida olimlardan tashkil bo‘lgan jamoalar qabilama-qabila yurib, arab tili sarf-nahvini yaratdilar, xalq og‘zaki ijodiga oid masal, matal, ertak, asotir, topishmoq, hikmatlarni to‘pladilar, hamda shoirlarning qasidalarini roviylar og‘zidan yozib ola boshladilar.

Manbalarda yozilishicha, Islomdan ilgarigi shoirlar o‘z asarlarini qabila ahllari to‘planadigan joylarda, ko‘pincha, bozorlarda baland shirali ovoz bilan ma‘lum bir ohangda yoddan o‘qib berishar, qabiladoshlari ularning asarlariga baho berar, eng yaxshilarini terilarga yozib, Ka‘baga osib qo‘yilar ekan.

Rivoyatlarga ko‘ra, Xalil ibn Ahmad hajga borib, zam-zam suvidan ichib shunday duo qilgan:

«Ey Rabbim, menga shunday ilm berginki, mengacha hech kim u ilmni bilmagan va mendan keyin ham hech kim bilmaydigan bo‘lsin». Ayni shu voqea sabab, Alloh Taoloning inoyati bilan Xalil ibn Ahmad «aruz ilmi»ni yaratishga sababchi bo‘lgan.

Xalil ibn Ahmad xalq orasidan yig'ilgan she'rlarni o'qib, tahlil etadi. Qarasaki, yozilgan qasidalar har xil ohangda. She'r ohanglarini tuyalarning yengil yelishiga, ot dupurining bir maromda eshitalishiga, temirchilar dakdasiga o'xshatgan. Ularni birma-bir tasnif etib, o'zining she'riy nazariyasini yaratdi.

Ushbu aruz sistemasini yaratgan vaqtda aruz, umuman she'riy sistema haqida hech qanday tushunchaga ega bo'lmagan shoirlar tomonidan Islomgacha bo'lgan arab she'riyatida bir qancha usullar yaratilgan yoki yozilayotgan edi. Bu she'rlarning ko'pchiligi Xalil yashagan davrga qadar yaratilgani uchun ularga tarixiy nuqtayi nazardan yondashuvga imkon beradi. Shunga qaramay, Xalil ibn Ahmad o'rta asrga xos tasnifchi olim sifatida arab she'riyati san'atining tarixiy rivojini ko'rsatishga harakat qilib ko'rmadi.

Xalil ibn Ahmad yuzga yaqin aruz vazni oralaridagi musharaklik alomatlariga qarab ularni 15 guruhga bo'ladi va bu guruhlarni bahriar deb ataydi. Uning shogirdi Abulhasan Axfash aruzga "Mutadorik" deb ataluvchi yana bir bahrni qo'shadi. Ibn Usmon Maziniy, Imom Axmad ibn Abdurabbix, Ibn al-Xatib at-Tabriziy, Ziyovuddin Abul Jaysh al-Hazrajy kabi arab olimlari ham aruz she'riy tizimi nazariy masalalari xususida izlanishlar olib borganlar.

Shubhasiz, al-Xalil tomonidan ishlab chiqilgan barcha istilohlar, u yaratgan doiralar arab she'rlarini eshitish jarayonida undagi qofiyalarga aniq yozma ko'rinish berish uchun xizmat qilgan.

## 1.2 Bayt tushunchasi

*Darsning maqsadi:* talabalarni aruzning asosiy qismlari bilan tanishtirish.

*Tayanch so'zlar va iboralar:* she'r ilmi, qofiya bilimi, nahv, sarf, balog'at, , "she'r uyi", mufrad, fard, qit'a, misra, sadr, arud, xashv, darb, musamman, murabba .

Ma'lumki, arablarda she'r ilmi keng tushuniladi va uch tarkibiy qismga ajratiladi:

1. Aruz bilimi (علم العروض), ya'ni aruzning o'zi: u she'r bitishda qo'llaniladigan vazn turlari va ulardan foydalanishda zaruriyati seziladigan qonun-qoidalar bilan shug'ullanadi.

2. Qofiya bilimi (علم القوافي): qofiyalanish tartibi, qofiyalanish usullari, qofiyalarni saralash va ularni to'g'ri ishlatish, qofiya turlari hamda she'r bitishdagi vazn qoliplaridan foydalaniladi.

3. Badiiy vositalar haqida bilim (علم البديع). She'rning badiiy yetuk bo'lishini ta'minlovchi tasvir vositalari va ulardan to'liq foydalanish yo'riqlari. Bu she'rning mazmundor va badiiy yetuk bo'lishida ahamiyatlidir.

Aruz ilmi boshqa arab ilmlaridan rivojlanish jihatidan keskin farq qiladi. Nahv, sarf, balog'at va lug'at ilmlari bir butunlik, mukammallik darajasiga yetishda yillar, asrlar davomida rivojlanib yetishib borgan. Biroq aruz ilmi esa Xalil ibn Ahmad ixtiro qilgan vaqtning o'zida mukammal ilm darajasida bo'lgan. Xalil ibn Ahmaddan keyin hech bir aruzshunoslar uning aruz ilmi nazariyasini inkor etishmagan va o'z tadqiqotlarida uni asos qilib olishgan.

Har bir g'azalning birinchi bayti, ya'ni matlaasi qaysi ohangda o'qilsa, keyingi baytlar ham o'sha maromga moslanishi lozim. Chunki aruz vazni musiqiylikka asoslangan. Buni, ayniqsa, keksa hofizlarimiz kuylagan qo'shiqlarni tinglaganda amin bo'lamiz. Agarda biz mumtoz she'riyatimizni aruz qoidalariga rioya qilib o'qisak, undagi maromiy mavj, musiqiy ohang, rubobiy zavq-u shavq beruvchi serjilo jozibasini his etamiz.

**Bayt tushunchasi.** Arab she'rining asosini bayt tashkil etadi (بيت (ko'p بيوت) lug'aviy ma'nosi: namat uy, badaviylarning o'tovi). Shu ma'nodan kelib chiqqan holda, baytni "she'r uyi" (بيت الشعر) deb ham yuritishadi. Bayt ruknlardan tashkil topib, qofiya bilan tugashi kerak.

Har bir bahrning yasalishidagi ahamiyati va asl ruknlardan yuzalgan tarmoq ruknlarning joylarini aniqlash uchun bayt qurilishini mukammal bilish darkor<sup>5</sup>.

Bir baytli she'r – mufrad yoki fard (مفرد ، فرد) – lug'aviy ma'nosi: yolg'iz, yagona). Baytlar soni uch bilan olti o'rtasida bo'lsa, uni qit'a (قطعة – ayrim) deb atashadi. Yetti yoki undan ortiq baytli she'r birligi qasida (قصيدة) (ko'p. قصائد) deyiladi.

Har bir bayt ikki ritmik bo'lakdan iborat bo'lib, uning har biri misralardan (aslida misra – مصراع ko'p. مصاريع – lug'aviy ma'nosi: eshik tabaqasi) tashkil topgan bo'ladi.

Bayt qurilishidagi har misra o'z nomiga ega. Misralarning birinchisi – sadr (صدر boshlanish), ikkinchisi esa, ajuz (عجز – susayish) deb nomlanadi.

Har bir misraning o'zi tarkibiy qismlarga bo'linadi. Ana shu bo'laklar – ruknlardir, shuningdek, ular misraning qaysi o'rinida joylashganliklariga qarab ham quyidagicha nomlanadilar.

Birinchi misraning oxirgi rukni – arud (عروض – o'tov birinchi yarmining chegarasi) deb ataladi. Qolgan bo'laklari xashv (حشو – omliq) deb yuritiladi.

Ikkinchi misraning birinchi qismi – ibtido (ابتداء – boshlang'ich) bo'lsa, oxirgi qismi esa, darb (ضرب – qoqish, o'rnatish ضرب بيتا o'tov o'rnatish, uy qurish)dir. Bu misrada ham darbgacha bo'lgan ruknlar xashv deb ataladi.

I misra فعولن مفاعيلن فعولن مفاعيلن

arud xashv sadr

II misra فعولن مفاعيلن فعولن مفاعيلن

darb xashv ibtido

Shunday qilib, birinchi misra sadr, hashv va aruzdan tashkil topadi, ikkinchi misra ibtido, hajv va darbdan tarkib topgan bo'ladi.

Baytlardagi ruknlar soni bahrlarning tabiatiga qarab turlicha bo'ladi. Shu bois baytlar turlicha nomlanadi. Agar har bir misrada

محمود بن عمر الزمخشري. القسطان المنتقم في علم العروض. دار الكتب. القاهرة. ر. 60. ص. 110

to'rtta, demak baytda sakkizta rukn mavjud bo'lsa, bunday baytni **musamman** – (مثنى – sakkizlik) deb ataymiz. Masalan: tavil bahri qolipi

فعولن مفاعيلن فعولن مفاعيلن

فعولن مفاعيلن فعولن مفاعيلن

Agar har bir misrada uchtadan, baytda oltita rukn mavjud bo'lsa, bayt **musaddas** – (مسدس – oltilik) deyiladi. Misol: rajaz bahri

مستفعلن مستفعلن مستفعلن

مستفعلن مستفعلن مستفعلن

Bulardan tashqari **murabba** (مربع – to'rtlik) baytlar ham bo'ladi. Ularda har bir misradagi ruknlar soni ikkitadan bo'lishi shart. Misol: hazaj bahri

مفاعيلن مفاعيلن

مفاعيلن مفاعيلن

Yuqorida ko'rib o'tilgan bayt shakllaridan **musammanda** xashvlar soni 4ta, **musaddasda** 2tadir.

**Murabbalarda** esa, xashv bo'lmaydi, faqat sadr – arud; ibtido – darb ishtirok etadi.

### 1.3. Juzvlar haqida tushuncha

*Darsning maqsadi:* Aruzdagi eng kichik ritmik bo'lak harf va bosh o'lchov birligi sanaladigan juzvlarning turlari haqida ma'lumot berish.

*Tayanch so'zlar va iboralar:* hijo, harf, mutaharrik, juzv, maqta, sabab, vatad, fosila, o'lchovlar, harf, bo'g'inlar.

Aruzdagi eng kichik ritmik bo'lak sifatida ayrim mutaxassislar (arab va fors aruzshunosligi an'alariga muvofiq) harfni, boshqalari esa (turkiy tillar va turkiy aruz xususiyatlaridan kelib chiqib) hijoni ko'rsatishadi. Ya'ni, eng kichik ritmik bo'lak sifatida harfning olinishi arab tili (va yozuvi) uchun xosroq, o'zbek tili uchun esa hijoning olingani qulayroq.

Shunday qilib, arab aruzshunosligida eng kichik ritmik bo'lak — harf, harf esa ikki turli bo'ladi: mutaharrik (harakatli) va sokin

(harakatsiz). Harakatli deganda unli tovush tushunilishi e'tiborda tutilan, "mutaharrik harf", "sokin harf" atamalarining ma'nosi aniqlanadi. Masalan, "ko'z" so'zi ikkita harf: bir mutaharrik ("ko") va bir sokindan ("z") tarkib topadi.

Aruz fanining asosi o'lchovlar (vaznlar) va ma'lum tartibda ketma-ket keladigan harakatli va sukunli harflardan tashkil topgan **ruknlar** hisoblanadi. Shuningdek, harakatli va sukunli harflarning ma'lum tartib bilan almashinib kelib, bir butunlikni tashkil qilishlariga qarab bo'lakchalarga ajratadi. Ana shu kichik bo'lakchalar aruz uchun bosh o'lchov birligini tashkil qiluvchi **juzy** (ko'pligi **ajzo**)lar (maqta')dir. Ular ikki turli bo'ladi:

**Birinchisi**, maqta tarkibida harakatlanganligi yoki sukunlanganligidan qat'iy nazar, ikkita harf ishtirok etgan bo'lak **sabab** – سبب (lug'.m: arqon)dir. Sabab ikki turli bo'ladi:

1. Yengil sabab (سبب خفيف) – bir qisqa harakatli va bir sukunli harflar birikmasidan iborat. Masalan, **لَيْسَ** dagi **لَيْسَ** – "may – may", "nay – nay", "gul – gul" kabilar.

2. Og'ir sabab (سبب ثقيل) – ikki qisqa harakatli harflar birikmasidan iborat. Masalan, **عَلَّ** dagi **عَلَّ**.

**Ikkinchisi**, uch harfdan iborat **vatad** (وَتَد) (lug'.m: qoziq). Vatadning ham ikki turi mavjud:

1. Ajratilgan vatad (وَتَد مفروق) – ikki harakatli harfning o'rtasida keluvchi bir sukunli harflar majmuasi. Masalan, **مَفْعُولَات** dagi **لَا**.

Misol:

Kimdadur safo seningcha, kimdadur vafo seningcha

2. Yig'ilgan vatad (وَتَد مجموع) – ikki harakatli va bir sukunli harflar yig'ilmasidan iborat. Masalan, **عَلَّن** dagi **عَلَّن**.

Shuningdek, uch yoki to'rt harakatli, oxiri harakatsiz harfdan tashkil topgan bo'lak **fosila** (الفاصلة) (lug'.m: oraliq)lar ham ikki ko'rinishda bo'ladi:

1. Kichik fosila (الفاصلة الصغرى) – bir og'ir va bir yengil sababning yig'ilmasidan iborat. Masalan, **مُتَفَاعِلُن** dagi **مُتَفَاعِلُن**.

\* Harf so'zi tovushning o'zini hamda uning yozuvdagi ifodasini birdek ifodalaydi.

2. Katta fosila (الفاصلة الكبرى) – bir og‘ir sabab va bir yig‘ilgan vatadga teng. Masalan, فَعَلْتُنْ.

Arablar yuqoridagilarni bir jumlagam jam qilishgan:

لم أر على ظهر جبلن سمكتن  
سبب وتد فاصلة

A. Navoiy quyidagi jumlaning yuqorida aytilgan hamma juzvlarning ifodasi tariqasida keltiradi:

Ul ko‘zi qaro dardu g‘amidin chidamadim  
sabab vatad fosila

Ul – sabab hafif, ko‘zi – sabab saqiyl, qaro – vatad majmu, dardu – vatad mafruq, g‘amidin – fosilal sug‘ro, chidamadim – fosilal kubro.

Navoiy fikricha, bu juzvlarning har biri yakka holda ishlatilganda vazn maydonga kelmaydi. She‘rda vazn hosil qilish uchun, bu juzvlarni aralashtirib ishlatish kerak.

Mana shu uch xil bir-biriga o‘xshamas juzvlar (sabab, vatad, fosila)ning qo‘shilishidan aruzshunoslar she‘rning vaznini o‘lchash uchun shunday o‘lchovlar hosil qilganki, ular va ularning turlanishidan chiqqan o‘lchovlar hamma vaznlarni hosil qilishga va she‘rda qo‘llaniladigan vaznlarni tayinlashga imkon tug‘diradi.

Juzv harf va harakatdan tuziladi. Unli harf uchta  $و ا ي$  ular ochiq bo‘g‘inda (sokin) sukunli yoki uzun unli vazifasini o‘tagan. Biroq arab alifbosida eski o‘zbek yozuvida unli harfli ochiq bo‘g‘inlar doimo cho‘ziq bo‘g‘in o‘rniga o‘tavermagan. Ba‘zan cho‘ziq va qisqa bo‘g‘inga ham o‘tavergan.

Shunday qilib, harflar soni doimo bo‘g‘inlar sonidan ko‘p bo‘ladi.

Demak, she‘rlarni tahlil qilishimiz jarayonida bo‘g‘inlarga emas, harflarga e‘tibor qaratishni unutmasligimiz kerak ekan, aks holda vaznni to‘g‘ri aniqlay olmaymiz.



## 1.4 Aruzda ruknlarning ahamiyati

**Darsning maqsadi:** Talabalarni aruz ruknlari va ularning turlari va ularda sodir bo'ladigan o'zgarishlar bilan tanishtirish.

**Tayanch so'zlar va iboralar:** Rukn, af'ila, taf'ila, rukn qoliplari, afoi'yl, fa'u:lun, mafa:'ilun, foilotun, sog'lom rukn, xamosti, suboti, tarmoq rukn, solimul – arkon, zihof va illatlar, hazf, noqis, idmar, habn va tayy.

Aruz vaznida eng kichik o'lchovlar ruknlardir. Rukn – bu juzvlarning ya'ni sabab, vatad va fosilalarning birikuvidan she'riy misralarni hosil qiluvchi bo'lakdir. Vaznlar ruknlardan tuziladi, ruknlar esa juzvlardan iboratdir. O'zbek aruzshunosligida "arkon" ham deb nomlashadi<sup>7</sup>. Ko'plab arab aruziga bog'ishlangan asarlarda esa runlar "afoi'yl" va "tafo'iyl" deyiladi. Ruknlar necha harfdan tashkil topishiga qarab ikki qismga bo'linadi:

Xalil ibn Ahmad rukn qoliplarini yasashda quyidagi 10ta harfdan foydalanadi: ا،ت،س،ع،ف،ل،م،ن،و،ى.

Arab olimlari ushbu harflar yig'indisidan "المعت سيقونا" (tarj: "shamshirlarimiz yaraqlab ketdi") jumlasini shakl qilib yasashgan.

Sabab, vatad va fosilalardan tarkib topgan afoi'yl – الالفاعيل va taf'ail'yl – الالفاعيل lar deb ataladigan 8ta asl af'ila (ruknl)lar mavjud. Ular necha harfdan tashkil topishiga qarab ikki qismga bo'linadi:

1. Besh harfdan yasalgan ruknlar. Ular ikkita:

Birinchisi – فاعولن (fa'u:lun) – bir yig'ilgan vatad (وا) va bir yengil sabab (لن) keladi.

Ikkinchisi uning aksi فاعلن (fa:'ilun) – bir yengil sabab (فا) va bir yig'ilgan vatad (علن) keladi.

2. Yetti harfdan yasalgan ruknlar. Ular oltitadir:

Birinchisi – ikki yengil sabab va yig'ilgan vataddan tuzilgan uchta ruknlar: Birinchisi – مستقلن (mustaf'ilun). Boshida ikki

<sup>7</sup> Липшиер Навоий. Асарлар. 15 томлик. Т. 14 - том. Мезодул-авзон. – Т.: Фан, 1967. – Б.139

sabab (مس va تف) va oxirida keluvchi bir vatad (عَلْن) yig'indisidan iborat.

Ikkinchisi – مَفَاعِيْلُنْ (mafa:'ilun). Boshida vatadi majmu' (مفا) keyin ikki yengil sabab (عِيْلُنْ) keladi.

Uchinchisi – فَاَعِلَاتُنْ (fa:'ila:tun). Boshida va oxirida keluvchi ikki yengil sabab (فا va تُنْ) va o'rtada keluvchi bir yig'ilgan vataddan iborat.

To'rtinchisi – مُفَاعِلَاتُنْ (mufa:'alatun) bir yig'ilgan vatad (مفا) va undan keyin keluvchi kichik fosila (عَلْتُنْ) dan iborat.

Beshinchisi – مُتَفَاعِلُنْ (mutafa:'ilun) yuqoridagining aksi ya'ni bir kichik fosila (مُتفا) va bir yig'ilgan vatad (عَلْن) dan iborat.

Oltinchisi – ikki yengil sabab va keyin bir ajratilgan vataddan tarkib topgan مَفْعُولَاتُ (maf'u:la:tu) ruknidir<sup>8</sup>.

Ko'pgina aruzga doir asarlarda 8ta asl ruknlar mavjudligi ko'rsatiladi. Lekin masalan, Abu Nasru Hammod al-Javxariyning "Aruz al-Vurqatiy" risolasida shu 8 rukndan "مَفْعُولَاتُ" ("maf'u:la:tu") ruknini olib tashlaydi<sup>9</sup>.

Yuqoridagi rukn qoliplari arab she'riyati vaznlarini yasaydigan asliy ruknlardir. Bahrlar tarkibida qo'llanilayotgan ruknlar sof birlamchi holatda yoki ayrim o'zgarishlarga uchragan shaklda uchrashi mumkin.

Birlamchi holatda, hech qanday o'zgarishlarga uchramagan shaklda qo'llanilayotgan ruknni sog'lom (سالم) rukn deb ataladi. Besh harfli asllar "xumosiy" (beshtalik) va yetti harfli asllar "subotiy" (yettilik) deb ataladi. Navoiy fikricha, turkiy she'riyatda ko'p ishlatiladigan asl ruknlar beshtadir. Quyida ularning uzun va qisqa bo'g'inlarini ifoda etuvchi belgilar bilan beramiz:

Mafa:'ilun - / - - -

Fa:'ila:tun- / - -

Mustaf'ilun - - / -

Maf'u:la:tun - - - /

<sup>8</sup> الرمخشري محمود بن عمر . التسطار المستقيم في علم العروض . دار الكتب المصرية . 538 . بخط سنة 1853 ميلادية ص 4 .  
<sup>9</sup> الجوهرى . عروض الوردية .

**Tarmoq ruknlar.** Ruknlar bahrlar tarkibida hamma vaqt ham sog'lom holda ishlatilmaydi, ko'p hollarda ruknlar bahrlar doirasida miqdor o'zgarishlarga uchrab turadi. Biroq asliy ruknlar bahrlar tarkibida hamma vaqt ham sog'lom holda ishlatilmaydi, ko'p hollarda ruknlar bahrlar doirasida miqdor o'zgarishlarga uchrab turadi. Ushbu o'zgarishlardan hosil bo'lgan ruknlar qoliplarini tarmoq (فرع) ruknlar deyiladi. Ular quyidagilardir:

فَعُولٌ، فَعُولٌ، فَعْلٌ، فَعْلٌ، فَعْلٌ، فَعْلٌ  
فَعْلٌ، فَعْلٌ

Keyingi asliy rukn فاعِلٌ dan 2ta tarmoq rukn yasaladi: فَعْلٌ، فَعْلٌ

مُسْتَفْعِلٌ (mustaf'ilun) keyingi asliy rukn. Ushbu rukn qolipida 11 ta tarmoqlari bor:

مُفَاعِلَةٌ، مُفَاعِلَةٌ، مُسْتَفْعِلٌ، مُفَاعِلٌ، مَفْعُولٌ، فَعُولٌ، مُسْتَفْعِلَانٌ، مَفَاعِلَانٌ، مُفَاعِلَانٌ، فَعْلَانٌ، فَعْلَانٌ

مَفَاعِلَةٌ ushbu asliy ruknning yettita tarmoq ruknlari mavjud:

مَفَاعِلَةٌ، مَفَاعِيلٌ، فَعُولٌ، مَفْعُولٌ، فاعِلٌ، مَفْعُولٌ

Keyingi asliy rukn فاعِلَانٌ da o'n bitta tarmoq rukn bor:

فَعْلَانٌ، فاعِلَانٌ، فَعْلَانٌ، فاعِلَانٌ، فاعِلَانٌ، فاعِلَانٌ، فاعِلَانٌ، فاعِلَانٌ، فاعِلَانٌ، فاعِلَانٌ، فاعِلَانٌ

مَفَاعِلَانٌ (mufa:'alatun) nomli asliy rukndan sakkizta tarmoq ruknlar yasaladi:

مَفَاعِلَانٌ، مَفَاعِلَانٌ، فَعُولَانٌ، مَفْعُولَانٌ، فاعِلَانٌ، مَفْعُولَانٌ، مَفْعُولَانٌ، مَفْعُولَانٌ

Keyingi asliy rukn مُتَفَاعِلَانٌ (mutafa:'ilun) ning o'n beshta tarmoq rukni mavjud:

مُسْتَفْعِلَانٌ، مَفَاعِلَانٌ مُفَاعِلَانٌ، فَعْلَانٌ، فَعْلَانٌ، فَعْلَانٌ، مَفْعُولَانٌ، مُسْتَفْعِلَانٌ، مَفَاعِلَانٌ، مُفَاعِلَانٌ، مُسْتَفْعِلَانٌ، مُفَاعِلَانٌ، مُفَاعِلَانٌ

Va nihoyat oxirgi asl rukn qolipimiz مَفْعُولَاتٌ bo'lib, o'n bitta far'iy ruknlari mavjud:

فَعُولَاتٌ، فاعِلَاتٌ، مَفْعُولَانٌ، فَعُولَانٌ، فاعِلَانٌ، مَفْعُولَانٌ، فَعُولَانٌ، فاعِلَانٌ، فَعُولَانٌ، فاعِلَانٌ



Asliy ruknlar (الأصول) va tarmoq ruknlar (فروع) ning aruzda yana bir amaliy ahamiyati shundaki, she'ning vazni tayin etilganda unga kirgan hamma o'lchov sxemalarining nomlari vaznning nomida qayd etiladi. Yuqorida aytilganidek, agar vazn o'zgartirilmagan aslning takroridan hosil bo'lsa, "solimul – arkon" vazn nomini oladi<sup>10</sup>.

**Zihof va illatlar.** Yuqorida aytib o'tganimizdek, ruknlar hamma vaqt ham to'g'ri va sog'lom holda qo'llanilavermaydi. Ruknlar bir qancha o'zgarishlarga: harakatli yoki sukunli harfni tushib qolishi, ruknga bir yoki undan ortiq harfning orttirilishi kabi shakllarda uchraydi. Bu kabi o'zgarishlar aruz ilmida zihof va illatlar deyiladi.

**Zihoflar :** zihof (زحاف lug'm: asldan uzoqlashuv) – bir baytning barcha ruknlarida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan, lekin qasidaning boshqa-boshqa baytlarida takrorlanishi shart bo'lmagan o'zgarishlardir.

Al-Munjid zihofga quyidagicha ta'rif beradi:

“Aruzda zihof-sabab, xafif yoki sababi saqilning ikkinchi harfida ro'y beradigan o'zgarish, u o'zining og'irligi tufayli shunday nomlangan”.

Biroq, zihofga uchrayotgan harf ruknning ikkinchi, to'rtinchi, beshinchi va yettinchi harflari bo'lishi shart. Boshqa harflar (birinchi, uchinchi, oltinchi)ga zihof tushmaydi. Aslida birinchi harfga zihof tushishi mumkin emas, chunki u yuqorida ta'kidlaganimizdek, sababning ikkinchi harfigagina tushadi.

Haqiqatan ham, aruzning arab nazariyotchilarining ta'kidlashicha, zihof she'ning boshidan oxirigacha emas, balki faqat bir marta uchrashi ham mumkin.

**Zihof sodda (مفرد) va murakkab (مركب) bo'lishi mumkin.**

Zihoflar bayoni va tasnifi aruz nazariyasining tushunish nuqtai nazaridan emas, balki esda qolish jihatdan eng murakkab qismi hisoblanadi, shuning uchun arab nazariyotchilari sodda va murakkab zihoflarning maxsus jadvalini tuzib chiqdilar.

<sup>10</sup>Султонов Иззат. Адабиёт назарияси. – Т.: Ўқитувчи, 1980. – Б.321

Yuqorida qayd etilganidek, zihoflarning umumiy xususiyati, ular sabablarning ikkinchi harfida bo‘lishidir. Aniqlash sodda bo‘lib ko‘rinsa-da, u ancha murakkab ish, bu yerda sabablarga emas, ruknlarning biriga (tafa‘il) duch kelinadi. Bunday holatda, zihof ruknning ikkinchi harfida, shuningdek, to‘rtinchi, beshinchi, yoki yettinchi harflarida uchrashi mumkin. Agar zihof ruknning bir o‘rnidagina namoyon bo‘lsa, sodda zihof deyiladi.

Birikmalarda bir necha zihoflar (sababda ikkita zihof) uchrashi mumkin. Bunday zihof murakkab zihof deyiladi.

Demak, sodda zihoflar sakkizta ekan. Ularni jadval ko‘rinishida ko‘rib chiqamiz:

### Sodda zihoflar jadvali

No	Nom-lari	Ta‘rif	Boshlang‘ich etaplar	Zihof harakati oqibatida ruknning o‘zgarishi	O‘zgargan ruknning ekvivalenti
1	Idmar	Sababning ikkinchi harfi harakatli bo‘lganda, o‘sha harfning sukunlanishi	Harakatli ta mutafa‘ilun متفاعلن	Sukunlangan ta mutfa‘ilun متفاعلن	Mustaf‘ilun مستفعلن
2	habn	Sababning ikkinchi sukunlangan harfning tushishi	1. Mustaf‘ilun 2. Fa‘ilun 3. maf‘u:la:tu 4. Fa‘ila:tun	Mutaf‘ilun Fa‘ilun Ma‘ulatu fa‘ila:tun	Mafa‘ilun fa‘ilun Fa‘ulatu Fa‘ila:tun
3	Tayy	Rukndagi to‘rtinchi sukunlangan harfning tushishi	1. Mustaf‘ilun 2. mutafa‘ilun 3. maf‘u:la:tu	Musta‘ilun Mutaf‘ilun	Mufta‘ilun Mafa‘ilun Fa‘ilatu
4	Vaqs	Rukndagi sababning ikkinchi harakatli harfning tushishi	mutafa‘ilun	Mutafa‘ilun	mafa‘ilun
5	Asb	Rukndagi beshinchi harakatli harfning u sababning ikkinchi harfi bo‘lganda sukunlanishi	mufa‘alaton	mufa‘altun	mafa‘ilun

6	Qabd	Sababning ikkinchi harfi bo'lgan rukning beshinchi sukunlangan harfning tushushi	1. Fa' ilun 2. Mafa: 'iylun	Fa' ilu Mafa: 'ilun	
7	Aql	Sababning ikkinchi harfi bo'lgan rukning beshinchi sukunlangan harfning tushushi	Mufa' alatum	mufa' atun	mafa: 'ilun
8	Kaff	Sababning ikkinchi harfi bo'lgan rukndagi yettinchi sukunlangan harfning tushushi	1. mustaf' ilun 2. fa' ilatum	Mustaf' ilu fa' ilatu	

Sodda zihoflardan tashqari, yuqorida aytib o'tganimizdek, "murakkab" zihoflar ham mavjud, ular arab aruzshunoslari fikricha to'rttadir:

1. Xabl ( خبل ) – xabn va tayning bita ruknda birikishi.
2. Xazl ( خزل ) – rukndagi idmar va tayning birikuvi.
3. Shakl ( شكل ) – rukndagi xabn va kaffning birikuvi.
4. Naqs ( نقص ) – rukndagi asb va kaffning birikuvi.

### Murakkab zihoflar jadvali

No		Yakka zihoflar	Birikkan zihoflar	Dastlabki ruknlar	Zihoflar harakati oqibatida ruknlarning o'zgarishi	O'zgarigan ruknlarning ekvivalenti
1	2 3	Xabn Tayy	Xabl	1. Mustaf' ilun 2. Maf' u: la: tu	Mutaf' ilu Ma' ulatu	Fa' ilatum Fa' ulatu
2	1 3	Idmar Tayy	Xazl	Mutafa: ' ilun	Mutfa' ilun	Mufta' ilun
3	2 8	Xabn Kaff	Shakl	1. Fa' ilatum 2. mustaf' ilun	Fa' ilatu Mutaf' ilu	Mafa: ' ilun
4	5 8	Asb Kaf	Naqs	Mufa: ' alatum	Mufa: ' alatu	Mafa: ' iylu

**Illa** rukndagi shunday o'zgarishki, u o'sha qasida yoki she'rning barcha baytida sodir bo'lishi kerak.

Illaning ikki xil turi bor: «ilal az-zaida» – orttiriluvchi illa va «ilal an-naqs»-kamaytiriluvchi illa.

Orttiriluvchi illa o'z navbatida uch turga bo'linadi: tarfil, taziyl, tasbig'.

### Orttirilgan illa jadvali

№	Nom lari	Ta'riflar	Dastlabki ruknlar	Ilal az-ziyada ta'siri natijasida o'zgartgan ruknlar
1	Tarfil	Vatad majmu' bilan tugaydigan ruknga sabab xafifning qo'shilishi	1.fa'ilun 2.mutafa'ilun	Fa'ila:tun Mutafa'ila:tun
2	Taziyl	Vatad majmu' bilan tugaydigan ruknga harakatsiz harfning qo'shilishi	1.mutafa'ilun 2.mustaf'ilun 3.fa'ilun	Mutafa'ila:n Mustaf'ila:n fa'ila:n
3	tasbig'	Sabab xafif bilan tugaydigan ruknga harakatsiz harfning qo'shilishi	1.fa'ilatun	Fa'ila:ta:n

Ilal an-naqs (kamaytiriluvchi illa) tez-tez uchraydi. Ular nisbatan turli tumandir. Ularning vazifasi ruknlardan biror qismni orttirish emas, balki kamaytirishdir.

Aruz bo'yicha arab mutaxassislarining tasniflariga ko'ra kamaytiriluvchi illaning quyidagi turlari mavjud:

Xazf, qatf, qasr, qat', tash'is, xazaz, salm, kasf, vaqf kabilardir.

## Kamaytirilgan illa jadvali

№	Nom-lari	Ta'rif	Boshlang'ich etaplar	illa oqibatida ruknning o'zgarishi	O'zgargan ruknning ekvivalenti
1	Xazf	Rukn oxiridagi sabab xafifning tushib qolishi	Mafa:'iylun	Mafa:'iy	Fa'u:lun
2	Qatf	Rukn oxiridagi sabab xafif va uning oldidagi harakatli harfning tushib qolishi	Mufa'alatun	Mufa'al	Fa'u:lun
3	Qasr	Sabab xafifdan sokin harf tushishi va oldidagisining sukunlashishi	Mafa:'iylun	Mafa:'iyl	Mafa:'iyl
4	Qat	Rukn so'ngidagi vatad majmu'dan sokin harfning tushib qolishi va oldidagisining sukunlashishi	Fa:'ilun	Fa:'il	F'alun
5	Xazaz	Vatad majmu'ning tushib kolishi	Mustaf'ilun	Mustaf	F'alun
6	Ssalm	Rukn oxirida vatad mafruqning tushib qolishi	maf'u:la:tu	maf'u:	F'alun
7	Kasf	Rukn oxiridagi vatad mafruqning so'nggi harfini tushirib qoldirish	maf'u:la:tu	maf'u:la:	maf'u:lun
8	Vaqf	Rukn oxiridagi vatad mafruq so'nggi harfni sukunlash	maf'u:la:tu	maf'u:la:t	maf'u:la:t



O'zgarish turlari orasida harm muhim o'rin tutadi, u harm, shuningdek, salm va adb turlariga ega. Keyingi o'zgarishlarda xarm-harb, shatar, qasm va jimam kabi turlariga ega bo'ladi.

Al-Xorazmiy fikricha, xarm – bu she'rning boshlanishida ya'ni ruknning boshidagi birinchi undoshning va ketidan keladigan unlining tushishi. Xarm atamasi bu yerda keng ma'noda izohlanyapti. Tor ma'nodagi axram atamasi agar u xarmga tegishli bo'lsa, xazaj bahriga tegishli bo'ladi. Quyida sodda ko'rinishdagi xarmning jadvali beriladi.

### Sodda ko'rinishdagi harmning jadvali

№	Nomlari	Boshlang'ich ruknlar	Harm harakati natijasida ruknlarning o'zgarishi	O'zgargan ruknlarning ekvivalenti
1	Axram /hazajda/	Mafa:'ilun	Fa:'iylun	Maf'u:lun
2	Aslam /tavilda/	Fa'u:lun	'u:lun	Fa'lun
3	A'dab /vafirda/	mufa:'alaton	fa:'alaton	Mufta'ilun

### Murakkab ko'rinishdagi xarmning jadvali

№	Yagona ko'rinishdagi nomi	Aralash ko'rinishini o'zgartirilgan nomi	Boshlan-g'ich ruknlar	Harmning ta'siri natijasida ruknlarning o'zgarishi	O'zgargan ruknlar ekvivalenti
1	Xarm Qabd	Asram /tavilda/	Fa'u:lun	'u:lu	Fa'lu
2	Xarm Qabd	Ashtar /Hazajda/	Mafa:'i:lun	Fa:'ilun	Fa'ilun
3	Xarm Kaff	Axram	Mafa:'i:lun	Fa:'ilu	Maf'u:lu
4	Xarm Asb	Aksam	Mufa:'alaton Mafa:'i:lun	Fa:'atun fa:'i:lu	Fa:'ilun Maf'ulu
5	Xarm Aql	Ajam	mafa:'i:lun	Fa:'ilun	Fa:'ilun

Shunday qilib, biz she'rda sodir bo'ladigan vazn variantlari (illa) hamda rukndagi o'zgarishlar (zihof)ning qay darajada mantiqan va izchil ishlab chiqilganligi ko'rdik. Shuni ta'kidlash lozimki, shoirlar asosan xuddi ana shu "qoidalar"ga rioya qilishgan, faqatgina "Abu-l-Atahiya kabi ba'zi shoirlar aruzni unchalik tan olmaganlar".

Albatta, aruz qoidalariga asosan yozilgan she'rlarning hammasini o'rganib chiqish qiyin, agar bu hodisa amalga oshganda balki biz qayerdadir tanqidchi va nazariyotchilar, u yoki bu shoirlarning zamondoshlari e'tiboridan chetda qolgan birdan-bir tomonlari (variatsiyalar)ni topgan bo'lar edik.

Arab nazariyotchilari bayt qismlarining – she'r misralarining mukammal terminologiyasini ishlab chiqqanlar. Aruz nazariyasini to'liq tushunish uchun ular haqida qisqacha bo'lsa ham biz Abu Abdulloh al-Xorazmiyning "Mafotih al-ulum" asaridagi aruz sistemasining bayoniga o'tamiz.

Uning lo'nda va aniqligini hisobga olib, ensiklopediyaning ma'lum boblarining tarjimasini keltiramiz, chunki Abu Abdulloh al-Xorazmiy tasnifining mazmuni o'rta asrning boshqa arab filologlari tasniflarining mazmunidan biror bir muhim tomonlari bilan farq qilmaydi.

Abu Abdulloh ixtirosining eng muhim xususiyati uning lo'ndaligi, qisqaligi, mantiqan oqlanganligidir.

Mahmud Zamaxshariy "Al-Qistos" asarida ruknlarda sodir bo'luvchi o'zgarishlarni zihof va illalarga ajratmasdan ularni asliy rukndan yasalgan tarmoq ruknlarni har birini alohida turlarga ajratib chiqqan. Ular quyidagicha:

فَعُولٌ (fa'u:lun) ruknidan oltita tarmoq rukn yasaladi: فَعُولٌ، فَعُولٌ، فَعُولٌ، فَعُولٌ، فَعُولٌ، فَعُولٌ.

Maqbud المعبوء (lug'm: tutish) rukn tarkibidagi beshinchi harf ك bo'lingan hamda sababning ikkinchisi bo'lganda tushib qolishi:

فَعُولٌ ← فَعُولٌ

Maqsur – المقصور (lug‘.m: qisqartirish) rukn so‘ngidagi yengil sababdan sukunli harfni tushib qolishi va oldidagisining sukunlashuvi:

فَعُولُنْ ← فَعُولْ

Aslam – الأتلم (lug‘.m: teshish, yorish) birinchi baytdagi birinchi kelgan yig‘ilgan vatadning birinchi harfi tushib qolishi:

فَعُولُنْ ← عُولُنْ = فَعْلُنْ

Asram – الأثرم (lug‘.m: tishi siniq) rukn maqbud bo‘lganda vataddan birinchi va beshinchi harfning tushib qolishi:

فَعُولُنْ ← فَعْلُنْ

Mahzuf – المحذوف (lug‘.m: tushirib qoldirish) baytda arud yoki darb bo‘lib keluvchi rukn oxiridagi yengil sababning tushib qolishi:

فَعُولُنْ ← فَعْلُنْ

Abtar – الأبتّر (lug‘.m: qo‘borish) qat’ va hazfning majmu’sidir.

فَعُولُنْ ← فَعُولْ ← فَعْلُنْ

Keyingi asliy rukn فاعِلُنْ (fa:‘ila: tun)dan 2ta tarmoq rukn yasaladi: فَعْلُنْ، فَعْلَانْ.

Maxbun – المخبون (lug‘.m: etakni qisqartirib tikish) rukndagi ikkinchi harf sukunli hamda sababning ikkinchisi bo‘lganda tushib qolishi:

فَاعِلُنْ ← فَعْلَانْ

Maqtu’ – المقطوع (lug‘.m: kesish) rukn so‘ngidagi yig‘ilgan vataddan so‘ngi sukunli harfning tushib qolishi va oldidagisining sukunlashishi:

فَاعِلُنْ ← فَعْلَانْ

مُسْتَفْعِلُنْ (mustaf’ilun)keyingi asliy rukn. Ushbu rukn qolipida 11 ta tarmoqlari bor:

مَفَاعِلُنْ مُفْتَعِلُنْ، فَعْلَانْ، مُسْتَفْعِلُنْ، مَفَاعِلُنْ، مَفْعُولُنْ، فَعُولُنْ، مُسْتَفْعِلَانْ، مَفَاعِلَانْ، مُفْتَعِلَانْ، فَعْلَانْ، فَعْلَانْ.

Maxbun. Yuqorida xabn haqida aytib o‘tdik.

مُسْتَفْعِلُنْ ← مَفْعِلَانْ = مَفَاعِلَانْ

Matviy – المطوي (lug‘.m: o‘rash) rukndagi to‘rtinchi sukunli harf sababning ikkinchisi bo‘lganda tushib qolishi:

مُسْتَفْعَلُنْ ← مُسْتَعْلَنٌ = مُتَعَلَّنٌ

Maxbul — المخبول (lug‘.m: qarshilik) Xabn va taylarning yig‘indisidan iborat.

مُسْتَفْعَلُنْ ← متفعّلن ← متعلّن = فعّلن

Makfuf — المكفوف (lug‘.m: olib qo‘yish) ruknning yettinchi harfi sukunli hamda sababning ikkinchisi bo‘lganda tushib qolishi:

مُسْتَفْعَلُنْ ← مُسْتَفْعَلٌ

Mashkul — المشكول (lug‘.m: chalkashtirish) xabn hamda kaff birligidan iborat:

مُسْتَفْعَلُنْ ← متفعّلن ← متفعّل = مفاعل

Maqtu‘ — المقطوع rukn so‘ngidagi yig‘ilgan vataddan so‘nggi sukunli harfning tushib qolishi va oldidagisining sukunlashishi:

مُسْتَفْعَلُنْ ← مُسْتَفْعَلٌ = مفعولن

Makbul — المكبول (lug‘.m: zanjirlash) xabn hamda qat‘ birligidan iborat:

مُسْتَفْعَلُنْ ← متفعّلن ← متفعّل = فعولن

Muzal — المذال (lug‘.m: dum orttirish) rukn ortidagi yig‘ilgan vatadga sukunli harf orttirish:

مُسْتَفْعَلُنْ ← مُسْتَفْعَلٌ

Muzali maxbun:

مُسْتَفْعَلُنْ ← متفعّلن ← متفعّلان = مفاعلان

Muzali matviy:

مُسْتَفْعَلُنْ ← مُسْتَعْلَنٌ ← مُسْتَعْلَنان = متعلّان

Muzali maxbul:

مُسْتَفْعَلُنْ ← متفعّلن ← متعلّان = فعّلان

مفاعيلن (mafa‘ilun) ushbuasliy ruknning yettita tarmoq ruknlari mavjud:

مفاعيلن، مفاعيل، مفاعيلن، فعولن، مفعولن، فاعيلن، مفعولن.

Maqbud — المقبوض

مفاعيلن ← مفاعيلن

Makfuf — المكفوف

مفاعيلن ← مفاعيلن

Maqsur — المقصور

مفاعيلن ← مفاعيلن

Mahzuf — المحذوف

مفاعيلُن ← مفاعي = فَعُولُن

Axram – الأخرم (lug'.m: teshik qilish) rukn boshidagi birinchi undoshning va ketidan keladigan unlining tushib qolishidir. Ruknlarning o'zgarish turlari orasida harm muhim o'rin egallaydi. Shuningdek, u salm va adb turlariga ega. Keyingi o'zgarishlarda harm-xarb, shatar, qasm va jimam kabi turlariga ega bo'ladi<sup>11</sup>

مفاعيلُن ← فاعيلُن = مَفْعُولُن

Ashtar – الأستر (lug'.m: yorish) ahram va maqbud yig'indisidan iborat:

مفاعيلُن ← فاعيلُن ← فاعِلُن

Axrab – الأخرب (lug'.m: vayron qilish) ahram va makfuf birligidan iborat:

مفاعيلُن ← فاعيلُن ← فاعيلُ = مَفْعُولُ

Keyingi asliy rukn فاعِلَاتُن (fa:'ila:tun)da o'n bitta tarmoq rukn bor:

فَاعِلَاتُن، فَاعِلَاتُ، فَاعِلَانُ، فَاعِلَانُ، فَاعِلُنْ، فَاعِلُنْ، فَعْلُنْ مَفْعُولُنْ، فَاعِلِيَانُ، فَعْلِيَانُ.

1) Maxbun – المخبون

فاعِلَاتُنْ ← فَعْلَاتُنْ

2) Makfuf – المكفوف

فاعِلَاتُنْ ← فَاعِلَاتُ

2) Mashkul – المشكول

فاعِلَاتُنْ ← فَعِلَاتُ

4) Maqsur – المقصور

فاعِلَاتُنْ ← فَاعِلَاتُ = فَاعِلَانُ

5) Maqsur hamda maxbun:

فاعِلَاتُنْ ← فَاعِلَاتُ ← فَعِلَاتُ = فَعْلَانُ

6) Mahzuf – المحذوف

فاعِلَاتُنْ ← فاعلا = فاعِلُنْ

7) Mahzuf va maxbun.

فاعِلَاتُنْ ← فاعلا ← فَعْلَانُ = فَعْلُنْ

<sup>11</sup> Зиёвуддинова М. Абу Абдуллох аз-Хоразмийнинг "Мафотиҳ ал-улум" асарида поэтика – Т.: Тош/ИИИ, 2001. – Б: 20.

8) Abtar – الأبتَر.

فاعِلَاتُنْ ← فاعِل = فَعَلَنْ

9) Mushsha's – المُشْعَثْ (lug'.m: tashlash) rukndagi vatadning biron-bir harakatli harfning tushib qolishi:

فاعِلَاتُنْ ← فالَاتُنْ yoki فاعِلَاتُنْ = مَفْعُولُنْ

Yoki rukndagi vatadning birinchi harfning sukunlashuvi:

فاعِلَاتُنْ ← فَعَلَاتُنْ = مَفْعُولُنْ

10) Musabbag' – المُسَبِّغْ (lug'.m: semirtirish) rukn ortidagi yengil sababga sukunli harf qo'shish:

فاعِلَاتُنْ ← فاعِلَاتَانْ = فاعِلِيَانْ

11) Musabbag' va maxbun.

فاعِلَاتُنْ ← فاعِلَاتَانْ – فَعِلَاتَانْ = فَعِلِيَانْ

مُفاعِلَاتُنْ (mufa': alatun) nomli asliy rukndan sakkizta tarmoq ruknlar yasaladi:

مفاعِلِيَانْ، مفاعِلُنْ، مفاعِلِيْنْ، فَعُولُنْ، مَفْعِلُنْ، مَفْعُولُنْ، فاعِلُنْ، مَفْعُولُنْ

Ma'sub – المَعْصُوبْ (lug'.m: boshni bog'lash) ruknning beshinchi harfi harakatli hamda sababning ikkinchisi bo'lganda sukunlashuvi:

مُفاعِلَاتُنْ ← مُفاعِلَاتُنْ = مفاعِلِيَانْ

Ma'qul – المَعْقُولْ (lug'.m: bog'langan) rukn tarkibidagi beshinchi harf hamda sababning ikkinchisi bo'lganda tushib qolishi:

مُفاعِلَاتُنْ ← مُفاعِلَاتُنْ = مفاعِلُنْ

Manqus – المَنْقُوصْ (lug'.m: kamaytirilgan) a'sb va kaff birligidan iborat:

مُفاعِلَاتُنْ ← مُفاعِلَاتُنْ = مفاعِلِيَانْ

Maqtuf – المَقْطُوفْ (lug'.m: yaralangan) hazf va 'asbning birligi:

مُفاعِلَاتُنْ ← مفاعِل = فَعُولُنْ

A'dab – الأَعْضِبْ (lug'.m: o'tkir) sog'lom ruknning xarm bo'lishi:

مُفاعِلَاتُنْ ← فاعِلَاتُنْ = مَفْعِلَاتُنْ

Aqsam – الأَقْصَمْ (lug'.m: sindirish) ma'subni xarm bo'lishi:

مُفاعِلَاتُنْ ← فاعِلَاتُنْ = مَفْعُولُنْ

Ajam – الأَجَمْ (lug'.m: shoxsiz) ma'qulni xarm bo'lishi:

مُفَاعَلَتُنْ ← فَاعَلْتُنْ = فَاعِلُنْ

8) A'qs – الأقص (lug' m: o'rilgan) manqusni xarm bo'lishi:

مُفَاعَلَتُنْ ← فَاعَلْتُ = مَفْعُولُ

Keyingi asliy rukn مُتَفَاعَلُنْ (mutafa: 'ilun)ning o'n beshta tarmoq rukni mavjud:

: مُسْتَفْعِلُنْ، مَفَاعِلُنْ مَفْتَعِلُنْ، فَعَلَاتُنْ، مَفْعُولُنْ، فَعَلُنْ، فَعَلُنْ، مُتَفَاعِلَانْ،

مُسْتَفْعِلَانْ، مَفَاعِلَانْ، مَفْتَعِلَانْ، مُتَفَاعِلَاتُنْ، مُسْتَفْعِلَاتُنْ، مُفَاعِلَاتُنْ، مَفْتَعِلَاتُنْ.

1) Mudmar – المضمر (lug' m: o'zini bilmaslikka solish) rukndagi ikkinchi harakatli harf sababning ikkinchisi bo'lganda sukunlashuvi:

مُتَفَاعِلُنْ ← مُتَفَاعِلُنْ = مُسْتَفْعِلُنْ

3) Mavqus – الموقوص (lug' m: bo'g'ish) rukndagi ikkinchi harakatli harf sababning ikkinchisi bo'lganda tushib qolishi:

مُتَفَاعِلُنْ ← مُفَاعِلُنْ = مَفَاعِلَانْ

3) Maxzul – المخزول (lug' m: qisqartirish) idmar va tayyolarning birligidan iborat:

مُتَفَاعِلُنْ ← مَفْعِلُنْ = مَفْتَعِلُنْ

4) Maqtu' – المقطوع rukn so'ngidagi yig'ilgan vataddan so'ngi sukunli harfning tushib qolishi va oldidagisining sukunlashishi:

مُتَفَاعِلُنْ ← مُتَفَاعِلُنْ = فَعَلَاتُنْ

5) Maqtu' va mudmar:

مُتَفَاعِلُنْ ← مُتَفَاعِلُنْ = مَفْعُولُنْ

6) Ahazza – الأحذ rukndagi yig'ilgan vatadning tushib qolishi:

مُتَفَاعِلُنْ ← مُتَفَاعِلُنْ

7) Ahazza va mudmar:

مُتَفَاعِلُنْ ← مُتَفَاعِلُنْ = مُتَفَاعِلُنْ

8) Muzaal:

مُتَفَاعِلُنْ ← مُتَفَاعِلَانْ

9) Muzaal va mudmar:

مُتَفَاعِلُنْ ← مُتَفَاعِلَانْ ← مُتَفَاعِلَانْ = مُسْتَفْعِلَانْ

10) Muzaal va mavqus:

مُتَفَاعِلُنْ ← مُتَفَاعِلَانْ ← مُفَاعِلَانْ

11) Muzaal va maxzul:

مُتَفَاعِلُنْ ← مُتَفَاعِلَانْ ← مُفَاعِلَانْ

12) Muraffal – المُرْفَل (lug‘.m: shokila qilish) ruknlar oxiridagi yig‘ilgan vatadga sukunli harf ottirish:

مُتَفَاعِلُنْ ← مُتَفَاعِلَا = مُتَفَاعِلَاتُنْ

13) Muraffal hamda mudmar:

مُتَفَاعِلُنْ ← مُتَفَاعِلَا ← مُتَفَاعِلَا ← مُتَفَاعِلَاتُنْ = مُسْتَفْعِلَاتُنْ

14) Muraffal va mavqus:

مُتَفَاعِلُنْ ← مُتَفَاعِلَا ← مُتَفَاعِلَا ← مُتَفَاعِلَاتُنْ = مُفَاعِلَاتُنْ

15) Muraffal va maxzul:

مُتَفَاعِلُنْ ← مُتَفَاعِلَا ← مُتَفَاعِلَاتُنْ ← مُتَفَعِّلَاتُنْ

Va nihoyat oxirgi asl rukn qolipimiz مَفْعُولَاتُ (maf‘u:la:tu) bo‘lib, o‘n bitta far‘iy ruknlari mavjud:

: فَعُولَاتُ، فَاعِلَاتُ، فِعَلَاتُ، مَفْعُولَانْ، فَعُولَانْ، فَاعِلَانْ، مَفْعُولُنْ، فَعُولُنْ، فَاعِلُنْ، فِعْلُنْ.

1) Maxbun: مَفْعُولَاتُ ← مَعْوَلَاتُ = فَعُولَاتُ

2) Matviy: مَفْعُولَاتُ ← مَفْعَلَاتُ = فَاعِلَاتُ

3) Maxbul: مَفْعُولَاتُ ← مَعْلَا = فِعَلَاتُ

4) Mavquf – الموقوف (lug‘.m: to‘xtatilgan) rukn oxiridagi ayrilgan vatadning so‘ngi harfini sukunlash:

مَفْعُولَاتُ ← مَفْعُولَاتُ = مَفْعُولَانْ

5) Mavquf va maxbun.

مَفْعُولَاتُ ← مَفْعُولَاتُ ← مَعْوَلَاتُ = فَعُولَانْ

6) Mavquf va matviy.

مَفْعُولَاتُ ← مَفْعُولَاتُ ← مَفْعَلَاتُ = فَاعِلَانْ

7) Makshuf – المكشوف (lug‘.m: to‘siq qo‘yilgan) rukn oxiridagi ayrilgan vatadning hazf bo‘lishi:

مَفْعُولَاتُ ← مَفْعُولَا = مَفْعُولُنْ

7) Makshuf va maxbun.

مَفْعُولَاتُ ← مَفْعُولَا ← مَعْوَلَا = فَعُولُنْ

8) Makshuf va matviy.

مَفْعُولَاتُ ← مَفْعُولَا ← مَفْعَلَا = فَاعِلُنْ

9) Makshuf hamda maxbul.

مَفْعُولَاتُ ← مَفْعُولَا ← مَعْوَلَا = فِعْلُنْ

11) Aslam – الأصلم (lug‘.m: kesilgan) ) rukn oxiridagi ayrilgan vatadning tushib qolishi:

مَفْعُولَاتُ ← مَفْعُو = فِعْلُنْ



## Mavzu yuzasidan topshiriqlar

1. Aruz soʻzinig maʼnosi qanday?
2. A. Rustamovning aruz vazniga qanday taʼrif keltirgan?
3. A. Navoiyning “Mezon-ul-avzon” asarida aruzga boʻlgan taʼrifi.
4. Xotib Tabriziy aruz soʻziga qanday taʼrif bergan?
5. Sharq adabiyotshunosligida qanday maʼnolarda ishlatilgan?
6. Aruz nazariyasi qachon va kim tomonidan yaratilgan?
7. Xalil ibn Ahmadning asarlari.
8. Xalil ibn Ahmad qay tarzda aruz sistemasini yaratgan?
9. Xalil Aruz bahrlarini nechta turga boʻladi?
10. Al-Xalildan keyin qaysi arab olimlari aruz boʻyicha tadqiqotlar olib borganlar?
11. Bayt soʻzining maʼnosi?
12. Aruzda bayt qurilishini ahamiyati.
13. Har bir bayt qanday boʻlaklardan iborat boʻladi?
14. Bayt qurilishida har bir misraning nomlari qanday ataladi?
15. Juzvlar deganda nimani tushunasiz?
16. Juzvlarning turlari.
17. Vatad nima?
18. Fosila qanday boʻlak va uning turlari?
19. Asl ruknlar qanday?
20. Tarmoq ruknlarning qoliplari.
21. Ruknlar qanday oʻzgarishlarga uchraydi?
22. Zihof ruknlarda qay holatda sodir boʻladi?
23. Sodda zihoflar qanday?
24. Illatlar qachon sodir boʻladi?
25. Orttirilgan illatlar qanday?
26. Ruknlarda sodir boʻluvchi oʻzgarishlarni yana qanday talqini mavjud?
27. Xarm atamasiga taʼrif.
28. Xarmning turlari qanday?

## Mustaqil ta'lim bo'yicha savol va topshiriqlar

1. Halil ibn Ahmad aruz ilmining asoschisi.
2. O'rta Osiyolik olimlarning aruz so'ziga bergan ta'riflari.
3. Arab she'rining asosi bayt qurilishi qoidalari.
4. Aruz vaznida yozilgan g'azallarni mustaqil ravishda topib ularni ruknlarga bo'lib vaznini aniqlash.
5. Asl va tarmoq ruknlarni g'azallar ichidan misol topib sharhlab berish.
6. Zihof va illalar.

## II BO'LIM. ARUZ BAHRLARI VA ARUZIY DOIRALAR

*Darsning maqsadi:* Talabalarga aruz bahrlari haqida umumiy ma'lumotlar berib o'tish va bahrlarni tuzilishiga ko'ra turlari bilan tanishtirish.

*Tayanch so'zlar va iboralar:* bahr, o'zak vazn, al- mutadorik, al-Axfash, "Muttafiqa", "rakd", 16 bahr, ritmik bo'laklar, ettiharfli, beshharfli, Qorishiq, sog'lom bahr, tarmoq bahr, maf'uvlatu.

### 2.1 Aruz bahrlari

Bahr (بحر – lug'm: dengiz) – bu shoir ijod oldidan maxsus tanlab olgan she'r vazni shaklidir. Adabiyotshunos Ahmad Hoshimiyning fikriga ko'ra bahr – maxsus vazn, qasidada shoir uning misoliga amal qiladi<sup>12</sup>.

Bahr vaznlar turkumi yoki bir qancha vaznning yagona asosi, "o'zak vazn" demakdir. Bobokolonimiz A. Navoiy "Mezon ul-avzon" asarida bahrlar bobida shunday deydi: "...buhureki ba'zining takrori va ba'zining tarkibi ba'zi bila hosil bo'lur"<sup>13</sup> ya'ni bahrlar asl va far'iy ruknlarning takroridan yoki bir-biriga aralastirib olinishidan paydo bo'ladi.

Shuningdek, "bahr arab she'ri yuradigan yo'ldir" deb arab olimi Kamil Sayyid Shahin "bahr" so'zining etimologiyasidan kelib chiqqan holda ta'rif bergan.

She'rda bahrni belgilash uchun avvalo ritmning dastlabki misrada qayerda tugashi-yu, ikkinchisida qayerdan boshlanishini topish kerak. Ikkinchi misra ham birinchiga deyarli o'xshash, bu amaliyotning birinchida tugal belgilanishi ikkinchi uchun ham zarur nisbatga yaqinlashtiriladi.

Aruz – she'rning asosiy muayyan bahrini o'rganadigan fan deb ataydigan bo'lsak, undagi tarmoqlanish hodisasi qoidalari asosida bahrlarning turli shakllari hosil qilinadi va uning asosida

<sup>12</sup> الهاشمي احمد، ميزان الذهب في صناعة العرب، القاهرة، 1966. ص 29

<sup>13</sup>Навоий А. Мезонул-авзон. – Т.: Фан, Асарлар. 14 ж. 1968. – Б.142

ritm bo‘laklarini “asldan uzoqlashgan” hisoblab, chiqarib tashlash yotadi.

Arab aruzida hammasi bo‘lib 16ta bahr mavjud. Xalil ibn Ahmad yuzga yaqin aruz vazni oralaridagi mushtaraklik alomatlariga qarab ularni 15 guruhga bo‘ladi va bu guruhlarni bahrlar deb ataydi.

Manbalarda keltirilishicha Xalil ibn Ahmad hayotlik davrida uning shogirdi Abul Xasan al-Axfash o‘n oltinchi bahrni kiritib, uni **al- mutadorik** deb nomlanagan.

Abu Xafs an-Nasafiy va Mahmud Zamaxshariylar doira bobida beshinchisini “Muttafiqa” deb atab, bahrlardan mutaqorib va rakdni beradi. Biroq ikkala alloma ham bahrlar bobida 16ta bahrlarni keltirib, o‘n oltinchisini “mutadorik” deb atab misol berishadi.

Ular o‘z asarlarida Xalil ibn Ahmad istagi bo‘lgan “rakd” nomini doirada qoldirib, Abul Xasan al-Axfash kiritib, “mutadorik” deb nomlagan o‘n oltinchi bahrni bahrlar bobida keltiradilar. Biroq berilgan she’riy misollari bir-biridan farq qiladi. Mahmud Zamaxshariy o‘zi to‘qigan baytlarni keltiradi. Chunki har bir she’riy misol o‘sha un olti bahr nomi o‘zagi bilan boshlanadi.

Shunday qilib, arab aruzida quyidagi 16 bahr mavjud:

1. Tavil – الطويل (lug‘.m: uzun ) bahri
2. Madid – المديد (lug‘.m: cho‘ziq) bahri
3. Basit – البسيط (lug‘.m: yoyiq) bahri
4. Vafir – الوافر (lug‘.m: mo‘l) bahri
5. Kamil – الكامل (lug‘.m: yetuk) bahri
6. Hazaj – الهزج (lug‘.m: qo‘shiq) bahri
7. Rajaz – الرجز (lug‘.m: kuybop) bahri
8. Ramal – الرَّمَل (lug‘.m: yelish) bahri
9. Sari’ – السريع (lug‘.m: tez) bahri
10. Munsarih – المنسرح (lug‘.m: ozod) bahri
11. Hafif – الخفيف (lug‘.m: yengil) bahri
12. Mudari’ – المضارع (lug‘.m: o‘xshash) bahri
13. Muqtadab – المقتضب (lug‘.m: burdalangan) bahri

14. Mujtass – المجتث (lugʻ. m: qoʻporilgan) bahri

15. Mutaqarib – المتقارب (lugʻ. m: yaqinlashuvchi) bahri

16. Mutadorik – المتدارك (lugʻ. m: soʻng anglashilgan) bahri

Bahrlar shakllariga koʻra ritmik boʻlaklar takroridan tuziladi. Filologlar bahrlarni ana shu qiyosga koʻra turlarga ajratadilar.

Bir xil ritmik boʻlaklar takroridan tarkiblangan bahrlar: komil, vofir, hazaj, rajaz, ramal, mutaqarib, mutadorik;

Ikki turli ritmik boʻlaklar takroridan tarkiblangan bahrlar: tavil, madid, basit, sariʼ, munsarih, xafif, mudoriʼ, muqtadab, mujtass.

Bahrlarni yana tarkiblaridagi ritmik boʻlaklar harflari sonlariga nisbatan ham farqlanishi mumkin:

**Yetti harfli** ruknlardan tashkil topgan bahrlar: vofir, komil, hazaj, rajaz, ramal, sariʼ, munsarih, hafif, mudoriʼ, muqtadab, mujtass;

**Besh harfli** ruknlardan tashkil topgan bahrlar: mutaqarib, mutadorak;

**Qorishiq** bahrlar: tavil, madid, basit.

Bahrlar tarkibida qoʻllanilayotgan ruknlar sof – asl holatda yoki ayrim oʻzgarishlarga uchragan shaklda uchrashi mumkin. Hech bir oʻzgarishlarga uchramagan solim ruknlarga tugallanayotgan toʻliq bahrni sogʻlom bahr ( بحر سالم ) deyiladi. Aksincha, arudi va darbi tarmoq rukndan iborat boʻlgan bahr – tarmoq bahr ( بحر فرعى ) deb ataladi. Tarmoq bahrlar jarayoni aruz tanida bahrlarning tarmoqlanishi hodisasi deyiladi.

Shuningdek, baytlar miqdoriga qarab yoki sifatiga bogʻliq ravishda bahrlar oʻzgaradi. Ular oʻz tarkiblaridagi ruknlar sonining toʻliq yoki toʻliqmasligiga qarab ham alohida nomlanadi. Agar maʼlum baytda ishtirok etuvchi ruknlar soni aslida koʻrsatilganidan bir rukn kam boʻlsa, u majzu ( مجزوء boʻlingan ) bir juzvi olingan deyiladi. Agar toʻliq boʻlsa, taamma ( تام toʻliq ) deb ataladi.

Alloma Mahmud Zamaxshariy “Al-Qistos fi ilmi-l-aruz” asarida bahrlar bobida bahrlarni noanʼanaviy uslubda ajratib chiqqanligini kuzatamiz:

She'r bahrlarining tarkibida sakkiz (asliy) ruknning bahrlarga ajratishni 4ta yo'li bor:

1. Bir xil ruknlarning qaytarilishidan paydo bo'lgan bahrlar. Birgina **maf'uvlatu** asli o'zi mustaqil holda bahr hosil qilmaydi. Ular quyidagilardir:

فَعُولُن sakkiz marta qaytarilsa, **mutaqorib** deyiladi;

فَاعِلُن sakkiz marta qaytarilsa, **rakd** deyiladi;

مُسْتَفْعَلُن olti marta qaytarilsa, **rajaz** hosil bo'ladi;

مَفَاعِيلُن olti marta qaytarilsa, **hazaj** hosil bo'ladi;

فَاعِلَاتُن olti marta qaytarilsa, **ramal** hosil bo'ladi;

مُنْقَاعِلُن olti marta qaytarilsa, **komil** hosil bo'ladi;

مُفَاعِلَاتُن olti marta qaytarilsa, **vofir** bahri hosil bo'ladi.

2. Yetti harfli ikki ruknning ya'ni مُسْتَفْعَلُن va مَفْعُولَاتُ larning joylari o'zgarib, takrorlanishidan tashkil topgan bahrlar. Bu ruknlar orasida deyarli farq yo'q, faqatgina birida yig'ilgan vatad birida ayrilgan vatad.

مُسْتَفْعَلُن مُسْتَفْعَلُن ikki marotaba takrorlansa, **sari'** bahri yasaladi;

مُسْتَفْعَلُن مَفْعُولَاتُ مُسْتَفْعَلُن ikki marotaba takrorlansa, **munsarih** bahri yasaladi;

مُسْتَفْعَلُن مُسْتَفْعَلُن ikki marotaba takrorlansa, **muqtadab** bahri hosil bo'ladi.

3. Besh va yetti harfli ruknlardan tashkil topgan bahrlar:

فَعُولُن مَفَاعِيلُن to'rt marta takrorlansa, **tavil** bahri yasaladi;

فَاعِلَاتُن فَاعِلَاتُن to'rt marta takrorlansa, **madid** bahri yasaladi;

مُسْتَفْعَلُن فَاعِلَاتُن to'rt marta takrorlansa, **basit** bahri hosil bo'ladi.

4. Uchta yetti harfli ruknlarning ikki marotaba takrorlanishidan hosil bo'lgan bahrlar:

فَاعِلَاتُن مُسْتَفْعَلُن مُسْتَفْعَلُن ikki marta takrorlansa, **xafif** deyiladi;

مُسْتَفْعَلُن مُسْتَفْعَلُن ikki marta takrorlansa, **mujtass** deyiladi;

مَفَاعِيلُن فَاعِلَاتُن مُسْتَفْعَلُن ikki marta takrorlansa, **mudori'** deyiladi.

Yuqorida keltirilgan مُسْتَفْعَلُن ruknining ajratilib yozilishiga sabab, boshi va oxirida yengil sabab, o'rtasida ajralgan vatad berilgani uchundir. Bu doira qoidasining talabidir. فَاعِلَاتُن ruknida

ham, doira qonuniyatiga muvofiq bo‘lib, o‘zidan keyingi yengil sabab bilan birlashib yig‘ilgan vatadni tashkil qila olmasligi uchundir. U oldingi bo‘lak bilangina bir majmuani tashkil qila oladi.

Ko‘rinib turibdiki, Mahmud Zamaxshariy bahrlarni ruknlar tarkibi jihatidan guruhlariga ajratib, osonroq tushuntirgan. Hech bir manbalarda bunday usulni kuzatmadik.

## 2.2 She‘r bahrlarining tarkibi

*Darsning maqsadi:* Talabalarni bahrlarning turlari bilan tanishtirish va bahrlarga berilgan misollarni bilan amaliy shug‘ullanish.

*Tayanch so‘zlar va iboralar:* uzun bahr, tavil, madid, rajaz, hazaj, ramal, mutadorak, taf‘ila, musamman shakl, “ikki asosli baza”, maxbun, maqtu’, muxalla.

**Tavil (طويل) bahri** arab she‘riyatida eng ko‘p tarqalgan uch bahrning biri<sup>14</sup>. U johiliya davri she‘riyatida keng ishlatilgan. Tavil deb atalishiga ikki sabab bor: 1) tavil harflar soniga nisbatan eng uzun bahr, boshqa biror bahrda bunchalik ko‘p emas; 2) tavil ruknlari vataddan boshlanadi, vatad esa sababdan uzun bo‘lganligi uchun ham, u bilan boshlangan bahr cho‘ziqlik prioritetiga ega bo‘ladi<sup>15</sup>.

Shuningdek, arablar bu bahrni “rakub” (egarlangan) deb ham atashgan. Tavil eng qadimda shu darajada ko‘p tarqalgan ediki, johiliy she‘rning deyarli uchdan biri shu bahrda aytilgan.

Bu bahr faqat musamman shaklida uchraydi. Tavildagi har bir misrada ikki turli taf‘ila ikki marta takrorlanadi:

فَعُولِن مَفَاعِيلِن فَعُولِن مَفَاعِيلِن فَعُولِن مَفَاعِيلِن

D. Frolov ushbu ikki taf‘ilali tarkibni “ikki asosli baza” deb ataydi<sup>16</sup>. Uning fikricha, bu shakl ancha qadimiy bo‘lib, keyinchalik ko‘p bahrlar yasalishiga negiz bo‘lgan.

<sup>14</sup>Qolgan ikkitasi komil va rajaz

<sup>15</sup>Талабов Э. Араб шеърини тарғиб қилиш тизими, ДДА. –Т., 2004. – Б.158

<sup>16</sup>Фролов Д.В.Классический арабский стих. История и теория аруда. –М., 1991. –317с.

Ushbu bahrni uchta shakli mavjud:

1. Uning aruzi maqbud (rukn tarkibidagi beshinchi harf sukunlangan hamda sababning ikkinchisi bo'lganda tushib qolishi: مفاعِلن - مفاعِلين ) , darbi esa salim. Johiliya davri shoiri Tarafaning muallaqasidan misol keltiramiz:

أبا مُنذِرٍ، كانت غُروراً      فلم أعطكم في الطَّوعِ مالي، ولا  
صَحِيفَتِي

أبا مُن | ذِر | كان | ت | غُرور | ن | صَحِيفَتِي  
فَعولن | مفاعِلين | فَعولن | مفاعِلن  
سالم | سالم | سالم | سالم | مقبوض

فلم أعطكم فططو | عمالي | ولا عِرْضِي  
فَعولن | مفاعِلين | فَعولن | مفاعِلين  
سالم | سالم | سالم | سالم

2. Aruz – maqbud, darb ham maqbud.

سُبْدِي لَكَ الأَيام ما كُنْتَ      ويأتِيكَ بالأخبار من لم<sup>17</sup>  
جاهلاً      تزوِد

3. Aruz – maqbud, darb esa mahzuf (baytda arud yoki darb bo'lib keluvchi rukn oxiridagi yengil sababning tushib qolishi: فَعولن - مفاعِلين - مفاعِي).

أقيموا، بني النُّعمان، عَنَّا      وإلَّا تُقِيموا، صاغرين<sup>18</sup>،  
صُنُوركم      الرُّؤوسا

Tavil bahriga Abu Abdulloh al- Xorazmiyning “Mafotih al-ulum” asarida johiliya davri shoirlaridan quyidagicha misol keltirilgan (Tarafadan):

أبا مُنذِرٍ افْتِيَتْ فاستَبِقَ بعضنا      حنانيك بعض الشرِّ اهوان من بعض

<sup>17</sup> Bu bayt ham Tarafaga tegishli.

<sup>18</sup> Bayt Yazid ibn al-Hazzoqqa tegishli.



"Abo Munzir, sen barchani nobud qilding, lekin ulardan ba'zilarini qoldir. Sening rahming yovuzlikning bir qismidan yengil."<sup>19</sup>

Aruzshunos olim Abu al-Jaysh al-Ansoriy al-Andalusiyy (vafoti h. 626) ning "Ar-risala al-andalusiyya"<sup>20</sup> asarida tavil bahriga quyidagicha misol keltirgan:

طويل علي الليل إذبت كالينا جنوح الدجى و النجم يتقاد للحنج

Quyidagi misol Xatib Tabriziyyning "Kitob al-Kofiy fil arud val qavafiy"<sup>21</sup> asariga tegishli bo'lib unda tavil bahrining aruzi maqbud, darbi salim hashvlari esa maqbud shakli berilgan:

أطلب من أسود بيضة دونه أبو مطر و عامر و أبو سعد

أَ تَطَّلُ | بَمِنْ أَسْوَدٍ | دَبِيْشٌ | تَدُوْنُهُو  
فَعُوْلٌ | مَفَاعِلُنْ | فَعُوْلٌ | مَفَاعِلُنْ  
مَقْبُوْضٌ | مَقْبُوْضٌ | مَقْبُوْضٌ | مَقْبُوْضٌ

أَبُو م | طَرْنُ وَعَا | مَرْنُ و | أَبُو سَعْدِي  
فَعُوْلٌ | مَفَاعِلُنْ | فَعُوْلٌ | مَفَاعِلُنْ  
مَقْبُوْضٌ | مَقْبُوْضٌ | مَقْبُوْضٌ | سَأَلْمٌ صَحِيْحٌ

### Navoiy

*Desam o-razu zulfung ul o'tdir, tutundir bu,  
Der: ondin /sanga kuymak,/ bu birdir,/ qaro qayg'u  
fa'u:lun mafa:'ilun fa'u:lun mafa:'ilun*

### Tavili musamman solim

*Zihi nahli qadingdin hijl sarvi bo'stoniy,  
Xat ichra labingdin munfa'il rohi rayhoniy.  
fa'u:lun mafa:'ilun fa'u:lun mafa:'ilun*

<sup>19</sup>Зиёвуддинова М. Абу Абдуллоҳ ал-Хоразмийнинг "Мафотих ал-улум" асарида поэтика. – Т.: ТошДШИ, 2001. – Б.23.

<sup>20</sup> أبو الجيش الإحصاري الأندلسي. الرسالة الأندلسية. جامعة الملك سعود. 1957.

<sup>21</sup> الخليل التبريزي. كتاب الكافي في العروض و التوافي. تحقيق الصّائلي حسن عبد الله.

### Tavili musabbagʻ

*Tishing dur, labing marjon, xading gul, xating rayhon,  
Yuzung xur, soching anbar, soʻzung mul, mening multon.*

faʼu:lun mafa:ʼilun faʼu:lun mafa:ʼila:n

**Madid (مدید) bahri** eng qadimgi bahrlardan hisoblanadi. Lekin, bu bahr uncha keng tarqalmagan, zamonaviy sheʼriyatda uchramaydi ham.

Bahrning bunday atalishiga sabab, yetti harfli ruknlarda sabablar juda choʻziq holatda boʻladi. Bu doira talabidan kelib chiqqani uchundir.

“Bunday turli izohlar kelib chiqishining asl sababi madidning oʻz doiradoshlari tavil va basitdan ancha qisqaligini taʼminlash uchun zarur boʻlgan” –deb Frolov D. fikr bildirgan<sup>22</sup>.

Madid bahri ramalga ham oʻxshab ketadi. Shuningdek, madidda qasidalar kam yozilgan. Al-Maʼariy taʼkidlaganidek, “madid – bechora bahr, unda bitilgan sheʼrni buyuklar merosi orasida topish qiyin”<sup>23</sup>. Bunga qaramay, madid bahrida yozilgan sheʼrlarni Tarafa, Muhalhil, Umar ibn Abi Rabiʼa, Ibn Zaydda uchratishimiz mumkin.

Madid bahri ikki turli ruknlardan yasalgan boʻlib, uning birinchi tafʼilasi bir yengil sabab (فا), bir yigʻilgan vatad (علا) va yana bir yengil sabab (تن) lar yigʻindisidan iborat. Ikkinchi tafʼilasi esa bir yengil sabab (فا) bir yigʻilgan vatad (علن) yigʻindisidan yasalgan. Madidning asl ruknlari oltita:

فاعلاتن فاعلن فاعلاتن فاعلاتن فاعلن فاعلاتن

Madidning misralari aslida musamman holatidadir. Lekin, u toʻliq holda uchramaydi. U qisqartirilgan shaklda yaʼni musaddasda ishlatiladi.

Madidning olti shakli bor:

1. **Aruz va darb – majzu** ( ikkita ruknning tushib qolishi) salim.

<sup>22</sup>Фролов Д.В.Классический арабский стих. История и теория аруда. –М.,1991. –320с.

<sup>23</sup>Фролов Д.В.Классический арабский стих. История и теория аруда. –М.,1991. –329с.

Xorazmiyning “Mafoth al-ulum”<sup>24</sup> asaridan misol keltiramiz (Muhallil ibn Rabi’adan):

يا لبكر، أنشروا لي كليباً      يا لبكر، أين أين الفرار  
“Ey, Bakr avlodi, menga Kulaybni jonlantiring!  
Ey, Bakr avlodi, qayerga qayerlarga qochyapti?”  
يا لبكرن | أنشروا لي كليبين  
فاعلاتن | فاعلن | فاعلاتن  
سالم | سالم | سالم

يا لبكرن | أين أي إنفرارو  
فاعلاتن | فاعلن | فاعلاتن  
سالم | سالم | سالم

2. **Aruz mahzuf, darb esa maqsur** (rukn soʻngidagi yengil sababdan sukunli harfni tushib qolishi va oldidagisining sukunlashuvi: فاعلاتن - فاعلات )

لا يغررن امرأ عيشه      كل عيش صائر للزوال

لا يغررن | نمر أن | عيشه  
فاعلاتن | فاعلن | فاعلن  
سالم | سالم | مخوف

كل لعيشن | صائرن | لزوال  
فاعلاتن | فاعلن | فاعلن  
سالم | سالم | مقصور

3. **Aruz va darb – majzu maxzuf.**

اعلموا أتي، لكم، حافظ      شاهداً ما كنت، أم غائباً

Aruz majzu mahzufdir, darb esa maxzuf maqtuʻdir (المقطوع) rukn soʻngidagi yigʻilgan vataddan soʻngi sukunli harfning tushib qolishi va oldidagisining sukunlashishi).

إنما الدلفاء بأقوتة      أخرجت، من كيس دهمان

<sup>24</sup>Зиёвуддинова М. Абу Абдуллоҳ ал-Хоразмийнинг “Мафотих ул-улум” асаридида поэтика – Т.: ТошДШИ. 2001. – Б:24.

4. **Aruz va darb – majzu maxzuf maxbun** (rukndagi ikkinchi harf sukunli hamda sababning ikkinchisi bo‘lganda tushib qolishi: **فاعِلْن** – **فَعَلْن**).

الذّي عدل، يعيش به حيث تهدي ساقه قنمه

5. **Aruz – majzu maxzuf maxbun va darb – maqtu’.**

رب نار بيت ارمقها تقضم الهندي و الغارا

Bu bahrdagi asl ruknlar soni borasida aruzshunoslar o‘rtasida turlicha qarashlar mavjud. Chunonchi, Mahmud Zamaxshariy madidning asl ruknlari soni sakkizta deydi. Shunday ekan, bu holda har bir misra oxiriga yana bittadan “faai’lun” (**فاعِلن**) rukni orttiriladi.

فاعلاتن فاعلن فاعلاتن فاعلن فاعلاتن فاعلن فاعلاتن فاعلن

Ushbu holatga misolni Abu al-Jaysh al-Andalusiyning «Ar-Risala al-Andalusiyya» asarida ko‘ramiz:

مدّ باعا في التجني و لجا و انتتى حشيه تمر و زهر

Lekin ko‘p hollarda madid bunday to‘liq shaklda qo‘llanilmaydi, balki doimo qisqartirilgan “majzu” (**مجزوء**) shaklida bo‘ladi.

**Navoiy:**

*Chehradin bur-qa ochib o‘tqa kuydur-ding mani  
Chun kul o‘ldi /paykarim /ko‘kka sovur-ding mani  
fa:’ila:tun fa:’ilun fa:’ila:tun fa:’ilun*

*Necha tortay hajridin sensizin ozorimen,  
Kelki hijroningda men umrdin bezormen.*

**Taqti’:**

*Ne-cha-tor-tay haj-ri-din sen-si-zni-o zo-r-men,  
fa:’ila:tun fa:’ilun fa:’ila:tun fa:’ilun  
Kel-ki-hij-ro ning-da-men um-r-din-be zor-men.  
fa:’ila:tun fa:’ilun fa:’ila:tun fa:’ilun*

## Navoiy:

*Qomatingdek bog' i husn ichra yo 'q sarvi ravon,  
Orazingdek xud qani sarv uzra arg'uvon.  
fa:'ila:tun fa:'ilun fa:'ila:tun fa:'ilan.*<sup>25</sup>

**Basit (بسيط) bahri.** Tabriziy bu bahrga shunday ta'rif beradi: Yetti harfli ruknlar boshida ikkitadan sababning “yoyilib” yotganligi tufayli bu bahr basit bahri deb ataladi-deydi.<sup>26</sup>

Sog'lom basitning ruknlari sakkiztadir:

مستفعلن فاعلن مستفعلن فاعلن مستفعلن فاعلن مستفعلن فاعلن

Harakatdagi basit baytni oxirgi ikki rukn (arudi va darbi)dan ikkinchi sukunli tushib, qolgan harflar, ko'pincha, fosila tashkil etishi ham basit deb atalishiga sabab bo'ladi. Bunday shakldagi basitning harakatlari ko'payib, bayt musiqaviy ahamiyat kasb etadi.

Basitning olti shakli mavjud:

Birinchi shakli: aruz va darb – salim maxbun.

Xorazmiyning “Mafotih al-ulum” asaridan misol keltiramiz (bayt Ibrohim ibn Bashiyy al-Ansoriyga tegishli):

يا حار، لا أرمين منكم، لم تلقها سوقة، قبلي، وما  
بداهية ملك

“Ey, Xaris, men sizlardan g'am kutmayman, u xoh oddiy, xoh shoh yo'liqadigan”

يا حار لا | أرمين | منكم | بدا | أمين  
مستفعلن | فاعلن | مستفعلن | فاعلن  
سالم | سالم | سالم | سالم | مخبون

لم تلقها | سوقتن | قبلي | وما | ملكو  
مستفعلن | فاعلن | مستفعلن | فاعلن  
سالم | سالم | سالم | سالم | مخبون

Ikkinchi shakli: aruz – maxbun, darb – maqtu'.

<sup>25</sup> Захириддин Муҳаммад Бобир. Мухтасар, наشرга тайёрловчи Саидбек Ҳасан. Тошкент 1971. Б-

<sup>26</sup>Qat'ing: Талабов Э. Араб шеърини таърифида аруз тизими. ДДА. –Т.. 2004.– Б.171.

قد أشهد الغارة الشعواء تدمأني جرداء معروفةً اللحيين سرخوب  
 قد أشهدل غارة تل شعواء تح ملني  
 مستفعلن | فاعلن | مستفعلن | فعلن  
 سالم | سالم | سالم | محبون

جرداء مع إروقتل الحيينسر إخبو  
 مستفعلن | فاعلن | مستفعلن | فعلن  
 سالم | سالم | سالم | مقتوع

Uchinchi shakli majzu' bo'lib, uning to'rt turi bor:

Birinchi tur: aruz – majzu va darb – muzal.

إننا ذمنا على ما خيلات سعد بن زيد و عمرا من تميم

Ikkinchi tur: muxalla va bu basitning to'rtinchi shakli: aruz va darb majzu.

ماذا و قوفى على ربيع خلا مخلوق دارس مستعجم

Uchinchi tur: muxalla va bu basitning beshinchi shakli: aruz – majzu va darb maqtu'.

ما هيج الشوق من أطلال أضحت قفار كوحى الواحى

To'rtinchi tur: muxalla va bu basitning oltinchi shakli: aruz va darb majzu maqtu'.

سيروا معا إنما ميعادكم يوم الثلاثاء بطن الوادى

Abu al-Jaysh al-Andalusiyyning «Ar-Risala al-Andalusiyya» asarida basit bahriga quyidagicha misol keltirgan:

ابسط رخاك بالآيام مبتهجا و اغنم من الأتسن قبل الشبيب اسنخا

### Basitu musammani mahzufi mahbun

لقد خأت جقب، صروفها عجب نولا فأحدثت غيراً، وأعقت

Matviy

ارتحلوا غدوة، وانطلقوا بكراً في زمر منهم، تذبعا زمر

Maxbul

وزعموا أنهم لقيهم رجل فأخذوا ماله، وضربوا عنقه

## Navoiy:

*Ishqing meni tunu kun majnunuu zoraylamish,  
Ko 'nglumni zo/ru hazin jismim-ni zoraylamish  
mustaf'ilun fa:'ilun mustaf'ilun fa:'ilun*

*Ey bevafo kelmading, hargiz mening yonima,  
Hajring nelar qilmadi, bu tinmag'ur jonima.*

## Taqti':

*Ey-be-va-fo kel-ma-ding har-giz-me-ning yo-ni-ma,  
mustaf'ilun fa:'ilun mustaf'ilun fa:'ilun  
Haj-ring-ne-lar qil-ma-di bu-tin-ma-g'ur jo-ni-ma.  
mustaf'ilun fa:'ilun mustaf'ilun fa:'ilun*

*Men xastaning boshig'a qilg'il guzar, ey nigor,  
Bir lutf ko'zi birla qilg'il nazar, ey nigor.  
mustaf'ilun fa:'ilun mustaf'ilun fa:'ilan <sup>27</sup>*

*Boshim qadam qilibon visolingga yetayin,  
Muyassar o'lmasa vasl bosh olibon ketayin.  
mustaf'ilun fa:'ilun mafa:'ilun fa:'ilun*

Sakkiz ruknli to'liq basit johiliy davridagi she'riyatda ko'p uchrasa, olti ruknli qisqartirilgan abbosiylar davrida juda urf bo'lgan. Biroq bu keyingi majzular oldingi to'liq basitni hajmda bosib o'ta olmagan.

**Vofir ( وافر ) bahri.** Bahmi bunday atalishiga sabab – undagi harakatlarning ko'pligi (mo'lligi). Bunday holat boshqa hech bir

<sup>27</sup> Захириддин Мухаммад Бобир. Мухтасар, нашрга тайёрловчи Саидбек Ҳасан. Тошкент 1971. Б.

bahrda uchramaydi. Harakatlar soni 30ta. Uning sog‘lom ruknlari oltitadir:

مفاعلتن مفاعلتن مفاعلتن مفاعلتن مفاعلتن مفاعلتن

Vofir tarmoqlari jihatdan hazaj bahriga o‘xshab ketadi. Lekin hazaj faqat murabba’ shaklida ishlatilsa, vofir esa, musaddas shaklida ishlatiladi.

Vofir bahrini uch ko‘rinishi bor:

1. **Aruz va darb – maqtuf** (hazf va ‘asbning birligi ← مفاعلتن = مفاعل = فعولن )

Xorazmiyning “Mafotih al-ulum” asaridan misol keltiramiz(bayt Imrul Qaysga tegishli):

لنا غنم، نسوقها، غزار  
كان قرون جلثها عصبى

“Biz haydayotgan chorva juda boy, ularning katta podasidagi shohlar huddi tayoqlar”.

لنا غنم | نسوقها | غزار  
مفاعلتن | مفاعلتن | فعولن  
سالم | سالم | مقطوف

كانت قروا | انجلثها | عصبى  
مفاعلتن | مفاعلتن | فعولن  
سالم | سالم | مقطوف

2. **Aruz va darb – salim majzu.**

لقد علمت ربيعة ان  
حباك واهن، خلق

لقد علمت | ربيعة ان | هنون خلقوا  
مفاعلتن | مفاعلتن | مفاعلتن  
سالم | سالم | سالم

Ushbu bayt vofiru murabba’i solimul arud va darb nomlanadi.

3. **Aruz majzu:** darb esa ma’sub (rukning beshinchi harfi harakatli hamda sababning ikkinchisi bo‘lganda sukunlashuvi: مفاعلتن ← مفاعلتن = مفاعيلن )



أعاتبها و أمرها فتغضبني و تعصيني

Ushbu bahrda ruknlarni o'rni ajralib turadi. Vofirni tarmoqlari ko'p emas, janr ham tanlamaydi. Shuning uchun ham shoirlar bu bahrda bemalol, sermahsul ijod etganlar.

Abu al-Jaysh al-Andalusiyning «Ar-Risala al-Andalusiyya» asaridan misol keltiramiz:

توافرت المنى و جنيت دطبا      جنى مواصلا لك غير ذاوي

### Aruzi majzu darbi ma'sub

إذا لم تستطع شيئاً فدعه      وجاوزه، إلى ما تستطيع

Manqus

لسلامة دار، بحفير      كباقي الخلق، السحق، فقار

### Navoiy:

*Ne fur-qatedur ki san sizin o'r-tanur yurakim*

*Ne bo'l-g'ay agar menga guzar ay-lasang mirakim*

mufa:'alatun    mufa:'alatun    mufa:'alatun

### Navoiy:

*Firoq o'tidin kuyar badanim, tafidin erib oqar jigarim,*

*G'amim budururki bog'lanibon yuzing sari tushmagay nazarim.*<sup>28</sup>

mufa:'alatun    mufa:'alatun    mufa:'alatun    mufa:'alatun

*Na lolau gul yuzung yanglig', qading yanlig' na sarvi chaman,*

*Na ohuyi Chin ko'zung yanlig', xating yanlig' na mushki Xo'tan.*

mufa:'alatun    mafa:'ilun    mufa:'alatun    mafa:'ilun

**Komil (كامل) bahri.** Olimlarning fikricha, bu bahrni "komil" deb atalishiga sabab, uning harakatlari to'liq, barkamolligidandir. Harakatlar komilda 30ta. Arab she'riyatida eng ko'p uchraydigan uch bahrning biridir. Bu bahr to'la va qisqartirilgan shakllarda uchraydi.

Komil bahrining oltita rukni bor. Ularning har biri kichik fasila va yig'ilgan vatad majmu'idan iborat:

<sup>28</sup> Заҳириддин Муҳаммад Бобир. Мухтасар. нашрга тайёрловчи Саидбек Ҳасан. Тошкент 1971. Б-

متفاعلن متفاعلن متفاعلن متفاعلن متفاعلن متفاعلن

Shuningdek, komil bahrini yetti ko‘rinishi bor:

### 1. Aruz va darb – salim.

Xorazmiyning “Mafotih al-ulum” asaridan misol keltiramiz (bayt Antaraga tegishli):

وَإِذَا صَحَوْتُ فَمَا أَقْصَرُ      وَكَمَا عَلِمْتُ شِمَانِلِي  
عَنْ نَدَى      وَتُكْرَمِي

“Hushyorligimda ham sahiy bo‘laman, mening xislatlarim va keng qalbligimni qanday anglading”.

وَإِذَا صَحَوْتُ فَمَا أَقْصَرُ | صرعتننن  
متفاعلن | متفاعلن | متفاعلن  
سالم | سالم | سالم

وَكَمَا عَلِمْتُ شِمَانِلِي | وتكررمي  
متفاعلن | متفاعلن | متفاعلن  
سالم | سالم | سالم

### 2. Aruz – salim va darb – maqtu’.

وَإِذَا دَعَوْتُكَ عَمِينَ فَاثَهُ      نَسَبٌ، يَزِيدُكَ عِنْدَهُنْ خَبَالًا  
وَإِذَا دَعَوْتُ أَنْكَعَمَمَهُنْ | فَاثَهُ هُوَ  
متفاعلن | متفاعلن | متفاعلن  
سالم | سالم | سالم

### 3. نَسَبٌ يَزِي | دُكْعِنْدَهُنْ | نَخْبَالًا

متفاعلن | متفاعلن | افعالن  
سالم | سالم | مقطوع

### 4. Aruz – tamm va darb – axazz mudmar.

Mudmar - rukndagi ikkinchi harakatli harf sababning ikkinchisi bo‘lganda sukunlashuvi:

مُتَّفَاعِلُنْ ← مُتَّفَاعِلُنْ = مُسْتَفَاعِلُنْ

Ahazza – rukndagi yig‘ilgan vatadning tushib qolishi:

مُتَّفَاعِلُنْ ← مُتَّفَاعِلُنْ

Ahazza va mudmar:

مُتَّفَاعِلُنْ ← مُتَّفَا = فَعْلُنْ

لَمِنَ الدِّيَارِ، بِرَامَتَيْنِ، فِعَاقِلٍ دَرَسَتْ وَغَبَّرَ آيَهَا القَطْرُ

#### 4. Aruz va darb – majzu muraffal.

Muraffal – المُرْفَلُ (lugʻ.m: shokila qilish) ruknlar oxiridagi yigʻilgan vatadga sukunli harf oʻttirish:

مُتَفَاعِلُنْ ← مُتَفَاعِلَا = مُتَفَاعِلَاتُنْ

لَمِنَ الصَّبِيِّ، بِجَانِبِ الِ بَطْحَاءِ، مُلْقَى، غَيْرِ ذِي مَهْدِ

وَلَقَدْ سَبَقَتْهُمُ إِلَيَّ فَلَمْ نَزَعْتِ، وَأَنْتِ آخِرُ

5. Aruz va darb – majzu muzal (rukn ortidagi yigʻilgan vatadga sukunli harf orttirish: مُتَفَاعِلُنْ ← مُتَفَاعِلَانْ)

حَدِثِ اللَّيْبِ مِنَ التَّجَارِبِ مَا فِي الزَّمَانِ مِنَ العَجَابِ

#### 6. Aruz va darb – majzu salim.

وَإِذَا افْتَقَرْتَ فَلَا تَكُنْ مَتَحَسِّمًا وَتَجْمَلِ

#### 7. Majzu maqtuʻ.

وَإِذَا هُمْ ذَكَرُوا الإِسَاءَةَ أَكْثَرُوا الحَسَنَاتِ

Komil bahriga Oʻrta asr arab shoiri Abu Nuvos xamriyot janrida yozilgan quyidagi misolini keltiramiz:

أَلْغَيْتِ كُلَّ تَمِيمَةٍ لَا تَنْتَفِعُ

وَإِذَا المَنِيَّةُ أَنْشَبَتْ أَظْفَارَهَا

عَفَّ نَاجِذِيهِ وَحَلَّتِ الخَمْرُ

فِي مَجْلِسِ ضِحْكِ السَّرُورِ بِهِ

*Taqdir oʻz changalin chiqargan zamon,*

*Tumor xam kor qilmas, boʻladi yomon.*

*Xursandchilik qilgan majlisda,*

*May nushlashga ijozat bordir.*

Abu al-Jaysh al-Andalusiyning asarida komil bahriga quyidagicha misol keltirilgan:

### Navoiy:

*Ne xayol edi yanakim ko 'ngul qushe saydini havas ayladi,  
Badanimg 'a har saridin xadang otibon anga qafas ayladi.*

### Taqti':

*Ne- xa-yo-le-di ya-na-kim -ko '-ngul qu-she-say-di-ni  
ha-va-say-la-di,*

*Mu-ta-fa:-'i-lun Mu-ta-fa:-'i-lun Mu-ta-fa:-'i-lun  
Mu-ta-fo-'i-lun*

*Ba-da-nim-g 'a-har sa-ri-din-xa-dang o-ti-bo-n-anga qa-  
fa-say-la-di.*

*Mu-ta-fa:-'i-lun Mu-ta-fa:-'i-lun Mu-ta-fa:-'i-lun  
Mu-ta-fa:-'i-lun*

*Ne balo emish sening ul xiro-m ila qomating  
Gahi sur'ating, gahi nozi bir-la iqomating  
mutafa:'ilun mutafa:'ilun mutafa:'ilun*

### Komili muzoll

*Ne hayol edi yanakim ko 'ngul qushe saydini havas aylading,  
Badanimg 'a har saridin hadang otibon anga qafas aylading.*

*Mu-ta-fo-'i-lun Mu-ta-fo-'i-lun Mu-ta-fo-'i-lun Mu-ta-fo-  
'i-lun*

Navoiyning fikricha, yuqoridagi besh bahrda fors, turkiy shoirlar she'rni oz yozganlar. Hazaj, rajaz, ramal bahrlari fors va turkiy shoirlar tomonidan juda ko'p ishlatilgan.

Eski o'zbek yozuvi (arabiy)da "alif", "vov", "yo", fatha, zamma, kasma harakati o'rniga yozilurki, hech mahalda harf hisobiga kirmas, balki harakat o'rnigadir.

**Hazaj (هزج) bahri.** Bu bahr juda qadimgi bo'lib, johiliya davridagi arxaik qo'shiqlar bilan aloqadordir. Bahrni hazaj deb

talashiga sabab, baytdagi oxirgi undosh yoki tovushlar qaytarilib, qo'shiqdek ohangni hosil qiladi.

Hazaj bahrining asl ruknlar soni oltitadir, ya'ni musaddas shaklidir. Har bir rukn bir yig'ilgan vataad va ikki yengil anabandan iborat:

مفاعيلن مفاعيلن مفاعيلن مفاعيلن مفاعيلن مفاعيلن

Lekin hazaj bahri har doim ham musaddas shaklida uchramaydi. Ko'p hollarda murabba' (to'rt ruknli) tarzida ishlatiladi. Adabiyotlarda ham, to'rt ruknli deb yoziladi.

Ushbu bahrning ikki varianti mavjud:

### 1. Aruz va darb – majzu.

عفا من آل ليلي، السنة ب، فالأملأخ، فالعمر  
عفا من آل ليليسسه، بفلاملا | حفلمرو  
مفاعيلن | مفاعيلن | مفاعيلن | مفاعيلن  
سالم | سالم | سالم | سالم

### 2. Aruz – majzu, darb – mahzuf.

وما ظهري، لباعي الضي الدلول م، بالظهر،  
Zamaxshariy:

هز جتم اذناناء برى جثمانه الوجد

Xorazmiyning “Mafotih al-ulum” asarida quyidagicha misol keltirilgan (bayt Tarafaga tegishli):

عذير الحي من عدوا كانوا حية الارض

“Qabilaning dushmanlaridan himoyachisi yerdagi ilonlar ekan”

Ayubiy davridagi Misr shoiri Baha Zuxayrning quyidagi she'ri misol keltiramiz:

من اليوم تعارفنا و تطوي ما جرى منا

ولا قلتم و لا قلنا  
من العتب فبالحسن  
كما قيل لكم عنا  
فقد نقتم و قد نقتنا  
إلى الوصل كما كنا

و لا كان و لا صار  
و إن كان و لا بدّ  
فقد قيل لنا عنكم  
كفي ما كان من هجر  
و ما أحسن أن ترجع

Hazrati A.Navoiyning “Mezon ul-avzon” asarlarida hazaj bahrining 8 ruknli – musamman shakli 11 ko‘rinishini o‘z she’riy misollari bilan ta’minlaganlar. Hazaji musaddas shakliga ega 10 ko‘rinishda misollar keltirganlar. Hazaji murabba’ arab shoirlariga xos deb bittagina misol berganlar.

### Navoiy:

*Zihi mulkung-ning o‘n sakkiz mingidin bir kelib olam  
Bu olam ich-ra bir uyluk qulung Xavvo bila Odam  
mafa:’ilun mafa:’ilun mafa:’ilun mafa:’ilun*

### Lutfiy:

*Sening o‘tlug‘ ko‘zung sehri meni kuydurdi savdodin  
Qoshing ham egrilik birla tuz etti umr bunyodin.*

### taqte’i:

*Sen-ning-o‘t-lug‘ / ko‘-zung sehr-ri / me-ni kuy-dur / di sav-  
do-din*

*ma-fo-’iy-lun / ma-fo-’iy-lun / ma-fo-’iy-lun / ma-fo-’iy-lun*

*Qo-shing ham eg- / ri-lik bir-la / tu-zet-ti um / r(i)-bun-yo-din*

*ma-fo-’iy-lun / ma-fo-’iy-lun / ma-fo-’iy-lun / ma-fo-’iy-lun*

### Bobur:

*Hazon yafro-g‘i yanglig‘ gul yuzing hajri-da sarg‘ardim  
Ko‘rib rah-may-lagil ey lo-laruh bu cheh-raizardim.*

*Qaro zulfing firoqida parishon ro '-zigorim bor,  
Yuzungning ish-tiyogida ne sabruna qarorim bor.*

*Jamoling vas-fini, ey, oy, necha eldin eshitgaymen  
Ne kun bo 'lg'ay visolingga meni dilxasta etgaymen*

### **Gadoiy:**

*Jamoling av-ji xush uzra/ magar hurshidi anvardur  
Kim oning par-tavindin jum-layi olam/ munavvardur.*

\*\*\*

*G'aming bag 'rimni qon qildi, begim g'amxor andoqdur  
Eritti hasta jonimni, ayo dildor andoqdur*

### **taqte'i:**

*G'a-ming-bag '-rim / ni-qon-qil-di / be-gim-g'am-xo / r(i)-an-doq-  
dur*

*E-rit-ti-has / ta-jo-nim-ni / a-yo-dil-do / r(i)-an-doq-dur*

*ma-fo-'iy-lun / ma-fo-'iy-lun / ma-fo-'iy-lun / ma-fo-'iy-lun*

### **Furqat:**

*Musaffo o-razingdin mehr(i) ey dilbar, safo topdi  
Tulug' etti/ jahon andin, keyin bo 'yla ziyo topdi.*

*Muhabbat do-mig'a ko 'nglum/ giriftor ay-ladi ul sho 'h,  
Qachonkim do-nai xolin namudor ay-ladi ul sho 'h*

### **H. Olimjon:**

*Na bo 'lg'ay bir/ nafas men ham yanog'ing uz-ra xol bo 'lsam  
Labing yapro-g 'idan tomgan-ki go 'yo qat-ra bol bo 'lsam.*

### **Hazaji musammani musabba'**

*Mayi la'ling-ga go 'yakim, hayoti jon erur mamzuj*

*Ki ul ermas zuloli chash-mai xayvon erur mamzuj  
mafa:'ilun mafa:'ilun mafa:'ilun mafa:'ilun*

### Hazaji musammani maxzuf

**Qolipi: mafa:'ilun mafa:'ilun fa'u:lun – 2 marta**

#### **Navoiy:**

*Zihi qadding niholi butub jon gul-shanidin  
Yuzung mehri ko 'ngulga kirib ko 'z rav-zanidin  
mafa:'ilun fa'uvlun mafa:'ilun fa'uvlun*

#### **Navoiy:**

*Muvofiq kiydilar, bo 'lmish magar navro 'z ila bayram  
Chaman sarvi yoshil xil 'at, mening sarvi ravonim ham.  
Chaman sarvi qolib hayron, mening sarvim qilib javlon  
Aning shaydosi bir dehqon, munga shaydo bari olam.*

*Labing birla/ shakarbori/ nedaydur,  
So 'zing birla/ durarbori/ nedaydur.*

#### **Lutfiy:**

*Vafosiz yor elindin dodu faryod  
Ne yor ag 'yor elindin dodu faryod.*

#### **taqte'i:**

*Va-fo-siz-yo / re-lin-din do / du-far-yod  
ma-fo-'iy-lun / ma-fo-'iy-lun / fa-'uv-lun  
Ne yor ag '-yo / re-lin-din do / du-far-yod  
ma-fo-'iy-lun / ma-fo-'iy-lun / fa-'uv-lun*

#### **Otoyi:**

*Jamoling vasfini qildim chamanda  
Qizordi gul uyottin anjumanda.*



**taqte'i:**

*Ja-mo-ling-vas / fi-ni-qil-dim / cha-man-da  
Qi-zor-di-gul / u-yot-tin-an / ju-man-da.  
ma-fo-'iy-lun / ma-fo-'iy-lun / fa-'uv-lun*

**Hazaji musuddasi maxfuz**

*Mening nogah ko 'zumga uch-ra-b-o 'tru  
Meni devo-na qilding ey, pari-ro'*

**Gadoiy:**

*Dudoqing ko 'ngluma maqsudi jondur  
Qaroqing fitnai oxir zamondur.*

**taqte'i:**

*Du-do-qing-ko 'ng / lu-ma-maq-su / di-jon-dur  
Qa-ro-qing-fit / na-i-o-xir / za-mon-dur  
ma-fo-'iy-lun / ma-fo-'iy-lun / fa-'uv-lun*

**Xazaji murabba'**

*Sanga ul tur-ray(i) hindu,  
Manga solish qaro qabg'u*

**Xazaji axrom**

*Yo rab, ne ofatdur ul husnu jamol  
maf'ulu maf'ulun maf'ulu fa'u:lun  
kim yo 'qtur yer ila jahon ichra misol.*

**Xazaji axrob**

*Tan o'lsa g'aming ichra joningga fido  
maf'uvlu mafa:'ilun maf'uvlu fa'ulun*

*Jon kuysa muhabbating-da sen bo'lg'il sog'  
maf'uvlu mafa:'ilun mafa:'ilun fa'u*

**Nodira begim:**

*Go'zal yorim-g'a ey bodi/ sabo yetkur salomimni,  
Ki-m eltar sen-di-n o'zga yo-r(a) ko'yicha payomimni.*

*Karam qilding, sabo ul yo-r(a) ko'yidin/ xabar berding  
Gulu rayhon isidin be-niyoz etding salomimni.*

**Nodira begim:**

*Muhabbat kish/vari obod/ erur iqbo-lu johimda  
Tong ermas bo'l-salar ishqu/ junun ahli panohimda*

*Quyoshdek mash-riqu mag'rib-ni birgom et-ti javlonim  
Emas mane' xaloyiq Ko'-h(i) qofi sad-di rohimda.*

*Yozibman saf-hai husning/ hayolida/ bu inshoni,  
Hijolat ay-ladi oyi-nay to'ti shakarxoni.*

*Shakar so'zlik,/ qaro ko'zlik/ g'izolim haj-rida yig'lab,  
Quyun yanglig'/ kezarman o-h(i) aylab dash-tu sahroni*

**Hamid Olimjon:**

*So'zimning shar-pasi tekkan-da olam bob(i) bob kuygay  
Dengizlar dar-yolar hatto-ki ko'llarda hubob kuygay*

**Rajaz( رجز ) bahri** – arab she'riyatining eng qadimgi vaznlaridan, uning tarqalishi eng qadimgi davrga tegishlidir. Rajaz keng tarqalgan uch bahrdan biridir. Rajaz bahrida she'r bastalash juda qulay va sodda usul bo'lgan. Shuning uchun ham, turli davrlar shoirlari ijodida keng qo'llanilgan va sevimli bahr hisoblangan. Aruz mutaxassislarining fikricha , rajaz, aslida, nasrdan juda kam jihatlari bilan farq qiladi. Ushbu bahrda bitilgan

she'r "urjuza" deb nomlanadi. Bahrni rajaz deb atalishiga olimlar quyidagicha ta'rif beradilar:

**Ibn Mandur:** Tuya rajaz qildi degani – iztirobga tushdi deganidir. Rajazdagi she'r taf'ilalari o'zaro yaqinligi va harflari ozligi uchun shunday atalgan.

**Al-Asbar:** Bunday atalishi undagi iztirob tufaylidir; ikki kuragi titrab turgan tuyani shunday atashadi.

**Xatib Tabriziy:** Uni uch jazli bo'lgani uchun shunday atashgan. Oldingi bir oyog'ida shunday turib qoladi. Atama tuyaning shu holatini anglatuvchi birlamchi ma'nodan olingan<sup>29</sup>.

Rajaz bahrida sog'lom ruknlar soni oltita. Rajazning har bir rukni birin-ketin keluvchi ikki yengil sabab va bir yig'ilgan vatad yig'ilindisidan iborat:

مستفعلن مستفعلن مستفعلن مستفعلن مستفعلن مستفعلن

Rajazning besh varianti bor:

### 1. Aruz va darbi salim.

Xorazmiyning "Mafotih al-ulum" asarida quyidagicha misol keltirilgan (bayt egasi noma'lum):

دارٌ لستلمى، إذ سُلِّمى جارةٌ  
قفر ترى آياتها مثل  
الزُّبُر

"Salmaning uyi, Sulaymaga qo'shni, hech kim yo'q, biroq darlari Zabur oyatlariga o'xshaydi". Bu yerda rajaz bahrining musaddasi solim aruz va darb solim ko'rinishi. Quyida taqte'si va tafi'lasini keltiramiz.

دارن لسنل | ما إذ سلمي | ماجارتن، قفرن ترى | آياتها | مثلزبر  
مستفعلن | مستفعلن | مستفعلن، مستفعلن | مستفعلن | مستفعلن

سالم | سالم | سالم، سالم | سالم | سالم

### 2. Aruz – salim, darb esa maqtu'.

<sup>29</sup>Qarang: Талабов Ю. Араб шеърлярида аруз тизими, ДДА. –Т., 2004 – Б.194.

### 3. Aruz va darb majzu'.

4. **Mashtur.** Yuqoridagi majzu' (qisqartirilgan) rajazning aruzi yarimtalangan va darbi tushib qolgan bo'lishi mumkin. U holda oldingi rukn darb vazifasini bajaradi va baytda 3ta rukn qoladi. Bu forma mashtur (lug' m.: yarimtalangan) deyiladi.

مستفعلن مستفعلن  
علن مستفعلن

ما هاج أخزنا و شجوا قد شجا

5. **Manxuk.** Bayt tarkibida ikkitagina rukn qolishi manxuk deyiladi.

يا ليتنى فيها جذع

Andalusiyning aruzga doir asarida quyidagicha misol keltirgan:

رجز فائن مالولنا عن موعد هاجت بلائيل الفوادي المنهوى

### Aruzi solim darbi maqtu'

القلب منها مستريح، سالم القلب مني جاهد، مجهود

### Musaddasil muzohif maxbun

فطالما، وطالما، وطالما منقى، بكف خالد، وأطعما

### Matviy

ما ولدت والدة من ولد أكرم من عبد مناف، حسبا

### Navoiy:

*Vayronae-dur maskanim andin manga bisyor(i) g'am*  
mustaf'ilun mustaf'ilun mustaf'ilun mustaf'ilun  
*Ohim bila eshikda o't, ashkim bilan devor(i) nam*  
mustaf'ilun mustaf'ilun mustaf'ilun mustaf'ilun

### Rajazi musammani matviy

*Kel beri ey rashki qamar, la'li labing shahdu shakar*  
mufta'ilun mufta'ilun mufta'ilun mufta'ilun  
*Furqating o'-tida ko'ngul chekti sipexr uzra sharar*  
mufta'ilun mufta'ilun mufta'ilun mufta'ilun

### Rajazi musammani matviyi maxbun

*Gar alamim-ga chora yo'q bo'lmasa bo'l-masun netay*  
*Vah g'amima shumora yo'q, bo'lmasa bo'l-masun netay*  
mufta'ilun mafa:'ilun mufta'ilun mafa:'ilun

### Rajaz musammani matviyi maxbuni maqtu'

*Sarvi(i) nechun deyin seniki yo'q anga gulrang yuz*  
*Nahl(i) nechun deyin seniki yo'q anga shirin so'z.*  
mufta'ilun mafa:'ilun mufta'ilun maf'uvlun

### Rajazi musammani solim

#### Gadoiy :

*Diydor uchun/ chun charx(i)tek/ olamda say-yor o'lmisham*  
*Oy yuzligim, kelkim, base mushtoqi diy-dor o'lmisham.*

### Rajazi musaddasi matviyi muzoli muraffal

*Ey yuzi qamar, ko'zi qiron, qoshi hilolim*  
*Kelginki, firo-qing tunidin tutti malolim.*

### Rajazi musaddasi matviyi muraffal

*Hajring o'ti kuy-durdi meni jonim umidim*  
*Rahmayla mening xolima, sul-tonim umidim*

### **Gadoiy:**

Ey sochlari sunbul, yuzi gul, bo'yi sanavbar  
Shirin dudoqing qullaridur shahd ila shakkar

### **taqte'i:**

Ey soch-la-ri-sun / bul-yu-zi-gul / bo'-yi-sa-nav-bar  
mus-taf-'i-la-tun / muf-ta-'i-lun / muf-ta-'i-lo-tun  
Shi-rin-du-do-qing / qul-la-ri-dur / shah-di-la-shak-kar  
mus-taf-'i-la-tun / muf-ta-'i-lun / muf-ta-'i-lo-tun

### **Raiazi musaddasi matvivi muraffal**

*Qolipi: mustaf'ilatun musta'ilun musta'lotun.*

### **Lutfiy:**

*Sen sen sevarim xoh inon xoh inonma  
Qondur jigarim xoh inon xoh inonma*

### **taqte'i:**

*Sen sen se-va-rim / xo-h(i) i-non / xo-h(i) i-non-ma  
mus-taf-'i-la-tun / muf-ta-'i-lun / muf-ta-'i-lo-tun  
Qon-dur ji-ga-rim / xo-h(i) i-non / xo-h(i) i-non-ma  
mus-taf-'i-la-tun / muf-ta-'i-lun / muf-ta-'i-lo-tun*

### **Otoyi:**

*Ey sarvinoz, qaysi chaman gul uzorisen?  
Bu sheva bila jonu ko'ngil ixtiyorisen.*

### **taqte'i:**

*Ey-sar-vi-noz / qay-si cha-man / gul-u-zo-ri-sen?  
Bu-she-va-bila / jonu-ko'n-gil / ix-ti-yo-ri-sen.  
mus-taf-'i-la-tun / muf-ta-'i-lun / muf-ta-'i-lo-tun*

*Ey bodi sabo, o'tsang o'shul zulfi dutodin  
Yod ayla meni bastayi zanjiri balodin*

**taqte'i:**

*Ey-bo-di-sa-bo / o't-sang o'-shul / zul-fi-du-to-din  
Yod ay-la me-ni / bas-ta-yi-zan / ji-ri ba-lo-din  
mus-taf-'i-la-tun / muf-ta-'i-lun / muf-ta-'i-lo-tun*

**Avaz O'tar**

*Har tilni biluv emdi bani odama jondur  
Til vositai robitai olamiyonlur*

*G'ayri tilini sa'y qiling bilg'ali, yoshlar  
Kim ilmu-hunar-lar rivoji andin ayondur.*

*Lozim siza har tilni biluv ona tilidek,  
Bilmakka ani g'ayrat eting, foydali qondur.*

*Ilmu-fan uyi-ga yuboring-lar bolangizni,  
Onla o'quganlar bori yak-toyi jahondur.*

*Zor o'lmasun on-lar dog'i til bilmay Avazdek,  
Til bilmagani-din ani bag'-ri to'la qondir.*

**Ramal (رمل) bahri** musaddas shaklida bo'ladi. Har bir rukn yengil sabab, yig'ilgan vatad va yana bir yengil sabablar yig'indisidan iborat:

فاعلاتن فاعلاتن فاعلاتن فاعلاتن فاعلاتن

Ramal to'liq va qisqartirilgan shakllarda ishlatiladi. Ramalning olti varianti bor:

1. **Aruz – maxzuf, darb esa salim.**

Xorazmiyning "Mafotih al-ulum" asarida quyidagicha misol keltirilgan (bayt Abiyd bin Alabrasga tegishli):

مِثْلُ سَخَقِ الْبُرْدِ، عَفَى بَعْدَكَ      الْقَطْرُ مَغْنَاهُ، وَتَأْوِيَالسَّمَالِ

“Chirigan to‘n kabi sendan keyin uning uyining hammasini shimoldan to‘xtovsiz kelayotgan shamol kabi”.

مِثْلُ سَخَقِ | بُرْدِ عَفَا | بَعْدَكَ  
فَاعِلَاتِن | فَاعِلَاتِن | فَاعِلِن  
سَالِم | سَالِم | مَحذُوف

قَطْرُ مَغْنَا | هُوَ وَتَأْوِي | بُشَّشَالِي  
فَاعِلَاتِن | فَاعِلَاتِن | فَاعِلَاتِن  
سَالِم | سَالِم | سَالِم

## 2. Aruz – maxzuf va darb – maqsur.

أَبْلَغِ النُّعْمَانَ عَذِي مَأَلِكَا      أَنَّهُ قَدْ طَانَ حَبْسِي، وَانْتَظَارِي

## 3. Aruz va darb maxzuf.

قَالَتِ الْخُنُسَاءُ، لَمَّا جِئْتُهَا :      شَابَ بَعْدِي رَأْسُ هَذَا، وَاسْتَهَيْبَ

4. **Majzu musabbag‘** (rukn ortidagi yengil sababga sukunli harf qo‘shish:

(فَاعِلَاتِن ← فَاعِلَاتَان = فَاعِلِيَانِ  
يَا خَائِلِي أَرْبَعَا وَاسْ تَخْبِرَا رُبْعَا بَعْسَفَانِ

## 5. Aruz va darb – majzu.

مُقْفَرَاتٌ، دَارِسَاتٌ      مِثْلُ آيَاتِ الرَّبُّورِ

## 6. Aruz – majzu, darb – esa majzu maxzuf.

مَا لَمَّا قَرَّتْ بِهِ الْعِي، نَانَ مِنْ هَذَا ثَمَنَ

**Misollar:**



1. وإذا غاية مجد رفعت  
 2. مرملة من وصل غير و اثب  
 نهض الصلث إليها، فحواها  
 و اثبت اللبث محب فيد شاي<sup>30</sup>

### Ramal musammani solim

*Ey jalolu rahmatingdin gar zalilu gar muazzaz,  
 Safhayi kavnayn o 'lub oning tirozidin mutarraz.*

#### Taqti':

*Ey-ja-lo-lu rah-ma-ting-din gar-za-li-lu gar-mu-az-zaz,  
 fa:'ila:tun fa:'ila:tun fa:'ila:tun fa:'ila:tun  
 Saf-ha-yi-kav nay-no '-lub-o ning-ti-ro-zi din-mu-tar-raz.  
 fa:'ila:tun fa:'ila:tun fa:'ila:tun fa:'ila:tun*

#### Navoiy:

*Kelki, ishqing-din ko 'ngulda yo 'qturur sabru qarorim  
 fa:'ila:tun fa:'ila:tun fa:'ila:tun fa:'ila:tun  
 Boshima yet-kur qadamkim, oshti haddin intizorim.  
 fa:'ila:tun fa:'ila:tun fa:'ila:tun fa:'ila:tun*

### Ramal musammani mahfuz

*Qolipi: fa:'ila:tun fa:'ila:tun fa:'ila:tun fa:'ila:tun.*

*Qosidekim, yetkurur ko 'ng-lunga jonon-din xabar,  
 fa:'ila:tun fa:'ila:tun fa:'ila:tun fa:'ilun  
 O 'yladurkim, o 'lg'on bergay jism(i)ga jon-din xabar  
 fa:'ila:tun fa:'ila:tun fa:'ila:tun fa:'ila:tun*

*O 'tga solg 'il sarv(i)-ni, ul qaddi mavzun bo 'lmasa  
 Yelga bergil gulni, ul ruxsor(i) gulgun bo 'lmasa*

*Ko 'nglum o 'rtan-sun agar g 'ayringga parvo aylasa*

محمود بن عمر الزمخشري. القسطنطين المنتقم في علم العروض دار الكتب القاهرة. ر-60. ص 10 30

*Har ko'ngul ham kim sening shav-qingni paydo aylasa  
Ne navo soz/ aylagay bulbul guliston-din judo,  
Aylamas to'ti takallum/ shakkariston-din judo.  
Mehr(i) ko'p ko'r-guzdim, ammo mehribone topmadim  
Jon base qil-dim fido o-romi jone topmadim*

**Otoyi:**

*Dilrabo kelgil, ki shavqingdin qarorim yo'qturur  
Toqatu hajru majoli intizorim yo'qturur*

**taqte'i:**

*Dil-ra-bo kel / gil-ki-shav-qing / din-qa-ro-rim / yo'q-tu-rur  
To-qa-tu haj / ru-ma-jo-li / in-ti-zo-rim / yo'q-tu-rur  
fo-'i-lo-tun / fo-'i-lo-tun / fo-'i-lo-tun / fo-'i-lun  
Ul sanamkim, suv yaqosinda paritek o'ltirur  
G'oyati nozukligidin suv bila yutsa bo'lur.*

**taqte'i:**

*Ul-sa-nam-kim / suv-ya-qo-sin / da-pa-ri-tek / o'l-ti-rur  
fo-'i-lo-tun / fo-'i-lo-tun / fo-'i-lo-tun / fo-'i-lun  
G'o-ya-ti-no / zuk-li-gi-din / suv-bi-la-yut- / sa bo'-lur  
fo-'i-lo-tun / fo-'i-lo-tun / fo-'i-lo-tun / fo-'i-lun*

**Gadoiy-69**

*Ey niholi qomating sar-vi xiromon-din latif  
Durji la'ling-dur dag'i bu javhari jon-din latif.*

**Lutfiy:**

*Ey, jafochi, tut g'animat ko'rkning davronini  
Kim, kishi topmaydurur bu davrning poyonini.*

**taqte'i:**

*Ey, ja-fo-chi / tut g'a-ni-mat / ko'r-k(i)-ning-dav / ro-ni-ni  
fo-'i-lo-tun / fo-'i-lo-tun / fo-'i-lo-tun / fo-'i-lun  
Kim ki-shi top / may-du-rur bu / dav-r(i)-ning po / yo-ni-ni*

*fo-'i-lo-tun / fo-'i-lo-tun / fo-'i-lo-tun / fo-'i-lun*

**Bobur-37:**

*Ko 'rماغay er-dim jamoling olam aro koshki,  
Bo 'lماغ'ay er-dim bori o-lamg'a rasvo koshki.*

*Qaysi bir o-zorin aytay jonima ag '-yor(i)ning  
Qaysi bir og '-ritqanin ko 'ng-lumni dey dil-dor(i)ning*

**Nodirabegim:**

*Sen bila o-lam munavvar mehri davron-durmusen?  
Mulk(i)-dur sen-din muzayyan shohi Turon-durmusen*

**Erkin Vohidov:**

*Tarixingdir ming asrlar ichra pinhon o 'zbekim  
Senga tengdosh Pomiru oqsoch Tiyanshan o 'zbekim.*

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, aruz nazariyasi harfga asoslangan, shuning uchun mumtoz g'azallar arab harfidan krill harfiga o'girilganda sehr, mehr, moh, roh kabi so'zlardagi qisqa unli e'tiborga olinishi kerak edi. Har bir g'azalning birinchi bayti, ya'ni matla'i qaysi ohangda o'qilsa, keyingi baytlar ham o'sha maromga moslanishi lozim. Chunki aruz vazni musiqiylikka asoslangan. Buni, ayniqsa, keksa xofizlarimiz kuylagan qo'shiqlarni tinglaganda amin bo'lamiz. Agarda biz mumtoz she'riyatimizni aruz qoidalariga rioya qilib o'qisak, undagi maromiy mavj, musiqiy ohang, rubobiy zavq-u shavq beruvchi serjilo jozibasini his etamiz

**Sari' (سريع) bahri.** Bahrning sari' (tez) atalishiga sabab taf'ilalarining lafzda tezligi. Xatib Tabriziyning fikricha, "sabab talaffuzda vatadga nisbatan tez kechadi"<sup>31</sup>. Sari'ni tashkil etuvchi ruknlar sababdan boshlanadi. Uning uchta rukndan iborat har misrasida yettita sabab joylashgan.

<sup>31</sup> 285. التبريزي الخاطيب، الوالي في العروض و القافي، القاهرة، 1977 ص.

Asliy ruknlarining soni oltita. Sari', har hil ruknlardan tarkib topgan:

مستفعلن مستفعلن مفعولات      مستفعلن مستفعلن مفعولات

Sari'ning hashvlari ikki yengil sabab va bir yig'ilgan vatad majmuasidan tuzilgan ruknlardan iborat va aksincha, a'rud va darblari birin-ketin keluvchi ikki yengil sabab va bir ayrilgan vatadlarning birikmasidan tashkil topgan ritmik bo'lakdan iborat.

Ushbu bahrni quyidagicha ko'rinishlari mavjud:

1. **Aruz matviy makshuf** (rukn oxiridagi ayrilgan vatadning hazf bo'lishi:

(مَفْعُولَاتٌ ← مَفْعُولًا = مَفْعُولُنْ), darb esa matviy mavquf.

Xorazmiyning "Mafotih al-ulum" asarida quyidagicha misol keltirilgan (bayt Diy Qoriyhg tegishli):

أزمان سلمى لا يرى مثلها      الراؤون في شام، ولا في عراق

"Roviylarning Shom va Iroqda ko'rganlarini Salmaning zamonasida ko'rmaydilar".

أزمان سل | مالا يرى | مثلها

مستفعلن | مستفعلن | فاعلن

سالم | سالم | مطوي مكشوف

راعونقى | شامنولا | فى عراق

مستفعلن | مستفعلن | فاعلان

سالم | سالم | مطوى موقوف

2. **Aruz va darb – matviy makshuf.**

هاج الهوى رسم، بذات الغضى      مخلوق مخلوق، مستعجبم

3. **Aruz – matviy makshuf**, darb esa aslam (rukn oxiridagi ayrilgan vatadning tushib qolishi: (مَفْعُولَاتٌ ← مَفْعُو = فَعْلُنْ).

قالت و لم تقصد لقليل الخنا مهلا فقد أبلغت أسماعي

4. **Aruz va darb** – maxbul (xabn va taylarning yig‘indisidan iborat.) makshuf.

النشر مسك و الوجه دنا نير و أطرف الأكتف هنم

5. **Musaddasi muzohif maxbun.**

يستنقيم وما تُطِيفُهُ، وما يستقيم وما تُطِيفُهُ، وما

**Misollar:**

**Abu al-Jaysh al-Ansoriy:**

اسرعت في اثارهم حامدا و اخيت صبرا يستميل المناو<sup>32</sup>

**Navoiy:**

*Jonimg‘a yuz dardu alam kelturding,  
Ko‘ngluma yuz ranju sitam kelturding.*

**Taqti’:**

Jo-nim-g‘a-yuz dar-du-a-lam kel-tur-ding  
Mus-taf-‘i-lun Mus-taf-‘i-lun maf-‘uv-lotu

Ko‘ng-lu-ma-yuz ran-ju-si-tam kel-tur-ding  
Mus-taf-‘i-lun Mus-taf-‘i-lun maf-‘uv-lotu

**Sari‘i musaddasi matvivi mavquf**

Yo‘q manga hajringda juz ohu fig‘on,  
Ishqu muhabbat o‘tidin al‘amon.  
Mufta‘ilun Mufta‘ilun fo‘ilon

Ishqni har kimki qilur ixtiyor,  
Men kibi olamda bo‘lur xoru zor.

محمود بن عمر الزمخشري. التسطيع المستقيم في علم العروض. دار الكتب القاهرة. ر. 60. ص. 20<sup>32</sup>

Mufta'ilun Mufta'ilun fo'ilon

**Sari'i maqtu'i matvivi mavquf**

Bismillohir rahmonir rahim,  
Hast kalid durri ganji hakim.

**Sari'i musaddasi matvivi aslam**

*Istamasang eslamasang bizni,  
Men o'param yo'lung uza izni.  
Mufta'ilun mufta'ilun fa'lun*

**Sari'i musaddasi matvivi maxbuni makshuf**

*Sendin yana o't ichradur yurakim,  
O'tung'a suv ur vasl ila, mirakim.  
Mustaf'ilun mustaf'ilun fa:'ilun*

Bu vaznda ko'plab epik dostonlar yaratilgan. "Hayrat ul-abror" ham shu vaznda yozilgan.

O-da-mi-er/-sang-de-ma-gil/-o-da-mi

-- v -- v / -- v v -- / -- v --

Muf-ta-'i-lun/ muf- ta- 'i- lun/ fo- 'i- lun

O-ni-kim-yo'q/-xal-q(i)-g'a-mi/-din-g'a-mi (Navoiy)

-- v -- v / -- v v -- / -- v --

Muf-ta-'i- lun /muf- ta- 'i- lun/ fo- 'i- lun.

**Munsarih (منسرح) bahri.** Bahmi munsarih (erkin) atalishiga sabablarni tadqiqotchilar turlicha izohlaydi. Frolovning fikricha, masala o'rtadagi مفعولات (mafu'laatu)ga bog'liq. Rukn sari' bahrida oxirida turadi, munsarihda esa hech qachon oxirida kelmaydi. Bunda u o'zining sobit bo'lmagan, erkinlikka moyil tabiati bilan ancha tashvish orttiradi.

Tabriziyning fikricha, baytning oxirida keluvchi مستفعلن rukni erkinligi uchun shunday ataladi.

Munsarih bahri olti ruknlidir:

مستفعلن مفعولات مستفعلن      مستفعلن مفعولات مستفعلن

Munsarihning oʻrta ruknlari sadrda ham, ‘ajzda ham har doim harakatli keladi. Unga biror zihof kirgan holatda, harakat yoʻqolishi mumkinligini mantiqan faraz qilish mumkin. Biroq ayrilgan vatad oʻzgarishsiz qolaveradi.

Ushbu bahrni uch koʻrinishi bor:

### 1. Aruz – solim, darb esa matviy.

Xorazmiyning “Mafotih al-ulum” asarida quyidagicha misol keltirilgan (bayt egasi nomaʼlum):

لِلْخَيْرِ، يُقْشِي فِي مِصْرِهِ      إِنَّ ابْنَ زَيْدٍ لَا زَالَ مُسْتَعْمِلًا  
الْعُرْفَا

“ Misrda xayr ehson tarqatgan Ibn Zayd yaxshilik qilishdan toʻxtamayapti”.

إِنْبِئْزِي | دِن لَّا زَالَ | مُسْتَعْمِلًا  
مُسْتَفْعَلْنَ | مَفْعُولَات | مُسْتَفْعَلْنَ  
سَالِم | سَالِم | سَالِم

لِلْخَيْرِ يُقْ | شِي فِي مِصْرِهِ | هَلْ عُرْفَا

مُسْتَفْعَلْنَ | مَفْعُولَات | مُسْتَفْعَلْنَ  
سَالِم | سَالِم | مَطْوَى

### 2. Manxuk mavquf

صَبْرًا، بَنِي عَبْدِ الدَّارِ  
صَبْرًا، بَنِي عَبْدِ الدَّارِ  
مُسْتَفْعَلْنَ | مَفْعُولَات

سالم | منهوك موقوف

### 3. Manxuk makshuf.

ويل أم سعد سعد  
و يلم مسع | دن سعدا  
مسدقعان | مقعوان  
سالم | منهوك مكشوف

### Abu al-Jaysh al-Ansoriy:

سرحت طوفي في حسن ذي غنج      جنت بد الباب الوري و هوي

### Musaddasil Muzohif maxbun

منازل غفاهن، بذی الأرا      ك، كل و ابل، مسدبل، هطل

### Matviy

من لم يمت عبطة يمت هرما      ذاتقها للموت كاس، فالمرء

### Darbi maksuf

ويلم سعد، سعدا

*Sendek qani husn ahlida ham bevafo, ham bedard,  
Mendek qani ishq ahlida mehnatkashu g'amparvard.*

### Taqti':

Sen-dek-qa-ni      hus-nah-li-da      ham-be-va-fo      ham-be-dar-d  
Mus-taf-'i-lun      maf-'uv-lo-tu      mus-taf-'i-lun      maf-

'uv-lo-tu

Mendek qani      ishq ahlida      mehnatkashu      g'amparvard.

Mus-taf-'i-lun      maf-'uv-lo-tu      mus-taf-'i-lun      maf-'uv-

lo-tu



### Munsarihi musammai matviyi mavquf

*Ohki sensiz ishim oh ila far'yod erur  
mufta'ilun fa:'ilan mufta'ilun fa:'ilan  
Jonima o-shubu shayn jismima bedod erur.  
mufta'ilun fa:'ilan mufta'ilun fa:'ilan*

#### **Navoiy:**

*Ishq yuki ayladi torim a'loni kavsar,  
Ne ajab ar aylasa men kibi shaydoni kavsar.  
Mufta'ilun fa:'ilan mufta'ilun fa:'ilan*

### Munsarihi musaddas Munsarihi musaddas matviy

*Ishqi mani zor qildi olam aro  
Ayladi ovora xayli odam aro  
mufta'ilun foilotu mufta'ilun foilotu*

### Munsarihi musaddas matviyi maqtu'

*Qo'ydi g'aming dardu dog' ko'nglumga  
mufta'ilun foilot maf'ulun  
Qo'ymadi ishqing farog' ko'nglumga  
mufta'ilun foilot maf'ulun*

### Munsarihi murabba Munsarihi murabbai matviyi mavquf

*Kel beri ey gul'uzor ayla vajo oshkor  
mufta'ilun fa:'ilan mufta'ilun fa:'ilan*

**Xafif (خفيف) bahri.** Bahrning bunday atalishiga sabab, Al-Absar shunday deydi: Bu bahr tilga yengil talaffuzli ekanligi

uchun shunday atashgan. Xatib Tabriziyning fikricha, undagi ajratilgan vatadning so‘nggi harakati sabablar harakatlari bilan birikib ketgan, natijada lafzda yengillik tug‘iladi. Shuning uchun xafif deb atashgan.

Xafif bahri ham olti rukndan tashkil topgan. U har doim to‘liq holatda ishlatiladi. Uning har bir misrasi bir yengil sabab, bir yig‘ilgan vatad va yana bir yengil sabablardan tuzilgan ikki rukn va ular o‘rtasida joylashgan bir yengil sabab, bir ayrilgan vatad va yana bir yengil sabab birikmasidan tuzilgan rukn majmua’sidan iborat:

فاعلاتن مستقع لُن فاعلاتن      فاعلاتن مستقع لُن فاعلاتن

Hashvdagi ikkinchi ruknning **mustaf‘ilun** (مستقع لُن) rukni doira talabiga muvofiq bo‘lib, rukndagi beshinchi harf orqadagi ikki o‘zga harflar bilan birlashib, yig‘ilgan vatadni tashkil qila olmaydi.

Xafifning to‘rtta varianti mavjud:

1. **Aruz va darb – solim.**

Xorazmiyning “Mafotih al-ulum” asarida quyidagicha misol keltirilgan (bayt Al-A’shaga tegishli):

حَلَّ أَهْلِي مَا بَيْنَ دُرْنِي      لِي وَخَلَّتْ غُلُوْبَةٌ بِالسَّخَالِ  
فَبَادُو

“Bizning oilamiz Durna va Bodav o‘rtasida to‘xtadi, menga Ulviyya ham Sihalda to‘xtagandek tuyuldi”.

حَلَّ أَهْلِي | مَا بَيْنَ دُرْنِي | لِي وَخَلَّتْ غُلُوْبَةٌ بِالسَّخَالِ  
فاعلاتن | مستقعلن | فاعلاتن  
سالم | سالم | سالم

لِي وَخَلَّتْ غُلُوْبَةٌ بِالسَّخَالِ | حَلَّ أَهْلِي | مَا بَيْنَ دُرْنِي  
فاعلاتن | مستقعلن | فاعلاتن  
سالم | سالم | سالم

2. **Aruz – solim, darb esa maxzuf.**

لَيْتَ شِعْرِي هَلْ تَمَّ هَلْ آتَيْنَهُمْ أَمْ يَحْوَلُنْ، مِنْ دُونِ ذَاكَ، الرَّدَى

لَيْتَ شِعْرِي | هَلْ تَمَّ هَلْ آتَيْنَهُمْ  
فَاعِلَاتِنْ | مُسْتَفْعَلِنْ | فَاعِلَاتِنْ  
سَالِمٌ | سَالِمٌ | سَالِمٌ

أَمْ يَحْوَلُنْ | مِنْ دُونِذَا | أَكْرَرِذَا  
فَاعِلَاتِنْ | مُسْتَفْعَلِنْ | فَاعِلَاتِنْ  
سَالِمٌ | سَالِمٌ | مَحْذُوفٌ

3. **Aruz va darb maxzuf.**

إِنْ قَدَرْنَا، يَوْمًا، عَلَى عَامِرٍ نَمْتَلِّ مِنْهُ، أَوْ نَدْعُهُ لَكُمْ

4. **Majzu aruz va darb solim.**

لَيْتَ شِعْرِي: مَاذَا تَرَى أَمْ عَمِرُو، فِي أَمْرِنَا

5. **Majzu maxbun maqsur.**

كُلَّ حَظْبٍ، إِنْ لَمْ تَكُو تَسِيرُ نُوا غَضَبِي،

**Misollar:**

خَفَا حَمَلِي أَبْعَادَ غَزْ لَجُوجِ هَاجَ لَا يَثْنِي مِنْ عَنَانِ الْمَنَاوِي<sup>33</sup>

*Qayda erding, ey mahvashim, sharh qilg'il,  
O'lgum erdi gar bir zamon kelmasang bil.*

**Taqti':**

Qay-da-er-ding ey-mah-va-shim shar-h-qil-g'il  
Fo-'i-lo-tun mus-taf-'i-lun fo-ʔi-lo-tun

O'l-gum-er-di gar-bir-za-mon kel-ma-sang-bil.  
Fo-'i-lo-tun mus-taf-'i-lun fo-ʔi-lo-tun

<sup>33</sup> مصوود بن عمر الزمخشري: القسطاس المستقيم في علم العروض، دار الكتب، القاهرة، ر. 60، ص. 20

**Xafifi musaddasi mahbun**

*Furqatin nesh sochti yurokinga,  
Ashk qonini oqizdi bu etokimga.  
Fa:'ila:tun mafoilun failotun*

*Vaslin ul oy manga mahol qilibtur,  
Hajridin meni xasta hol qilibtur.  
Fa:'ila:tun mafoilun failotun*

**Xafifi maxbuni maqsur**

*Hech bilmonki chinmudur bu so 'zung,  
Yaxshiliqqa yaqinmudur bu so 'zung.  
Failotun mafoilun fa'ilon*

**Xafifi mahbuni maqtu'**

*Kalimoti g'arib der nosih,  
Xirad ahlig'u xashvdurur vozih.  
Failotun mafoilun fa'lun.*

**Xafifi maxbuni musha'as**

*Keldi dildoru men fadah ichgumdur,  
Zuhdu nomusu nangdin kechgumdur.  
Fa:'ila:tunmafoilun maf'ulun*

**Xafifi maxbuni musabbag'**

*Seni didim umid ila ey yor,  
Kim olib ko'nglum o'lg'asen dildor.  
Failotun mafoilun fa'ilon*

**Xafifi maxbuni mahzuf**

*Vaslin ul oy manga mahol qilur,  
Hajridin meni xasta hol qilur.  
Failotun mafoilun fa'ilon*

**Mudari' bahri.** Bahrning mudori' (المضارع) "o'xshash" atalishiga **sabab**, hazaj bahriga o'xshashligidir. Biroq aruziy she'r tarixida mudori'ning boshqa bahrlarga o'xshashlik darajasi haqida boshqa fikrlar ham bor: Ibn ar-Rashiq uni muqtadabga, ad-Damanxuriy hafif bilan munsarihga o'xshatadi.

Mudori'ning Asl ruknlari olti rukndan tashkil topgan.

مفاعيل فاع لاثن مفاعيلن مفاعيل فاع لاثن مفاعيلن

Bu bahrning boshqalardan farqli tomoni shundaki, undagi ruknlar hech qachon zihoflarsiz ishlatilmaydi. Mudari'da bitilgan baytlarning hashvlari albatta makfuf bo'ladi. Uning majzu shaklidagi a'rudlarini tashkil qiluvchi فاع لاثن ruknlari esa, doimo sog'lom holdagina ishlatiladi. Shunday qilib, u bahrni bir darbi bir a'rudi bor u ham bo'lsa فاع لاثن. Ularda hech qachon, masalan, basit yoki hafifda bo'lganidek, ikkinchi sukunli harf tushib qolmaydi. Bu yerda ham doira talabiga monand "فاع" qismi ajratilib yoziladi va birinchi maqta' ajratilgan vataddan iboratdir.

Biroq bu bahrdan qadimda shoirlar juda kam foydalanishgan. Shuni hisobga olib, aruzshunos Abu-l-Xasan al-Axfash bu bahrni bahrlar qatoridan olib tashlagani ma'lum. Boshqa bir qator olimlar esa mudori'ni boshqa bahrlarning tarmoqlaridan biri deb atashgan.

Ushbu bahrni bittagina varianti bor: aruz va darb-majzu.

Xorazmiyning "Mafotih al-ulum" asarida quyidagicha misol keltirilgan (bayt egasi noma'lum):

نواعي هوى سعاد

دعائي إلى سعاد

، دواعية | واسعادي  
مفاعيل | فاعلان

دعائي | لا سعادن  
مفاعيل | فاعلان

مكفوف | سالم

مكفوف | سالم

"Meni Suad oldiga chaqirishdi. Suadning muhabbati mening davoimdir".

Bu baytning ko‘rinishi ibtido va sadr qismi maqbud, aruz va darb qismi esa solim.

**Misollar:**

**Muzohif**

وقد رأيت الرجال فما أرى غير زيد

**Axrab**

قلنا لهم، وقالوا كلُّ له مقال

*Jafojo ‘ye, bevafoye qani sendek bu jahonda,  
Duogo ‘ye, benavoje qani mendek bu zamonda?*

**Taqti’:**

*Ja-fo-jo ‘-ye be-va-fo-ye qa-ni-sen-dek bu-ja-hon-da  
Ma-fo-’iy-lun fo-’i-lo-tun ma-fo-’iy-l(un) fo’-i-lo-  
tun  
Du-o-go ‘-ye be-na-vo-ye qa-ni-men-dek bu-za-mon-  
da  
Ma-fo-’iy-lun fo-’i-lo-tun ma-fo-’iy-l(un) fo’-i-lo-  
tun*

**Muzori’i musammani makfuri mahzuf**

*Yuzingdin hijil qamar, labingdin dog ‘i shakar,  
Manga har biridin o ‘t, sanga qilmay ul asar.  
mafa:’ilun foilun mafa:’ilun foilun*

**Muzori’i musammani axrabi mahzuf**

*Ishqing atab balodur, ey nozanin sanam  
Jon anda mubtalodur ko ‘rmas ba juzsitam  
Maf uvlu fa:’ila:tun Maf uvlu fa:’ila:tun*

## Muzori'i musaddasi

### Muzori'i musaddasi makfufi maqsur

*Seningdek jahonda kimsa ne imkon  
Buyon kel qilay qoshingda fido jon  
mafa:'ilun foilotu fa'uvlon*

### Muzori'i musaddasi makfufi maxzuf

*Ko'ngul bo'lg'ay hayoming'a moyil  
Ko'zim ham o'ldi husning'a zoyil.  
Mafa:'ilun fa'u:lun fa'uvlun*

**Muqtadab bahri.** Bahrni muqtadab(المقتضب) ajratib olingan) atalishiga sabab, munsarihdan ikki ruknni ajratib olinganga o'xshashligi, ularning bir qolipga ega ekanligidir.

Ushbu bahr olti ruknlidir.

مفعولات مستفعلن مستفعلن مفعولات مستفعلن مستفعلن

Ko'rinib turibdiki, muqtadabning ruknlari munsarihnikiga juda mos, faqat tartibida farq qiladi.

Lekin ayrim manbalarda muqtadab bahri to'rt ruknli ham bo'lib keladi. Bu holda har bir misra ortidagi mustafi'lun "مستفعلن"rukni olib tashlanadi.

Bu bahrni ham bitta varianti bor: majzu darbi va aruzi matviy.

Xorazmiyning "Mafotih al-ulum" asarida quyidagicha misol keltirilgan (bayt Ahmad ibn Forisga tegishli):

أقبلت فلاح لها عارضان كالبرد  
أقبلت فلاح لها ، عارضان | كلبردى  
فاعلات | مفتعلن ، فاعلات | مفتعلن  
مطوى | مطوى | مطوى | مطوى

"U teskari qaraganda unga huddi do'l yoqqandek ko'rindi".

**Misollar:**

ان وهبته خلدي      اقتضيت من رساء

**Majzu':**

هل علي، ويحكما      ان لهوت، من خرج

**Matviy**

يقولون: لا بعدوا      وهم يدفنونهم

### **Muqtadabi musammani solim**

Qolipi: fa:'ila:tun mustaf'ilun fa:'ila:tun mustaf'ilun  
Biroq sog'lom holda uchramaydi.

#### **Muqtazabi musammani matviy**

*Ey nigoro mahvashim, ey xarifi jur'akashim,  
Tut qadaxki, behad erur ishqatobidin otashim.  
Fo'ilotu mufta'ilun fo'ilotu mufta'ilun*

#### **Muqtazabi musammani matviy maqtu'**

Ey yigit, buyon kelki, shavq(i)din xarobingman  
Bo'yni bo'liq in yonlig' bastai tanobingman  
Fa:'ila:tun maf'uylun fo'ilotu maf'uylun

#### **Muqtazabi murabba'**

#### **Muqtazabi murabba'i matviy**

*Furqating yoshim oqizur,  
Hasrating qonim toshizur  
Fo'ilotu mufta'ilun*

**Mujtass bahri (المجتث) qo'porilgan).** Bahrning bunday atalishiga sabab, xafif bahrini bir oz qo'porib olinganiga nisbatan olinadi. Mujtass ruknlari hafifniki bilan bir hil, faqat tartibda: mujtassda مستقع لُن فاعلاتن dan oldin keladi. Asl ruknlari oltita:

مستقع لُن فاعلاتن فاعلاتن      مستقع لُن فاعلاتن فاعلاتن



Mujtass bahrida she'r yozish abbosiylar davrida urf bo'lgan. Biroq johiliya davri adabiyotida bu bahrdagi qasidalami uchratish qiyin.

Bu bahr ham majzu shakldagina ishlatiladi. Uning yagona arudi sog'lom, u bilan keluvchi yagona darb ham sog'lom. Lekin ayrim hollarda ham arud, ham darbida nuqsonlar uchrab turadi. Shuningdek, ularning o'zlariga xos tomonlari bor.

Mujtassni ham faqat bitta varianti bor: aruz va darb – majzu.

Xorazmiyning "Mafotih al-ulum" asarida quyidagi misol keltirilgan (bayt egasi noma'lum):

البطنُ، منها، خَمِيصٌ      والوجهُ مثلُ الهلالِ  
البطنُ من هَاخْمِيصِنِ ، ولو جِهْمُ | للهالِي  
مستقعلن | فاعلاتن ، مستقعلن | فاعلاتن  
سالم | سالم | سالم | سالم

"Uning qorni tarang, yuzi esa oyga o'xshaydi".

**Al-Andalusiy:**

أجتث أن لاح ضوء      اجلو بد ليل بعدي

**Aruz va darbi solim muzohif maxbun**

ولو علقْت، بستلمِي،      علمت أن سئمت

**Makfuf**

ما كان عطاوهُنَّ      إلا عِدَّة، ضمِمارا

**Mujtass musammani solim**

*Ishq ahlig'a garchi doim ko'b javrdur, ko'p jafodur,  
Husn ahlig'a neqilaykim, bemehru, bevafodur.*

*Qoshig'a borg'ali ko'ngul o'ziga kelmadi netay,  
Yuziga tushgali ko'zim ko'ziga ilmadi ul oy.*

### **Taqti'**

Ish-qah-li-g'a gar-chi-do-im ko'b-jav-r-dur ko'p-ja-fo-  
dur

Mus-taf-'i-lun fo-'i-lo-tun Mus-taf-'i-lun fo-'i-lo-  
tun

Hus-nah-li-g'a ne-qi-lay-kim be-me-h-ru be-va-fo-  
dur

Mus-taf-'i-lun fo-'i-lo-tun Mus-taf-'i-lun fo-'i-lo-  
tun

### **Mujtassi musammani mahbun**

*Yetishsa ishq aro yuz mehnatu balo, qadah ichgil,  
Nafas-nafas qunobon may, to 'lo-to'lo qadah ichgil*

Mafa:'ilun fa:'ila:tun mafa:'ilun fa:'ila:tun

### **Mujtassi musammani mahzuf**

*Firoq isit-masi andoq tanimdin o't chiqarur  
Kigar tabib iligim tut-sa barmog'i qaborur*

Mafa:'ilun fa:'ila:tun mafa:'ilun fa:'ilun

### **Mujtassi murabbai maxbun**

*Yuzing ko'zimga keraktur*

*O'zing o'zimga keraktur*

Mafa:'ilun fa:'ila:tun

**Mutaqarib (المتقارب) bahri.** Xatib Tabriziyning fikricha, mutaqarib bahri ruknining vatadlari o'zaro yaqin turgani uchun mutaqarib (yaqinlashuvchi) atashgan<sup>34</sup>.

Mutaqarib bahri sakkiz ruknlidir.

فعولن فعولن فعولن فعولن فعولن فعولن فعولن فعولن

Mutaqarib bahri keng tarqalgan bahrlardan bo'lib, u ham to'liq ham qisqartirilgan qolda ishlatiladi.

Mutaqarib bahrining beshta shakli mavjud:

<sup>34</sup>Qarang: Талабов Э. Араб шеъринида аруз тизими. ДДА. –Т., 2004. – Б.234.

## 1. Aruz va darb – salim.

Xorazmiyning “Mafotih al-ulum” asarida quyidagicha misol keltirilgan (bayt Amiyya bin Abi Oizga tegishli):

فَأَمَّا تَمِيمٌ، تَمِيمٌ بَيْنَ مَرٍّ، فَالْفَاهُمْ الْقَوْمَ رَوْبَى، نِيَامَا

فَأَمَّا | تَمِيمِن | تَمِيمِب | نَمُرِرِن  
فَعُولِن | فَعُولِن | فَعُولِن | فَعُولِن  
سَالِم | سَالِم | سَالِم | سَالِم

فَالْفَا | هَمَلَقُو | مَرَّوْبَا | نِيَامَا  
فَعُولِن | فَعُولِن | فَعُولِن | فَعُولِن  
سَالِم | سَالِم | سَالِم | سَالِم

“*Tamim, Tamim ibn Murra haqida gapiradigan bo'lsak, uni shirakayf va uyqusiragan holda topdilar*”.

## 2. Aruz – salim, darb – maqsur.

ويأوي إلى نسوة، بانسات وشعب، مراضيع، مثل السعال

## 3. Aruz – salim, darb – maxzuf.

وأروى من الشعر شعرا عويصا ينسى الرواة الذي قدروا

## 4. Darb – abtar.

خليلي، عوجا، على رسم دار مية خلت من سليمي، ومن

## 5. Aruz va darb majzu maxzuf.

أمن دمنة أقرت لسلمي بذات الغضا

### Misollar:

1 تقاربت إذ شمروا للذهاب و حَبَى لَهُم مَالَهُ مِنْ ذَهَابٍ

2 سُمِّيَّة، قَوْمِي، وَلَا تَعْجِزِي وَبِكَيِّ النَّسَاءِ، عَلَى حَمْرَةٍ

## Mutaqoribi musammani solim

*Yuzi rashki xurshidi anvar bo'lubtur,*

*Ko'zi fitnai shahru kishvar bo'lubtur.*

### Taqtı'

Yu-zi-rash ki-xur-shi di-an-var bo'-lub-tur

fa-'uv-lun fa-'uv-lun fa-'uv-lun fa-'uv-lun

Ko'-zi-fit na-i-shah ru-kish-var bo'-lub-tur.

fa-'uv-lun fa-'uv-lun fa-'uv-lun fa-'uv-lun<sup>35</sup>

*Yana sansizin munisim g'am bo'lubtur,*

*Ko'zunga yurak qoni hamdam bo'lubtur.*

Faulun Faulun Faulun Faulun

### **Mutaqoribi musammani mahzuf**

*Ochildi chaman, gul'uzorim qani,*

*Sihi sarv bo'ylig' nigorim qani?*

Faulun Faulun Faulun faul

### **Mutaqoribi musaddasi solim**

*Yana hajr aro zor bo'ldum,*

*Firoqingdin afgor bo'ldim.*

Fa'u:lun fa'u:lun fa'u:lun

**Mutadorak (المتدارك) bahri.** Bahrni bunday atalishiga sabab, Halil ibn Ahmaddan keyin al-Axfash tomonidan bahrlar tarkibiga qo'shilganligidir. متدارك so'ng darak beruvchi degan ma'noni bildiradi.

Uning ruknlari فاعلن sakkiz marta qaytarilgan. Halil ibn Ahmad yuqoridagi 16-bahrning berilishini xohlamagan. Agar kiritilsa, uni rakd al-hayl (ركض الحيل) otning yelishi) deb atasin-degan.

Chunki fa:'ilun fa:'ilun fa:'ilun fa:'ilun ohangi otning dupuriga monanddir.

Bir qancha olimlar ham ushbu bahrni tan olishmagan va o'z tadqiqotlariga kiritishmagan. Yusuf as-Sakkokiyning "Miftoh al-ulum"<sup>36</sup>("Ilmlarning kaliti") asarida arablarda mutadorak bahrini yo'qligini aytadi. Shu bois bo'lsa kerak Yusuf as-Sakkokiy faqat

<sup>35</sup> Захриддин Мухаммад Бобир. Мухтасар, нашрга тайёрловчи Саидбек Ҳасан. Тошкент 1971. Б-34.

<sup>36</sup> السككي، سراج الدين، كتاب مفتاح العلوم، مصر، 1900. ص. 62

15ta bahrni keltirib , beshinchi doirani “munfarida” – deb atab, faqatgina bitta bahr mutaqoribni keltirgan. Abu Abdulloh al-Xorazmiy ham “Mafotih al-ulum” asarida faqatgina 15 bahrni bergan. D.Frolovning ma’lumot berishicha, mutodorak bahringing nomoyon bo’lishi keyinchalik va asta-sekin tug’iladi.

Bahrni aruzshunoslar turli nomlar bilan atashgan. Masalan, Mahmud az-Zamaxshariy “al-Qistos” asaridagi doira bobida beshinchisini “Muttafiqa” deb atab, bahrlardan mutaqorib va rakdni beradi. Biroq alloma bahrlar bobida 16ta bahrlarni keltirib, o’n oltinchisini “mutadorik” deb atab misol keltiradi.

Arab olimi Abdulaziyz Atiyqning “Aruz va Qofiya ilmi”<sup>37</sup> asarida va Xatib Tabriziyning “Kitob al-Kofiy fi-l-arud va al-Qovafiy”<sup>38</sup> asarlarida ushbu bahrni “محدث” (muhdas-ixtiro qilingan, yangilik), “خبب” (yo’rtar) deb ta’riflagan.

Ushbu bahr ham sakkiz ruknli:

فاعلن فاعلن فاعلن فاعلن فاعلن فاعلن فاعلن فاعلن

Aruzshunos olimlarning ta’kidlashicha, mutodarakning hashvlari sog’lom rukn holatlari juda kam uchraydi. Aksariyat hollarda xashvlardagi ruknlar maxbun yoki musha’s bo’ladi.

Ushbu bahr to’la va majzu hollarda qo’llanilishi mumkin. Eng ko’p uchraydigan mutodarak tarmog’i bu – to’liq shakldagi bo’lib, uning bir sog’lom a’rudi va u bilan keluvchi bir darbi bor. Darb ham sog’lomdir.

Zamaxshariy o’z asarida quyidagicha misol keltiradi:

دارك القوم تطفىء غراما وضنا اذ درير الهوي بالمعنى جمع

Ko’rinib turibiki, Zamaxshariy ushbu bahrlarga misol tariqasida o’zi tomonidan yozilgan she’rlarini havola etgan. Qolaversa, alloma aruz ilmining asoschisi Xalil ibn Ahmadni yaratgan qonun –qoidalaridan chetlanmagan holda bahrlarni sodda holda tushintirishga erishgan.

Shuningdek, Xatib Tabriziyning “Kitob al-Kofiy fil-arud va al-Qovafiy” asarida ushbu bahrni quyidagi misollar orqali ta’riflaydi:

الكتور عبد العزيز عتيق. علم العروض و القافية. دار النهضة العربية بيروت. 1987. ص 9. 37  
الغريب التبريزي. كتاب الكافي في العروض و القوافي. تحقيق المصطفى حسن عبد الله. ص 137. 38

جاءنا عامر سالما صالحا بعد ما كان ماكان من عامر

جاءنا | عامر | سالمن | صالح

فاعلن | فاعلن | فاعلن

سالم | سالم | سالم | سالم

بعدما | كان ما | كانمن | عامري

فاعلن | فاعلن | فاعلن | فاعلن

سالم | سالم | سالم | سالم

### **Mutadoriki musammani solim**

*Ne mongishdurki, tanlar habosi aning,*

*Ne boqishdurki, jonlar fidosi aning.*

Foilun foilun foilun foilun

### **Mutadoriki musammani maxbun**

*Ne samand ekon ulki, buyon surasen,*

*Boshim uzra jafu qilichi urasen.*

Foilun fa:'ilun fa:'ilun fa:'ilun

### **Mutadoriki musaddasi maxbun**

*Mani istamasang netayin,*

*Bosh olib qayone ketayin.*

Fa:'ilun Fa:'ilun Fa:'ilun

### **Aruz va zarb maxbuni maqtu**

*Rashki xurshidi anvardurur yuzi,*

*Fitnai shahru kishvardadur ko'zi.*

Fa:'ilun Fa:'ilun Fa:'ilun fa'ul

## **2.3 Aruziy doiralar.**

Bahrlar bir-birlariga yaqinligi va umumiy o'zak xususiyatlariga ko'ra alohida alohida guruhlariga – aruz doiralari bo'linadi.

Bahrlar orasida bir necha bahrning “o'zagi” bir xil bo'lishlilik aloqasini ko'rsatish uchun aruzshunoslar “doira” deb ataladigan vositadan foydalanganlar. Bir o'zakli bahrlarning bir nechtasi uchun bitta bayt she'r aytiladi va shu baytning tarkibiga kiruvchi

bo'laklar turlicha joydan boshlab o'qilsa, bu o'zak atrofiga uyushgan bahrlar o'z-o'zidan maydonga kelaveradi.

Doira deb atalishiga sabab, bahrlar vaznlari xuddi bir aylanaga kirgizilib, shu aylana kengligidan chiqmaydi. Bir doiraga kirgizilgan maqta'larning birinchisi bir bahr uchun boshlang'ich nuqta bo'lsa, ikkinchisi boshqa biri uchun ayni shu vazifani bajaradi. Bahrlar bir-birlariga yaqinligi va umumiy o'zak xususiyatlariga ko'ra alohida alohida guruhlariga – aruz doiralari bo'linadi. Doiralalar beshta bo'lib, har doiraga muayyan bahrlar kiradi. Doiraning necha bo'lakka bo'linishi har turkumdagi bahrlarning dastlabki maqta'lari soniga qarab belgilanadi. Xalil ibn Ahmad hisobi bo'yicha, har bir doiraning muayyan o'rnigina ma'lum bahr ko'rinishini topish uchun boshlang'ich nuqta bo'la oladi<sup>39</sup>.

X-XII asrlar mobaynida yashagan aruz bobida asarlar tasnif etgan O'rta Osiyolik allomalardan Abu Nasr al-Javhariy, Abu Abdulloh al-Xorazmiy, Abu Xafs an-Nasafiy, Yusuf as-Sakkokiylarning doira bobi haqida yozgan quyidagi ma'lumotlarni berishimiz mumkin:

X asr olimlaridan Abu Nasr al-Javhariy o'zining "Arud alal-Vurqati" (Aruz sahifalari) nomli aruzga doir asarida birinchi bo'lib aruz nazariyasini isloh etadi va aruz doiralari haqida ma'lumotlar keltirmaydi.

X asrda ijod qilgan Abu Abdulloh Muhammad ibn Ahmad ibn Yusuf al-kotib al-Xorazmiy o'zining "Mafotih al-ulum" ("Ilmlarning kalitlari") nomli qomusiy majmuasida ham aruz ilmiga oid bobida ham doira xususida bitta jumla beriladi: "Doirada sog'lom ruknlarga monand misollar berish mumkin". biroq doiralalar soni, nomi haqida ma'lumotlar berilmaydi<sup>40</sup>.

Zamaxshariy zamondoshlaridan Abu Xafs an-Nasafiy aruzga oid asari "Muxtasaru-l-aruz ala usuli-l-ma'ruz" ("Aruzga oid qisqa risola") nomli asarida doiraga oid ma'lumotlar

<sup>39</sup>Галабов Э. Араб шеърини тартибга solish. ДДА. –Г., 2004. – Б.243.

<sup>40</sup>Зиявиддинова М. Поэтика в "Мафотих ул улум" Абу Абдаллаха ал-Хорезми". АКД. – Ташкент. 1990.Б.39.

Zamaxshariy asaridagi doira nomlariga o'xshaydi. Biroq ularga berilgan she'riy misollar farq qiladi. XII asr oxiri-XIII asrlarda yaratilgan Yusuf as-Sakkokiyning "Miftoh al-ulum" ("Ilmlarning kaliti") asaridagi doiraga oid ma'lumotlar, fikrimizcha, Xalil ibn Ahmadnikiga mos bo'lsa kerak. Chunki unda 15 bahrga besh doira beriladi. Beshinchi doira "munfarida" deb nomlanib, bittagina bahr "mutaqorib" keltiriladi. Shuningdek, Alisher Navoiy "Mezon ul-avzon"da aruz sistemasidagi 7 doirani tavsiflasa, Zahriddin Muhammad Bobur "Muxtasar" asarida aruz sistemasidagi bahrlarni 9 doiraga ajratib tekshiradi. Alisher Navoiy va Zahriddin Muhammad Boburlar tamonidan tavsiflangan doiralar quyidagicha:

1) Muttafiqa doirasi. Bu doiraga mutaqorib va mutadorik bahrlari kiradi.

2) Muhtaliba doirasi. Bu doiraga rajaz, ramal, hazaj bahrlari kiradi.

3) Muhtalibai muzohafa doirasi. Bu doiraga ramali maxbun, hazaji maktuf, rajazi matviy bahrlari kiradi.

4) Muhtalibai muxtari'a doirasi. Bu doiraga hazaji maxbun, ramali makfuf bahrlari mansub.

5) Muxtalita doirasi. Bu doiraga vofir va komil bahrlari mansub.

6) Mushtabiha doirasi. Bu doiraga basit, tavil, madid, amiq, muqtazab bahrlari mansub.

7) Muxtalifa doirasi. Bu doiraga mujtass, munsarih, muzori', muqtazab bahrlari mansub.

8) Muhtamia doirasi. Bu doiraga muzori', muqtazab, mujtass, mushokil, sari', jadid, qarib, munsarih, hafif bahrlari mansub.

9) Muntazi'a doirasi. Bu doiraga hafif, mushokil, sari', jadid, qarib bahrlari mansub.


Zahriddin Muhammad Bobur esa "Aruz haqida" risolasida o'zining g'azallaridan, shuningdek, o'tmishdoshlari va zamondoshlarining she'riyatidan turli bahrlarda misol keltirilgan. Uning risolasi X-XVI asrlarda yashab ijod etgan 60ta shoirning



gʻazallaridan misollarni birlashtiruvchi aruz haqidagi antologiya hisoblanadi.

Bobur *aruz* va *amiq* deb nomlanuvchi yana ikkita yangi bahrni qoʻshadi.

Mahmud ibn Umar az-Zamaxshariyning aruz ilmiga oid “al-Qistos fi ilmil-aruz” asarida esa beshta doira, u doiraga xazaj maqbud va ramali makfuf bahrlari kiradi.ra beriladi:



Yuqoridagi rasmni jadval ko‘rinishida ham ko‘ramiz:

Mux talifa	Mu'ta lifa	Mujta liba	Mush tabiha	Mutta fiqa
Tavil	Vofir	Xazaj	Sari'	Mutaqorib
Madid	Komil	Rajaz	Munsarih	Rakd
Basit		Ramal	Xafif	
			Mudori'	
			Muqtadab	
			Mujtass	

**Birinchi doira:** Muxtalifa ( مختلفة lug‘.m: turli xil). Mazkur doiraga uchta bahr – tavil, madid, basitlar kiradi. (ilova)

Uning ruknlari ikki turli:

**Besh harflilar:** ular sababning vatad atrofidagi ko‘chirilishi natijasi:

فاعِلُنْ yig‘ilgan vatadga yengil sabab ortirilgan,  
 فاعِلُنْ bunda aksincha, yig‘ilgan vataddan oldinga yengil sabab ortirilgan.

**Yetti harflilar:** ular vatad atrofida ikki sababni ko‘chirilishi natijasi:

مفاعِلُنْ yig‘ilgan vatad ikki ketma-ket yengil sababdan oldinga joylashtirilgan;

فاعِلَاتُنْ ikki yengil sabab yig‘ilgan vatad atroflariga joylashtirilgan;

مستقلُنْ ikki yengil sabab yig‘ilgan vataddan oldinga qo‘yilgan.

Zamaxshariy doiralarda keltirgan misollarni ko‘rib chiqamiz:

**Tavil:**

أطل مدتي بسط المدى منك مأمول  
 اند عدتي كف العدى عنك مسعول

**Madid:**

مدتي بسط المدى منك مأمولن أطل  
 عدتي كف العدى عنك مسعولاند

**Basit:**

بسط المدى منك مأمولن أطلمدتي

كفّ العدى عنك مسعولاً ندعتى

Ushbu doirada birinchi tavil bahri soʻng madid bahri keladi va oxirida basit bahri keladi. Misolning birinchi soʻzi tavil bahrining oʻzagidan yasalgan “اُطْل” soʻzi bilan kelgan. Ikkinchi soʻz madid bahrining oʻzagidan tarkib topgan “مذتي” soʻzi bilan kelgan va uchinchi soʻz esa basit bahrining oʻzagidagi tarkib topgan “بسط” soʻzi ishtirok etgan.

**Ikkinchi doira:** Muʼtalifa ( مؤتلفة lugʻ.m: birlashgan) doirasidir. Doiraning har bir rukni yetti harfli ruknlardan, shu ruknlar esa, ogʻir va yengil sabablar, fosila va yigʻilgan vatadlardan tarkib topgan. Ushbu doiraga vofir va komil bahrlari kiradi. Vofir bahri vataddan boshlangani uchun birinchi keladi undan soʻng komil bahri keladi. (ilova)

Zamaxshariy Muʼtalifa bahriga quyidagi misolni beradi:

**Komil:**

كَمَلًا نَوَافِرَ حَظَّنَا بِمَكَارِمِ  
زَطَقْتِ بِهِنَّ عَدَى تَجَاهَرَ فِي الْقَلْبِي

**Vofir:**

نَوَافِرَ حَظَّنَا بِمَكَارِمِكَمَا  
بِهِنَّ عَدَى تَجَاهَرَ فِي الْقَلْبِي زَطَقْتِ

Ushbu misolda bayt komil bahrining oʻzagidan yasalgan “كَمَلًا” soʻzi bilan boshlanib ketidan vofir bahrining oʻzagidan tarkib topgan “نَوَافِرَ” soʻzi bilan ishlatilgan.

**Uchinchi doira :** Mujtaliba (مجتلية lugʻ.m. qoʻlga kiritilgan) doirasi. Mazkur doiraga ham uchta bahr – xazaj, rajaz va ramal kiradi. Xazaj bahri vataddan boshlangani uchun birinchi boʻlib keladi va ketidan rajaz va ramal bahrlari keladi. (ilova)

“Al-Qistos” da ushbu doiraga quyidagicha misol berilgan:

**Hazaj:**

هَزَجْنَا رَمَلًا أَرْجُوزَةً فِيهَا  
أَغَانٌ قَدْ سَمِعْنَا مِنْ غَوَانِيهَا

**Ramal:**

رَمَلًا أَرْجُوزَةٌ فِيهَا هَزَجُنَا  
 قَدْ سَمِعْنَا مِنْ غَوَانِيهَا أَعَانَ

**Rajaz:**

أَرْجُوزَةٌ فِيهَا هَزَجُنَا رَمَلًا  
 قَدْ سَمِعْنَا مِنْ غَوَانِيهَا أَعَانَ

Doirada bayt hazaj bahrining o‘zagidan yasalgan “hazajna” so‘zi bilan boshlangan. Ikkinchi so‘z ramal bahrining o‘zagidan tarkib topgan “ramla” so‘zi joy olgan.

**To‘rtinchi doira :** Mushtabiha ( مشتبهة lug‘.m.: o‘xshash). Bu bahrni bunday atalishiga sabab, uning ruknlarining hammasi yetti harfli ruknlardan tashkil topganidir. Mushtabiha doirasiga: muqtadab, mujtass, sari’, munsarix, xafif hamda mudori’ bahrlari kiradi. (ilova)

Mahmud Zamaxshariy quyidagi misol bilan ushbu doirani izohlagan.

**Munsarix:**

سِرْحٌ لَضْرَعٌ مَجْتَنٌّ سِرْعَاذًا مَا خَفَتْ مِنْ قَضِبٍ فَدَّ فِي أَرْضِنَا

**Mudori’:**

لَضْرَعٌ مَجْتَنٌّ سِرْعَاذًا مَا خَفَتْ مِنْ قَضِبٍ فَدَّ فِي أَرْضِنَا سِرْحٌ

**Mujtass:**

مَجْتَنٌّ سِرْعَاذًا مَا خَفَتْ مِنْ قَضِبٍ فَدَّ فِي أَرْضِنَا سِرْحٌ لَضْرَعٌ

**Sari’:**

سِرْعَاذًا مَا خَفَتْ مِنْ قَضِبٍ فَدَّ فِي أَرْضِنَا سِرْحٌ لَضْرَعٌ مَجْتَنٌّ

**Xafif:**

خَفَتْ مِنْ قَضِبٍ فَدَّ فِي أَرْضِنَا سِرْحٌ لَضْرَعٌ مَجْتَنٌّ سِرْعَاذًا

Bu yerda doiraga berilgan misol munsarix bahrining o‘zagidan yasalgan “sarch” so‘zi bilan boshlanib, mudori’ bahri “sarch” so‘zi, mujtass bahri “mجتن” so‘zi, sari’ bahri “سرع” so‘zi bilan birin-ketin keladi. Va baytning oxiri xafif bahridan yasalgan “خفت” so‘zi bilan tugaydi.

**Beshinchi doira: Muttafiqa** ( *متفقة* lug‘.m.: mos, o‘xshash)dir. Ushbu doiraga mutaqorib bilan rakd bahrlari kiradi. (ilova)

Muallif quyidagi misolni bergan:

**Mutaqorib:**

و داعيت مده اذ دعاني

تقاربت ذاكضا اذ دعاني

**Rakd:**

ركض ربت ذاكضا اذ دعاني و داعيت مده اذ دعاني قفا

Ushbu doiradagi misolning birinchi misrasi mutaqorib bahrining o‘zagidan yasalgan so‘z bilan boshlanadi. Ikkinchi misra esa rakd bahridan boshlanadi.

Keyinchalik ushbu doiralarga aruzshunos olimlar bir qancha o‘zgartirishlar kiritganlar. Masalan: Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur turkiy tilning spesifikasidan kelib chiqib doiralarni qayta ishlab chiqdilar va yangilarini kiritdilar.

Alisher Navoiy o‘zida to‘qqizta bahrni birlashtirgan bitta yangi doirani “Doirai mujtamia” deb nomlanuvchi doirani kiritdi. Bahrlar quyidagicha nomlanadi: sari’, jadid, qarib, munsarih, hafif, muzori’, muhtazab, mujtass, mushakil. Navoiy bu bahrlarda umumiylikni ilg‘aydi.

Zahriddin Muhammad Bobur to‘qqizta doira sxemasini keltiradi. U kiritgan doiralari bahrini o‘zgarishli ruknlar, ya’ni zihoflar bilan birga kiritadi. Bu “Doirai mujtalibai muzaxafa”, ya’ni unga xazaj makfuf, rajaz matvi va ramali maxbun deb nomlanuvchi bahrlar kiritilgan. Ikkinchi doirasi “Doirai mujtalibai muxtar’i’a” deb nomlanib, u doiraga xazaj maqbud va ramali makfuf bahrlari kiradi.

Bobur keltirgan ko‘pgina misollarning o‘ziga xosligi shunda ediki, ularni bir doiraga tegishli barcha bahrlarga misol qilib berish mumkin. Masalan, Navoiy “mushtabiha” deb nomlangan “Doirai mushtabihai solima” doirasida bitta bayt barcha sakkiz bahr uchun ham misol qilib beradi.

Sari’: *Kel kel yigit bot bir oyoq tut sen bizga*

Jadid: *Kel yigit bot bir oyoq tut sen bizga kel*

Qarib: *Yigit bot bir oyoq tut sen bizga kel kel*

Munsarih: *Bot bir oyoq tut sen bizga kel-kel yigit*  
 Xafif: *Bir oyoq sen tut bizga kel kel yigit bot*  
 Muzori': *Oyoq sen tut bizga kel kel yigit bot bir*  
 Muqtazab: *Sen tut bizga kel kel yigit bot bir oyoq*  
 Mujtass: *Tut bizga kel kel yigit bot bir oyoq sen*  
 Mushokil : *Bizga kel kel yigit bot bir oyoq sen tut*

Bu o'ziga xoslikni boshqa ba'zi doiralar misolida ham kurish mumkin.

Shuningdek, Bobur 16, 20 rukndan iborat ko'p ruknli bahrlarni ham keltiradi. Hatto ana shu turlarda ham Bobur bahrlarning o'zaro o'xshashligini ko'radi, lekin ularni doiraga birlashtirmaydi. 16 ruknli bahrlardan S. Hasanov tamonidan "Doirai Boburiy" deb nomlanuvchi yana bitta doira yaratildi.

### Doiralarning rivojlanishi jadvali

XI-XII asrlar	XII-XIII asrlar	XIV asr	XV asr boshi	XV asr II yarmi	XVI asr
Nasafiy	Sakkokiy	Qinoiy Damanhuriy	Tabriziy	Navoiy	Bobur
<b>I Muxtalifa</b> Tavil Madid Basit	<b>I Muxtalifa</b> Tavil Madid Basit	<b>I Muxtalifa</b> Tavil Madid Basit	<b>I Mu'talifa</b> Hazaj Rajaz Ramal	<b>I Mu'talifa</b> Hazaj Rajaz Ramal	<b>I Muttabiqa</b> Mutaqarib mutadarik
<b>II Mu'talifa</b> Vafir Kamil	<b>II Mu'talifa</b> Vafir Kamil	<b>II Mu'talifa</b> Vafir Kamil	<b>II Muttabiqa</b> Vafir Kamil	<b>II muxtalifa</b> Munsarih Mudori' Muxtabab Mujtass	<b>II mujtaliba</b> Hazaj Rajaz Ramal
<b>III Mujtaliba</b> Xazaj Rajaz Ramal	<b>III Mujtaliba</b> Xazaj Rajaz Ramal	<b>III Mujtaliba</b> Xazaj Rajaz Ramal	<b>III Mujtaliba</b> Tavil Madid Basit	<b>III Muntazi'a</b> Sari' Jadid Hafif Mushakil	<b>III Mujtalibai muzahafa</b> Hazaji makfuf Rajazi matviy Ramali maxbun
<b>IV Mushtabiha</b> Sari' Munsarh Hafif	<b>IV Mushtabiha</b> Sari' Munsarh Hafif	<b>IV Mushtabiha</b> Sari' Munsarh Hafif	<b>IV Mushtabiha</b> Mutaqarib Mutadarik	<b>IV Muttabiqa</b> Mutaqarib Mutadarik	<b>IV Mujtalibai muxtari'a</b> Hazaji maqbud

Mudari Muqtadab Mujtass	Mudari Muqtadab Mujtass	Mudari Muqtadab Mujtass			Ramali makfuf
<b>V Muttafiqa</b> Mutaqorib Rakd	<b>V Munfarida</b> Mutaqorib	<b>V Muttafiqa</b> Mutaqorib Mutadorik	<b>V Muxtalifa</b> Munsarih Mudori Muqtadab Mujtass	<b>V Mujtami'a</b> Hafif Mudori Muqtadab Mujtass Sari munsarih	<b>V Mu'talifa</b> Vafir Kamil
			<b>VI Muntazi'a</b> Sari Garib Qarib Hafif Mushakil	<b>VI Muxtalita</b> Vafir Kamil	<b>VI Muxtalita</b> Tavil Madid Ariz Basit Amiq
				<b>VII Mushtabiha</b> Tavil Madid Basit	<b>VII Mushtabiha</b> Munsarih Mudori Muqtadab Mujtass
					<b>VIII Muntazi'a</b> Sari Jadid Qarib Hafif
					<b>IX Mushtabihai salima</b> Sari Jadid Qarib Munsarih Hafif Mudori Muqtadab Mujtass
					<b>X Doirai Boburiy</b> Haxaji mutatavvali makfuf Rajazi mututuvvali maxbun

Demak, X-XVI asrlarda yaratilgan arab tilidagi asarlar asosida tuzilgan “Doiralarning rivojlanish jadvali”da koʻrganimizdek, beshta doirada oʻn oltida arab bahrlari keltirilgan. Keyingi asrlarda yaratilgan aruz nazariyasi haqidagi asarlarda yana yangi bahr va doiralar ishlab chiqilgan.

Sheʼr tuzilishi nazariyasi – aruzshunoslikka al–Xorazmiy asarining nazariy qismi dastlabki manba boʻlishi mumkin, chunki Xalil ibn Ahmadning ayni shu sohadagi asari bizgacha yetib kelmagan.

Al-Xorazmiy va as-Sakkokiy asarlarida sharq vazn nazariyasi aruzning oʻn besh bahriga berilgan misollar va asarlar nomlarining oʻxshashligi bizga as-Sakkokiy al-Xorazmiyning “Mafotih al-ulum” ensiklopediyasi bilan bevosita tanish boʻlganligi haqida xabar beradi.

Alisher Navoiyning “Badoyi ul-bidoya” devonidagi “Gul ruhim yodi bilan kunglum erur gulga xaris” misrasi bilan boshlanuvchi gʻazalning oxiridan bitta oldingi baytda shunday yoziladi:

*Band etbdur jadal ahli ishin ishkol, andoq.*

*Kim ne “Miftoh” anga sud qilur, ne “Talxis”.*

Bu misol buyuk shoir Alisher Navoiyning as-Sakkokiyning “Miftax al-ulum” asari va uning qisqacha bayoni – Jaloliddin Mahmud al-Kazviniyning “Talxis al-Miftoh”idan foydalanish imkoniyatiga ega boʻlgani haqida xabar beradi. Navoiy bu baytida asarlar nomlaridan maʼno ochish uchun yordam beradigan obraz sifatida foydalangan boʻlsa ham, oʻz navbatida bu bayt bizga Alisher Navoiyning Yusuf as-Sakkokiy yaratgan vazn nazariyasi bilan yaxshi tanishligi va unga yondoshganligi haqidagi xulosaga kelish imkoniyatini beradi.

Shubha yoʻqki, Zaxiriddin Muhammad Bobur ham xuddi Navoiy kabi oʻzining “Aruz haqida risola”sini yozishda Abu Abdulloh al-Xorazmiy, Abu Xafs an-Nasafiy, Yusuf as-Sakkokiy va boshqalarning aruz nazariyasiga bagʻishlangan manbalarga tayangan. Demak, yuqorida asoslangan xulosalarimiz bizga buyuk turkiy olim va shoirlar Navoiy va Bobur Sakkokiyning “Miftax al-



ulum” hamda Abu Abdulloh al-Xorazmiyning “Mafotih al-ulum” ensiklopediyasi bilan bevosita va bilvosita tanish bo‘lganliklari haqidagi xulosaga kelishimizga imkoniyat beradi.

### **Mavzu yuzasidan topshiriqlar**

1. Bahr so‘ziga ta’rif.
2. Bahrlar shakliga ko‘ra necha turga bo‘linadi?
3. Bahrlar tarkibiga ko‘ra necha turga bo‘linadi?
4. Arab aruzidagi bahrlar soni nechta?
5. Mahmud Zamaxshariy “Al-Qistos fi ilmi-l-aruz” asarida bahrlar qay tarzda taqsimlangan.
6. Besh va yetti harfli ruknlardan tashkil topgan bahrlar.
7. Basit bahriga misollarni keltiring.
8. Vafir bahri haqida.
9. Kamil bahri ruknlarini ayting.
10. Hazaj bahri haqida.
11. Rajaz va ramal bahrlariga misollar keltiring.
12. Sari’ bahri haqida.
13. Munsarih bahri ruknlarini ayting.
14. Hafif bahrini qanday turlari mavjud?
15. Mudori’ va muqtadab bahrlariga misollar ayting.
16. Mujtass va muqtadab bahri ruknlari qanday?
17. Mutadorik bahrni yana qanday nomlari bor?
18. Aruz doirasi deganda nimani tushunasiz?
19. Doira deb atalishiga sabab nima?
20. Arab aruzida nechta doira mavjud? Ularning nomlari qanday?
21. Al-Xorazmiy o‘zining “Mafotih al-ulum” asarida doiralarga qanday ma’lumotlar bergan?
22. Muxtalifa doirasi qanday tuzilgan?
23. Mu’talifa doirasi qaysi bahrlardan tashkil topgan?
24. Mujtaliba doirasiga misollar keltiring.
25. Mushtabiha doirasiga qaysi bahrlar kiradi?
26. Muttafiqa doirasi qanday?

## **Mustaqil ta'lim bo'yicha savol va topshiriqlar**

1. Bahrlarga aruzga doir asarlardan misollar keltiring.
2. Mahmud Zamaxshariy "Al-Qistos fi ilmi-l-aruz" asarida bahrlar qismini mustaqil o'rganish.
3. Abu Abdulloh al-Xorazmiyning aruzga doir asaridagi bahrlarga oid bo'limini o'rganish
4. Aruziy doiralar ichidagi bahrlar tarkibi.

### III BO'LIM. ARUZ ILMINING TARIXIY ILDIZLARI

*Darsning maqsadi:* talabalarni aruz ilmini rivojlanishida ahamiyatli bo'lgan buyuk allomalarimiz qoldirgan qimmatli asarlar bilan tanishtirish.

*Tayanch so'zlar va iboradlar:* "Kalom fi-sh-she'r va-l-qafovi", "Kitobu-sh-she'r", "Arud al-Vurqati", "Mafotih al-ulum", "Muxtasaru-l-aruz», "Ma'oniy" va "bayon" ilmlari, "ilm al-istidlol", "Ilm ash-she'r", "ilm-al-qavofi", "Al-Qistos", Ilmu-l-lug'at, Ilmu-l-abniyat, Ilmu-l-i'rob, Qirdu-sh-shi'r, besh doira.

#### 3.1. Aruzshunos olimlarning aruz ilmiga doir asarlari

VIII asrda yaratilgan aruz ilmi IX-XIII asrlarda nafaqat arab, balki O'rta Osiyo olimlari tomonidan ham rivojlantirildi. O'sha zamon ilm – fani barcha sohalari rivojiga ulkan hissa qo'shgan alloma ajdodlarimiz tilshunoslik, adabiyotshunoslik va she'rshunoslik fanlarining ham gullab -yashnashiga o'zlarining barakali ulushlarini qo'shdilar.

Sharq mumtoz she'riyati vazniga aylangan aruz faniga oid bobokalonlarimiz tomonidan yozilgan ba'zi arab tilidagi risolalar va ularning mualliflari haqida ma'lumot beramiz.

IX asr ikkinchi yarmida yashab ijod etgan, "ikkinchi muallim" nomini olgan faylasuf alloma Abu Nasr Forobiyning "Kalom fish-she'r val-qafovi" ("She'r va qofiyalar haqida so'z"), "Kitob ush-she'r" ("She'r kitobi"), "Risola fi qavoniyn sinoati-sh-shu'aro" ("Shoirlar san'ati qonunlari haqida risola") nomli asarlari mavjud bo'lib, ularda muallif she'riyatdagi bahrlarning turlari, ularning vazn bilan aloqasi, she'rning ta'sir kuchi doirasi hususida so'z yuritdi. She'rning musiqa bilan bog'liqligi haqida salmoqli fikrlar aytgan.

Tabobatga oid kitoblari bilan mashhur bo'lgan Abu Ali ibn Sino "She'r san'ati" asarida: "She'r – bu takrorlanuvchi, vazn va urg'uga ega bo'lgan, bir-biriga qofiyadosh baytlardan tashkil topgan, kishining eng nozik tuyg'ulariga ta'sir etuvchi nutqdir", -

degan ekan. Aruzning rajaz bahrida yozilgan tabobatga oid "al-Urjuza fi-t-tib" nomli asar uning qalamiga mansubdir.

X asrda yashagan foroblik alloma **Abu Nasr Hammad Javhariy** yozgan "as-Sihoh" asari arab tilining izohli lug'ati hisoblanadi. U o'zining aruzga doir "Arud al-Vurqati" asarida aruz fanini isloh qilib, 16 bahrni 12 bahrga keltiradi. Shu bois tarixda uni aruz ilmining islohotchisi deb atashgan. Aruzga doir asarlar yoki qomusiy asarlarning aruzga oid boblarida aruz bahrlari haqida to'xtalganda, faqat birinchi ko'rinishigagina misol keltirib, nuqsonli tarmoq ruknlardan tashkil topgan vaznlar qanday ko'rinishda bo'lishi aytiladi. Misollar bilan ta'minlanmaydi.

Al-Javhariy esa qadimgi va o'ziga zamondosh shoirlar asarlaridan har bir ko'rinishga namunalar berib, qaysi zixof ta'sir qilganini ham ko'rsatib o'tadi. Uning fikricha, aruz she'rining mezoni bo'lib uning foydalari uchta:

1. She'rni ma'lum bir musiqiy ohangda o'qilganda zavq bag'ishlaydi.

2. Aruz vazni tufayli Qur'onni she'rdan farq qilish mumkin.

3. U she'rda nima kerak va nima kerak emasligini ma'lum qiladi. Uning illatlari ham ko'rsatib o'tiladi.

Muqaddima qismida 7ta narsa haqida so'z boradi. Ular sabab vatad, fosila, juzvlar, taqte', zixof va bahrlardir

Muallif yozishicha asl ruknlar 7tadir:

فاعلتن مفاعيلن مستفعلن مفاعلتن متفاعلن فاعلن فعولن

Xalil fikricha مفعولات to'g'ri rukn emas. Agar to'g'ri rukn bo'lganda undan sodda bahr tarkib topardi, - deyiladi.

Al-Javhariy aruz vaznini biroz bo'lsa ham soddalashtirish maqsadida 16ta bahrni 12ta bahrga tushiradi. Tahlil etilgan she'riy parchalar ham ko'proq musaddas, murabba' shakllaridadir. U bahrni bob deb aytadi. Shulardan yettitasi sodda, beshtasi murakkabdir. Bahrlar xaqidagi ma'lumotni berishdan oldin quyidagi osonlashtiruvchi ma'lumotlarni beradi. Uning yozishicha:

1. **Mutakorib va hazaj** [ruknlaridan] Tavil yasalgan.

فعلون مفاعيلن

2. **Hazaj va ramal** [ruknlaridan] Mudori' [bahri] paydo bo'lgan

مفاعيلن فاعلاتن

3. **Ramal va rajaz** [ruknlaridan] Xafif [bahri] tashkil topgan

فاعلاتن مستعملن

4. **Rajaz, mutadorik** [ruknlaridan] Basit [bahri] yaralgan.

مستعملن فاعلن

5. **Ramal, mutadorik** [ruknlaridan] Madid [bahri] xosil bo'lgan.

فاعلاتن فاعلن

Al-Javhariy tushurib qoldirgan bahrlar haqida shunday izoh beradi:

*Sari'* bahri basitdan olingan

*Munsarix va Muqtazob* bahrlari esa rajaz bahridan olingan

*Mujtas* esa, *xafif*dan olingan.

Mazkur fikrlarini isbot qilish maqsadida har bir bahr uning tarmoq ko'rinishlari haqida so'z ketganda, albatta, Xalil fikrlarini eslab, mana shu ko'rinishni Xalil Sari' deb atagan, -degan mulohazani bildirib o'tadi.

Taqti' masalasiga kelsak, unda yozuv emas, talaffuz qilingan so'zlar muhimdir. Albatta har bir bahr qolipiga monand qilib, tushib qolgan tanvin harf xisoblanadi. Tashdidida ikkita xarf yoziladi. Vaslali alif talaffuz qilinmagani uchun yozilmaydi.

Javhariy tavil bahriga 7ta, madid bahriga esa 14ta, basit bahriga xam 14ta, vafir bahriga 11ta, komil bahriga 22ta, hazaj bahriga 10ta, rajaz bahriga 12ta bayt misol qilib keltirgan. Ramalda 8ta, xafifda 21ta, mudori'da 7ta, mutaqoribda 12ta, mutadorikda 4ta she'riy misol keltiradi, biroq baytlar qaysi shoir qasidasidan olinganligi qayd etilmaydi.

Odatda aruz nazariyasiga maxsus yozilgan asarlarda doiralar keltirilgan (Masalan: an-Nasafiy va az-Zamaxshariy asarlarida). Biroq Al-Javhariyning mazkur asarida doira haqida

soʻz ham bormaydi. Bu bilan olim aruzni yana ham osonlashtiradi.

Yana arablarda Javhariy va Xalil ibn Ahmadning aruz nazariyasi haqida quyidagicha fikri mavjud: “انما وضعه الخليل و هذبه ” (Xalil uni (aruz ilmini) asosini yaratdi, Javhariy esa uni bir tizimga soldi.) Bu jumladan koʻrinib turibdiki, Javhariy aruz ilmining rivojlanishida katta rol oʻynagan.

Shunday qilib, Abu Nasr ibn Hammod Al-Javhariy aruz nazariyasini isloh qilgan yakkaya-yu yagona olimdir. Uning asarlarida berilgan misollar ham koʻproq 6 va 4 ruknli sheʼriy parchalardir. Mazkur aruz nazariyasiga oid asar mumtoz sheʼr vaznlarini aniqlashda manba vazifasini oʻtashi mumkin.

X asrda Somoniylarning uchinchi vakili Nuh ibn Mansur hukmronligi davri (975 – 997)da ijod qilgan **Abu Abdulloh Muhammad ibn Ahmad ibn Yusuf al-kotib al-Xorazmiy** oʻzining “Mafotih al-ulum” (“Ilmlarning kalitlari”) nomli qomusiy majmuasi birinchi boʻlim beshinchi bobini aruz ilmi, uning bahrlari, sogʻlom va tarmoq ruknlari, illat va zihoflari taʼrifiga bagʻishlab, sheʼriy misollar bilan taʼminlagan. Shu bilan birga qofiya, uning turlari, istilohlarning kelib chiqishi, qoʻllanilishi haqida ham maʼlumotlar berib oʻtgan.

XI-XII asrlarda yashab ijod etgan nasaflik alloma **Abu Xafs Umar ibn Muhammad ibn Ahmad an-Nasafiy** (1068 – 1142) ning OʻzFA Sharqshunoslik institutida saqlanayotgan “Matlaʼ un-nujum” va “Majmaʼ ul-ulum” (“Yulduzlarning chiqishi va ilmlarning jam boʻlishi”) nomli qomusiy majmuasida 50dan ortiq asari jamlangan. U yerdagi aruzga oid asari “Muxtasar ul-aruz ala usulil-maʼruz” (“Aruzga oid qisqa risola”) deb nomlanib, u qoʻlyozmaning 302 a - 307 b sahifalarini oʻz ichiga olgan. Unda alloma bahrlar, ruknlar, illat va zihoflar, doiralar haqida maʼlumotlar beradi. Bundan tashqari, Nasafiyning “Ixtiloflar haqida kitob” nomli asari sheʼriy yoʻl bilan rajaz bahrida yozilgan boʻlib, 2666 baytni oʻz ichiga olgan. U islom huquqshunosligi boʻyicha buyuk imomlarning fikrlari oʻrtasidagi ixtiloflarga oid asardir.

**Yusuf as-Sakkokiyning “Miftoh al-ulum” asari.** XII asr oxiri- XIII asr birinchi choragida yashab ijod etgan xorazmlik alloma Abu Yoqub Yusuf ibn Abu Bakr Muhammad ibn Ali as-Sakkokiy tomonidan “Miftoh al-ulum” (“Ilmlarning kaliti”) asari yozildi. Mazkur asarning I va II boblarida muallif arab tili grammatikasini mukammal ishlab chiqib, uning mantiqiy davomi sifatida III bobni “Ma’oniy” va “bayon” ilmlariga bag‘ishlandi. Mazkur ilmlar tarkibiga “ilm al-istidlol” (“Dalil keltiruvchi ilm”), “ilm al-bade” (“Badiiyat ilmi”), “Ilm ash-she’r”, “ilm-al-qavofi”larni ham kirgizgan. “Miftoh al-ulum” asari shuhrat topib, unga mullo kotib Chalabiyning “Kashf az-zunun an asomil-kutub val-funun” asarida keltirilishicha 70dan ortiq sharh, talhis hoshiya va ta’liqotlar yozilgan. Arab va ajam olimlarining ta’kidlashlaricha, Yusuf as-Sakkokiy bu asarida badiiyat ilmi haqidagi ko‘p asrlik ta’limotga ilmiy yakun yasagan.

Muallif asar muqaddimasida shunday izoh beradi: “Men o‘z kitobimga tilshunoslik fanining lug‘atshunoslikdan tashqari zarur bo‘lgan sohalarini kiritdim. Butun morfologiya, to‘liq sintaksisdan so‘ng ma’oniy va bayon ilmlarining ishlatilish doirasini aniq tushuntirib berishni zarur deb hisobladim. Ularni egallash uchun nazm va nasmi tahlil eta bilish kerakligini tushundim, ayni vaqtda, shoir aruz va qofiya ilmlarini bilishga muhtoj ekanligiga ishonch hosil qildim”.

Yusuf as-Sakkokiy aruz va qofiya ilmlari xususida fikr yuritar ekan, unda aruz 15 bahrining har bir ko‘rinishiga arab shoirlari she’rlaridan namunalar keltirib, har bir ruknga moslab misollar taqte’ini beradi. Bu esa she’rlarni vaznga to‘g‘ri solib o‘qishga yordam beradi.

**Mahmud Zamaxshariyning “Al-Qistos fi ilmil-aruz” asari.** Ulug‘ vatandoshimiz arab va ajam faxri hisoblangan Jorulloh az-Zamaxshariy, to‘liq ismi Abul Qosim Mahmud ibn Umar ibn Muhammad jahon madaniyatiga salmoqli hissa qo‘shgan mufassir, tilshunos, lug‘atshunos alloma va she’r nazariyotchisi sifatida dunyoga mashhur bo‘lgan olim. Uning asarlari mazmun jihatdan ilm-fanning ko‘pgina sohalarini qamrab

olgan. Zamaxshariy ijodida diniy ilmlar va lugʻatshunoslik, grammatika, aruz, adabiyot, mantiq, huquqshunoslik sohalari asosiy oʻrin egallaydi. Asarlarining roʻyxati bir qator manbalarda turli olimlar tomonidan turlicha maʼlumot keltirilgan. Jumladan, mashhur nemis sharqshunos olimi K. Brokkelʼmanning “Arab adabiyoti tarixi” nomli asarida Mahmud Zamaxshariyning 31ta asari haqida maʼlumot bergan<sup>41</sup>.

Zamaxshariy oʻz ijodining katta qismini arab tilshunosligiga oid morfologiya, sintaksis, fonetika va lugʻatshunoslik kabi sohalarga bagʻishlab, shu mavzuda noyob asarlarni meros qilib qoldirgan. Uning eng mashhur asarlaridan biri “Muqaddimat ul-adab”dir. U qomusiy asar boʻlib, tilshunoslikning turli sohalari boʻyicha boy maʼlumotlar beradi.

Olimning yana bir mashhur asari “Asos-ul-balogʻa” (“Balogʻat asoslari”) arab tilining izohli lugʻati. Bu asar allomaning grammatik merosida muhim oʻrin egallagan. A. Rustamovning fikricha, “Zamaxshariy oʻzining “Asos ul-balogʻa” asari bilan arab lugʻatshunosligini bir necha pogʻona yuqori koʻtargan”<sup>42</sup>. U lugʻatda soʻzlarning birinchi harfini va undan keyingi harflarini nazarga olgan holda alifbo tartibida beradi.

Alloma az-Zamaxshariyning aruz ilmiga doir asari “al-Qistos fi ilmil-aruz” (“Aruz ilmida vazn”) deb ataladi.

Asarning toʻliq nomi “Al-Qistos al-mustaqim fi ilmil-aruz” (“Aruz ilmida aniq mezon”)dir. Ushbu risola arab tilida yozilgan boʻlib, oʻttiz uch betdan iborat.

Risolaning qoʻlyozma nusxalari dunyoning mashhur kutubxonalarida saqlanadi. Jumladan: Qohira shahrining “Dor ul-kutub” kutubxonasida 60, 2 va 499 raqamlari ostida mavjud<sup>43</sup>. Shuningdek, tarixiy romanlar muallifi, olim Jurji Zaydonning yozishicha, “Al-Qistos”ning baʼzi nusxalari Berlin va Leyden Sharq qoʻlyozmalari xazinasida ham saqlanadi<sup>44</sup>.

بروكلمان كارل. تاريخ الأبن العربي. دار المعارف بمصر. الجزء الخامس. 1975. ص. 315<sup>41</sup>

Қаранг: Рустамов А. Махмуд Замахшарий. – Т.: Фан, 1971. – Б. 12.

الدكتور فخير الدين قباوة. القسطاس في علم العروض. مكتبة المعارف. بيروت. 1989. ص. 3<sup>43</sup>

الدكتور أحمد الحوفي. الزمخشري دار الفكر العربي. القاهرة. ص. 61<sup>44</sup>



Zamaxshariy o'zi yashagan davr shoirlari she'r vaznlarini tadqiq qilishni maqsad qilib oladi. Asarda aruz illatlari borasida alohida so'z yuritadi, aruz vazniga oid bahrlar, ruknlar va ularning har xil bahr turlariga arab shoirlari she'rlaridan misollar keltiradi. Shu sababli, keyingi avlod aruzshunoslari Zamaxshariy risolasiga ko'plab hollarda murojaat etadilar.

Risolani tadqiq qilgan olimlarning yozishlariga ko'ra, Zamaxshariy o'zigacha bo'lgan arab olimlari Xalil ibn Ahmad va Abulhasan Axfashlarning 16 bahrli vaznlarga oid nazariyalarini sodda qilib bayon qiladi.<sup>45</sup>

Muallif asarning muqaddimasida aruz ilmining qator boshqa ilmlar bilan bog'liqligi haqida yozadi. Ularni o'n ikki sinfga ajratadi:

Ilm ul-lug'at – lug'atshunoslik ilmi, tilning izohli lug'ati, har bir so'zning mazmun-mohiyatini yaxshi anglab yetmoq.

Ilm ul-abniyat – o'zgarmas shaklga ega, tushinish qiyin bo'lgan arxaik so'zlar haqidagi ilm.

Ilm ul-ishtiyoq – so'zning bir o'zakdan kelib chiqishi haqidagi ilm. Masalan: ruh –rayhon.

Ilm ul-i'rob –arab tili grammatikasiga oid ilm.

Ilm ul-ma'oni – gapning barcha bo'laklarini to'g'ri tuzish, mazmunga boy toifalarning to'g'ri, ochiqdan-ochiq, aniq, yashirin va har xil ifodalash<sup>46</sup>

Ilm ul-bayon – oz miqdordagi so'zlardan foydalanib, fikrning aniq va tiniq ma'nosini ifodalash.

Ilm ul-arud – aruz nazariyasiga oid qonun-qoidalarni mukammal egallash- she'riy asarni ma'lum bir maromda o'qishga, she'rning jilva- jilosidan zavq olishga yordam beradi.

Ilm ul-qavafi – qofiya haqidagi ma'lumotlar majmuasini to'la-to'kis anglash.

Insha un-nasr – nasriy matn yozish san'ati.

<sup>45</sup> Qarang: Алиев С. Аруз илми. – Бухоро, 1995. – Б.6

<sup>46</sup> Зиёвуддинова М. Юсуф ас-Саккокий ва унинг "Мифтоҳ ал-улум" асари //Шарҳ филологический тугун ва сичмлари. – Т. 2005. – Б. 177-181.

Qird ush-shi'r<sup>47</sup> – she'rni ruknga monand bo'lagini biroz pauza bilan o'qilgandagina ma'lum bir musiqiy ohang paydo bo'ladi. Mazkur jarayon taqti' deb ataladi.

Ilm ul-kitaba – xat yozish san'ati, xattotlik san'ati haqidagi ilm.

Ilm ul-muhadarat – notiqlik san'ati haqidagi ilm.

Zamaxshariy o'z asarida shuni ham ta'kidlab o'tadiki, she'r ma'noga ega bo'lishi uchun 4 unsur bo'lishi shart: Bu lafz, ma'no, vazn va qofiya.

Yana she'r binosining asosini 2 narsa tashkil etadi – bu sabab va vatad. Fosila esa yuqoridagilar qo'shilishidan vujudga keladi, deyiladi. Ular misol bilan ta'kidlangan. Asl ruknlar 8ta: مَفْعُولَاتٌ، مُتَّفَاعِلُنْ، مُفَاعِلَتُنْ، فَاعِلَاتُنْ، مَفَاعِلُنْ، مُسْتَفْعِلُنْ، فَاعِلُنْ، فَعُولُنْ. Har bir asl ruknning far'iy ko'rinishlarini berib o'tib, ular nomini ham qayd etadi.

Risolada beshta doira ham mavjud. Ular quyidagilar: muxtalifa, mu'talifa, mujtaliba, mushtabiha hamda muttafiqa. Ularni ichida bahrlarga misollar berib o'tilgan.

Shuni qayd etish kerakki, har bir bahrga berilgan bayt albatta o'sha bahr nomi yoki o'sha o'zakdan chiqqan so'z bilan boshlanadi.

Shunday qilib, Mahmud Zamaxshariyning arab aruziga bag'ishlangan ushbu “Al-Qistos fi ilm-il-aruz” risolasi boshqa olimlar asarlariga nisbatan mustaqilroq va mukammalroq yozilgan. Shuningdek, aruz ilmiga oid asarlardan farqli o'laroq, ushbu risoladagi bahrlarga berilgan misollar Zamaxshariy she'rlari orqali ifoda etilgan. Va bugungi kundagi aruzshunoslar va aruz ilmi bilan shug'ullanuvchi tadqiqodchilar aynan shu asardan o'z tadqiqotlarida keng foydalanishlari mumkin.

**A. Navoiyning “Mezonu-l-avzon” asari.** XV asr ikkinchi yarmida aruz faniga oid hazrati Alisher Navoiyning turkiy tilda yozilgan “Mezonu-l-avzon” asari yuzaga keldi. Asar muqaddimasida yozilishicha, Sulton Xusayn Bahodirxon farmoni

<sup>47</sup> Qo'lyozmada “qird” so'zi “qat'a” deb izohlangan.

bilan Amir Xusrav Dehlaviyning o'n sakkiz ming baytlik to'rt devonini zamona xushnavislariga kitobat qildirib, har bir g'azal ustiga "... g'azal ne bahrda va ne vaznda erkonin va arkonig'a qaysi zihof kirib, ne nav tag'ayyur topqonin bitgaylar va sabt qilg'aylar, to barcha elg'a ul bahr ahvolini va ul vazn ashkolini ma'lum qilg'aylar..."

Hazrati Alisher Navoiy "Mezon-ul-avzon" asarining yozilishiga Sulton Husayn Bayqaroning "... muborak xotirlari she'r buhur (bahrlari) va avzonig'a va nazm qavoid mezonig'a moyil..." bo'lganligi, shu bois "... aruz fanida bu muxtasar sabt bo'ldi va unga "Mezonu-l-avzon" ot qo'yildi", -deb yozdilar.

Alisher Navoiyning "Mezon-ul-avzon" asari mumtoz o'zbek she'riyati taraqqiyotida yangi va muhim bir hodisa bo'ldi. Chunki:

1. Navoiy "Mezon-ul-avzon" asarini fors-tojik tilida yozilgan risolalar asosida aruz nazariyasini boyitdi va takomillashtirdi. Buni Navoiyning o'zi ta'kidlab, "Mezon-ul-avzon"da quyidagilarni yozgan edi: "... va necha qoida va doira va vaznkim, hech aruzda, misli fan voze'i Xalil ibn Ahmad va ilm ustodi Shams Qays kutubga oid va Xoja Nasr Tusiyning "Me'yor-ul-ash'or"da, balki Hazrati Mahdumiy... Nuran(Jomiy) "Aruz"larida yo'q erdikim, bu faqir bu fan usulidin istixroj qilib erdim, bu kitobg'a izofa qildim".

Aruz nazariyasiga doir kitoblarda turkiy xalqlar, jumladan o'zbek she'riyatining vazni masalalari maxsus o'rganilmagan edi. Vaholanki turkiy xalqlar she'riyatida aruz vazni uzoq tarixga va boy tajribaga ega edi. XI asrdayoq turkiy tilda aruzning mutaqorib bahrida "Qutadg'u bilik" kabi yirik asar vujudga kelgan edi. Turkiy she'riyatdagi aruzning 4-5 asrlik tajribasini o'rganish adabiyot tarixini yoritishgagina emas, balki uning taraqqiyotiga ham xizmat qiladi.

"Mezon-ul-avzonda aruz nazariyasining asosiy qismlari quyidagilar:

Ruknlar haqidagi ta'limot

Zixof va far'iy ruknlar haqidagi ta'limot

Bahrlar haqidagi ta'limot

Taqte' haqidagi ta'limot  
Vaznlar haqidagi ta'limot

### 3.2 Hazrati Alisher Navoiy g'azallarida ichki qofiya

Qadimda Sharqda she'r yozish san'ati rivoj topgan edi. Ayniqsa, Xalil ibn Ahmad tomonidan arab she'riyati asosida VIII asrda ixtiro qilingan aruz nazariyasi, o'sha davrdayoq, Ispaniyadan Xitoygacha bo'lgan hududni egallagan xalifat shoirlari she'riyati vazniga aylandi. Shu bois, keyinchalik bizning alloma ajdodlarimizdan Abu Abdulloh al-Xorazmiy (X), Abu Nasr ibn Xammod al-Javhariy (X), Abu Xafs an-Nasafiy (XII), Mahmud az-Zamaxshariy (XII), Yusuf as-Sakkokiy ham aruz vazniga oid arab tilida asarlar yaratdilar. Fors tilida ham shu sohada ko'plab asarlar yozildi.

She'r yozish san'atini taxlil qilgan olimlar vazn bilan birga, albatta, qofiya ilmiga ham asos soldilar. IX asrda esa, she'riyatdagi badiiyat bobida ham dastlabki asarlar yozildi. Bu boradagi ilk asar arab olimi va shoiri, bir kunlik xalifa, Abul-Abbos Abdulloh ibn al-Mu'tazz tomonidan yozilgan "Kitab al-badi'" asari bo'ldi. Bu asarda ilk bora nasr va nazmda ishlatiladigan badiiy san'atlarga istiloh sifatida nom berib, qator misollar keltirildi. Masalan, tashbix, isti'ara tajnis va boshqalar. IX-X asrlar bu sohada ham qator-qator asarlar yozilib, badiiy san'atlar soni kundan-kunga ortib bordi.

XII-XIII asrlarda yashab ijod etgan "millat va din chirog'i" nomini olgan Xorazmlik alloma Yusuf as-Sakkokiy o'zining "Miftax al-ulum" asari III bobida badiiyat ilmi borasi salmoqli fikrlar bildirib, barcha she'riy san'at, fazilat va nuqsonlarni o'z o'miga qo'yib, o'zining ilmiy-yakuniy fikrlarini bayon qiladi.

Asar III bobini "Ma'oniyy va bayon ilmlari" deb atab, mazkur ilmlar sirasiga, ma'oniyy va bayon ilmidan tashqari yana *ilmu-l-istidlol* (dalil keltirish), *ilmu-l-badi'*, *ilmu-sh-she'r* va *ilmu-l-qofiya* ilmlarini kiritadi.

Yuqoridagi asarning mazkur III bobi juda katta shuhrat topib, qanchadan qancha sharxlar, xoshiyalar yozilishiga sabab bo'ladi.

Asar III bobiga yozilgan sharxlardan biri bu – Damashq shahri imom-xatibi XIV asr boshida yashagan al-Qazviniyning “Talxis al-Miftah” asari bo'ldi. Mazkur asarga diyorimizdan yetishib chiqib, Amir Temur zamonlarida Samarqandda faoliyat ko'rsatgan zoti bobarakot Mas'ud ibn Umar at-Taftazoniy 2ta sharx yozadilar. Birinchisi “al-Muxtasar”, ikkinchisi “al-Mutavval” (kengaytirilgan)dir.

XV asrda esa xazrati Alisher Navoiy iltimoslariga binoan “al-Mutavval” asariga uchta zabardast olimlar xoshiya yozadilar, ular – Abu Lays as-Samarqandiy, Shamsuddin al-Ko'histoniy va Mullo Abivardiylardir. Mazkur asar qo'lyozmasi hozirda Abu Rayxon Beruniy nomidagi O'zRFA Sharqshunoslik instituti qo'lyozma xazinalari fondida saqlanadi.

Mazkur asarlardagi she'riyat vazni bobida nafaqat vazn masalasiga, balki she'rdagi qofiya hamda badiiyatiga katta e'tibor qaratilgan. Undagi fazilat, go'zallik va nuqsonlarga istilohiy nomlar berilgan. She'riyatdagi vazn, qofiya va badiiyat istilohlari o'sha zamonlardayoq qomusiy asarlardan joy olgan. Bunga misol qilib, X asrda yashab ijod etgan Xorazmlik alloma Abu Abdulloh al-Xorazmiyning “Mafotih al-ulum” (ilmlarning kalitlari) nomli qomusiy asarini keltirish mumkin. Uning mazkur asari I bo'lim V bobida aruz, qofiya, badiiy san'at va nuqsonlarga oid istiloxlar keltirilib, ular ta'rif va she'riy misollar bilan ta'minlangan. Bu borada Abu Abdulloh al-Xorazmiyning she'rning qofiyaga oid fazilatlarini aniqlashda yordam beruvchi tushunchalar bo'yicha ma'lumotlari muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur tushunchalar ta'rifi al-Xorazmiy asari I bo'lim V bobi 5-bo'linmasida berilgan.

Sharq shoirlari qofiyaga amal qilishni faqat bayt oxiridagina saqlab qolmadilar. She'riy asarlarning muhim tomonlariga ichki qofiyaga amal qilish ham kiradi. Bunda turli xil variantlar bo'lishi mumkin:

- a) faqat bitta bayt doirasida ikkita misra qofiyalanishi;

b) bir nechta bayt doirasida baytlardagi 3ta choragi qofiyalanib, 4 choragi she'r qofiyasi bilan qofiyalanishi;

v) bayt misralaridagi so'zlar qofiyalanib, ichki qofiyani tashkil etishi;

g) ichki qofiya g'azal yoki qasidaning boshidan oxirigacha takrorlanib kelishi mumkin.

Biz keltirgan variantlarning hammasi sharq (arab) she'riyatida o'zining nomlariga ega. Ular *tasri'*, *tarsi'* va *tasmittalardir*.

### *Tasri'* – ichki qofiya

Mazkur tushuncha aruz vaznida yozilgan she'r tuzilishi sistemasida mavjud bo'lgan baytning ikkita misraga bo'linishiga tayanuvchi kategoriya bo'lib, uni al-Xorazmiy asarida uchratdik. Unga al-Xorazmiy shunday ta'rif bergan:

*At-Tasri'* – bunda qasidaning birinchi bayti *musarra'* ko'rinishida bo'lib, uning qofiyasi birinchi misrada ham bo'lib, ikki misra o'zaro qofiyalanib keladi.

Xuddi shunday ta'rifni biz al-Javhariyning "Sixāx" lug'atida ham ko'ramiz.

"She'riyatda *tasri'* – bu birinchi misralarning qofiyalanishidir".

Bu ta'riflardan shunday xulosaga kelish mumkinki, *tasri'* – bu birinchi misradagi oxirgi so'zning ikkinchi misradagi oxirgi so'z bilan qofiyalanganda sodir bo'ladigan ichki qofiyadir.

Shunday qilib, *tasri'* – ikkita misraning qofiyalanishiga olib keluvchi oddiygina ko'rinish bo'lib, u qofiyani boyitadigan dastlabki manba hisoblanadi.

Bunga misol qilib mumtoz o'zbek she'riyatidagi g'azallarning *matla'* deb taluvchi birinchi baytini olishimiz mumkin. Alisher Navoiyning "Badoyi' ul-bidoya" devonidagi g'azallardan misollar keltiramiz.

Ramali musammani – mahfuz

1) *Ashraqat min / aksi shamsil – ka'si anvo – ro'l – hudo,*

*Yor(a) aksin / mayda ko'r, deb jom(i)din chiq – ti sado.*

Hazaj musammani – solim. Mafa:'ilun – 8 marta

2) *Zihi xusnung / zuhuridin / tushib har kim – ga bir savdo,  
Bu savdolar / bila kavnay/n(i) bozori – da yuz g‘avg‘o.*

*Ey alifdek / qomating mi/–li buzulg‘on jonaro  
Ganji xusning javhari bu xotiri vay – ron aro.*

Hazaj musammani – solim

3) *Zihi quti hayotim haj/–r(i) muxlik dar/–dida yoding  
Agar lufing/–g‘a loyiq bo‘l/–masam yo‘qtur/–mu bedoding*

### **Tarsi’ – to‘liq bo‘lmagan takrorlanuvchi ichki qofiya**

Tarsi’ san’ati she’riyatda ham nasrda ham uchrab turadi. Abu Abdulloh al-Xorazmiy ta’rificha: “*Tarsi’* – bu alohida baytning qofiyalangan qismlardan tuzilishidir”.

*Tarsi’* – o‘lchovlar bilan aloqador bo‘lgan she’riyatning muhim kategoriyalari qatoriga kiradi. Shuni ta’kidlash lozimki, to‘liq bo‘lmagan takrorlanuvchi ichki qofiya g‘azal yoki qasidada bir yoki bir necha bayt oralig‘ida kelishi mumkin. Shu bilan birga nasrda ham, saj’ga o‘xshab qofiyalanadigan so‘zlarning bir xil o‘lchovda bo‘lishiga alohida e’tibor beriladi. Al-Xorazmiy ta’rificha “*Tarsi’* – bu qofiyalangan, qurilishiga ko‘ra bir xil o‘lchamdagi nutqdir”.

Hazrati Alisher Navoiy nazm va nasridan misollar:

Badoyi-ul-bidoya. 399 g‘azalda 1ta baytta ichki qofiya mavjud ekan

Hazaj 8 – solim

*Manga lazzat / sening zikring, / manga quvvat sening fikring*

*Manga ishrat / sening vasling, / manga toat sening yoding  
yoki*

*Ichim furqat / balosinda, toshim hajr ib/tilosinda*

*Tanim ishq iz/tirobinda, o‘zim shavq iz/tirorinda*

Debochadan nasrda berilgan *tarsi’* san’atiga oid misollar:

*Fasohat devoninig g'azalsaroylari*  
*Balog'at bo'stonining chamanoroylari*

*Tab' mahzanidin sho'ridahol oshiqlar*  
*Hayol gulshanidin sohibjamol ma'shuqlar*

Debochadagi birinchi abzasdagi har bir so'z ikkinchi abzasdagi har bir so'z bilan qofiyadoshdir. Bu esa hazrati Alisher Navoiyning mazkur san'atlarni mukammal egallaganligidan bir dalolatdir.

### **Tasmit – to'lia takrorlanuvchi ichki qofiya**

*Tasmit* kategoriyasi she'rning shunday shaklini bildiradiki, unda ichki qofiyaga doimo, ya'ni she'rning boshidan oxirigacha amal qilinadi.

Al-Xorazmiy ta'rificha: “*Tasmit* – bu alohida qofiyalanuvchi bo'laklarga bo'lingan g'azal yoki qasidaning boshidan oxirigacha ichki qofiyaga ega bo'lgan kategoriyadir”. Bunday fazilatga ega bo'lgan qasida “*qasida musammata*”, -deb ataladi.

Mashhur rus arabshunosi I. Y. Krachkovskiy fikricha: “*Musajja'* she'riyatning boshlanishi baytlarni teng qismlarga ajratuvchi *tasmit* deb nomlanadigan ichki qofiya ko'rinishini qadimda ham ko'rish mumkin. U mustaqillikka g'arbda erishgan. Dastlabki muhim ko'rsatkichlar bizni XI asrdagi Ispaniyaga yetaklaydi”<sup>48</sup>

Biroq, X asrda yashab ijod etgan vatandoshimiz Abu Abdulloh al-Xorazmiyning “Mafotih al-ulum” nomli qomusiy asari I bo'lim V bobi “She'riyat tanqidi” nomli qismida *tasri'*, *tarsi'*, *tasmit* deb nomlanuvchi uchchala kategoriya istiloh sifatida keltirilib, qofiyaning muhim poetik fazilatlari, – deb hisoblangan. Ularning barchasi XI asrda Ispaniyada emas, balki undan yuz yil ilgari X asrda O'rta Osiyoda mustaqil ko'rinishga ega bo'lgan.

---

<sup>48</sup> Крачковский И.Ю. Изб. соч. т. II стр.26-27



Xazrati Alisher Navoiyning devonlaridan joy olgan ichki qofiyalari mavjud bo'lgan g'azallar talaygina. Mazkur axborotda Navoiy xazratlarining "Badoyi ul-bidoya" nomli birinchi devonidan joy olgan ba'zi ichki qofiyali g'azallarini keltirmoqchimiz. Har bir g'azalning birinchi bayti – matla'i tasri' san'atiga oiddir, qolgan oltita baytning har biri o'zicha alohida ichki qofiyaga ega. Ularning uch choragi qofiyasi bir xil, to'rtinchisi g'azal qofiyasiga monandir. Quyidagi g'azallardan misollar keltiramiz:

209 – hazaj musammani – solim

468 – hazaj musammani – solim

488 – rajaz musammani – solim

502 – rajaz musammani – solim

707 – hazaj musammani – solim

1-2 baytlar *tasri'* san'atiga, 3-8 baytlar *tasmit* san'atiga oid.

209

*Ne lo 'livashdur ul qotilki, qon to 'kmakkadur yaksar,*

*Qiyο boqmoqlari poki, itik mujgonlari – nishtar.*

*Yuzidinkim xijildur gul, parishon har taraf kokul,*

*Sochib gulbarg uza sunbul, to 'kub kofur uza anbar.*

*Yugurmaklikda har gunbad, ki sekreer ul mahi gulxad,*

*Guli mehr oldorar behad, uyolur gunbazi azhar.*

*Chu la'b asbobini tuzdi, salomat rishtasin uzdi,*

*Qamardek hola ko 'rguzdi uzori davridin chambar.*

*Labosi nozi chaspondur, gahi tuz qaddi chavgondur,*

*Zamono go 'yi g 'altondur, zihi chobuk, zihi dilbar.*

*Boshig 'a siym o 'lub parron, tushub girdig 'a anjumon,*

*Tulu' etkan kabi har yon qamar atrofida axtar.*

*To 'kub qon neshi g'am birla, ochib maydon sitam birla,  
Olib tablu alam birla ko 'ngullar kishvarin yaksar.*

*Junun sham'in qilib ravshan, ko 'ngulga telbalikdur fan,  
Paridek bo 'lg'ali parranda ul sho 'xi pari pavkar.*

*Navoiy bo 'ldi lo 'livash, ki kelmish anga lo 'li xash,  
Qani bir jomi lo 'likash, ki lo 'li tutsa bir sog'ar*

Yuqorida keltirilgan g'azallarda qofiyaga oid tasmit nomli badiiy san'at namoyon bo'lgan. Bu hazrati Alisher Navoiyning "Badoyi' ul-bidoya" devonidan olingan g'azallardir. Agarda Navoiyning boshqa devonlarini ham sinchiklab o'rganilsa, ichki qofiyaga oid badiiy san'atlarga ko'plab misollar topish mumkin.

### **Mavzu yuzasidan topshiriqlar**

1. O'rta Osiyo olimlaridan kimlar aruzga doir asarlar yozgan?
2. Abu Nasr Farobiyning she'riyatga oid qaysi asarlarini bilasiz?
3. Ibn Sinoning aruzning rajaz bahrida yozilgan asarining nomi?
4. "Arud al-Vurqatiy" nomli risola kimning qalamiga mansub?
5. Abu Abdulloh va Abu Xafs an-Nasafiyning aruz vazniga oid asarlari?
6. Forsiygo'y aruzshunos olimlardan kimlarni bilasiz?
7. Yusuf as-Sakkokiyning "Miftoh al-ulum" asarining ahamiyati.
8. Mahmud Zamaxshariyning aruz ilmiga oid qanday asari mavjud?
9. Aruz ilmi qaysi boshqa ilmlar bilan aloqador?
10. Zamaxshariyning "Al-Qistos" asarining boshqa asarlardan farqli tamoni?
11. A. Navoiyning "Mezonu-ul-avzon" asari haqida.

12.«Mezon-ul-avzon»da aruz nazariyasining asosiy qismlari qaysilar?

### **Mustaqil ta'lim uchun topshiriq**

1. Abu Abdulloh al-Xorazmiyning «Mafotih al-ulum» asari.
2. Abu Hafs Nasafiyning aruz ilmiga oid asari.
3. Mahmud Zamaxshariyning «Al-Qistos» asari.
4. Yusuf Sakkokiyning «Miftoh al-ulum» asarining aruzga doir qismi.
5. Boburning aruz risolasi.
6. A. Navoiyning «Mezonu-ul-avzon» asari.
7. Javhariyning «Vurqat al-arud» risolasi.

## GLOSSARIY

**Aruz** – (العروض) arab poeziyasining she'riy vazni. Aruzdagi she'rning birinchi namunalari milodiy V asrga taalluqli. VIII asr ikkinchi yarmiga kelib aruz ilmiy asoslangan fanga, keyinroq tugal tizimga aylandi.

**Aruzshunoslik** – aruz she'riy tizimi xususiyatlarini tadqiq qiluvchi adabiyotshunoslik sohasidir

**Aruz nazariyasi** – sharq mumtoz she'riyatida eng ko'p qo'llanilgan yagona she'r vazni hisoblanadi. Aruz vazni ilk bora arab she'riyatida vujudga keladi, keyinchalik u fors-tojik va turkiy xalqlar mumtoz poeziyasining ham asosiy vazn turi sifatida shakllandi va takomillashdi.

**Aruziy doiralar** – bahrlar orasida bir necha bahrning "o'zagi" bir hil bo'lishlilik aloqasini ko'rsatish uchun aruzshunoslar "doira" deb ataladigan vositadan foydalanganlar. Bir o'zakli bahrlarning bir nechtasi uchun bitta bayt she'r aytiladi va shu baytning tarkibiga kiruvchi bo'laklar turlicha joydan boshlab o'qilsa, bu o'zak atrofiga uyushgan bahrlar o'z-o'zidan maydonga kelaveradi.

Doira deb atalishiga sabab, bahrlar vaznlari xuddi bir aylanaga kirgizilib, shu aylana kengligidan chiqmaydi. Bir doiraga kirgizilgan maqta'larning birinchisi bir bahr uchun boshlang'ich nuqta bo'lsa, ikkinchisi boshqa biri uchun ayni shu vazifani bajaradi.

**Bayt** – arab she'rining asosini bayt tashkil etadi (بيت) (ko'p بيوت) lug'aviy ma'nosi: namat uy, badaviylarning o'tovi). Shu ma'nodan kelib chiqqan holda, baytni "she'r uyi" (بيت الشعر) deb ham yuritishadi. Bayt ruknlardan tashkil topib, qofiya bilan tugashi kerak.

**Bahr** – aruzda yozilgan she'rda ruknlarning takrorlanish tarkibi, konkret she'rdagi o'lchov asosidir. Arab aruzida 16ta bahr, A. Navoiyda 19 ta, Zahiriddin Muhammad Boburda 21ta bahr berilgan.

Bahr nomlari odatda tarjima qilinmaydi. Aruzda 8ta asl ruknning muayyan tarkibdagi takroridan bahrlar hosil bo'ladi va ularning har biri o'z nomiga ega.

**Vazn** - (arabcha-o'lchov, tarozi; ko'pligi-avzon) – she'r o'lchovi, me'yor. Vazn she'riy nutqni nasriy nutqdan ajratib turuvchi asosiy komponentlardan biridir. Odatda, bir turkumdagi she'r misralari, baytlari va bandlarida turoqlarning muayyan qonuniyat asosida ishlatilishidan kelib chiqadigan ritmik hodisa ohang vazn deyiladi. Boshqacha aytganda, misralardagi bo'g'inlarning, turoqlanish tartibining muayyan o'lchovga solinishi vazndir. Turli she'r sistemalarida vazn turli yo'llar bilan paydo bo'ladi. Chunonchi, barmoq sistemasida she'rning birinchi misrasidagi bo'ginlarning miqdori, turoqlarning soni va tartibining boshqa misralarda ham aynan takrorlanib kelishidan vazn hosil bo'lsa, aruz sistemasida she'rning birinchi misrasidagi hijolarning miqdori va sifati, ruknlarning soni va tartibining boshqa misralarda aynan takrorlanishidan vazn paydo bo'ladi.

**Ilm ul-lug'at** – lug'atshunoslik ilmi, tilning izohli lug'ati, har bir so'zning mazmun-mohiyatini yaxshi anglab yetmoq.

**Ilm ul-abniyat** – o'zgarmas shaklga ega, tushinish qiyin bo'lgan arxaik so'zlar haqidagi ilm.

**Ilm ul-ishtiyoq** – so'zning bir o'zakdan kelib chiqishi haqidagi ilm. Masalan: ruh – rayhon.

**Ilm ul-i'rob** – arab ilmi grammatikasiga oid ilm. **Harf** - arab aruzshunosligida eng kichik ritmik bo'lak — harf, harf esa ikki turli bo'ladi: mutaharrik (harakatlangan) va sokin (harakatsiz). Harakatli deganda unli tovush tushunilishi e'tiborda tutilsa, "mutaharrik harf", "sokin harf" atamalarining ma'nosi anglashiladi.

**Ilm ul-ma'oni** – gapning barcha bo'laklarini to'g'ri tuzish, mazmunga boy toifalarning to'g'ri, ochiqdan-ochiq, aniq, yashirin va har xil ifodalash<sup>49</sup>

<sup>49</sup> Зиёвуддинови М. Юсуф ас-Саккокий ва унинг "Мифтоҳ ал-улум" асари // Шарқ филологиясининг тутун ва очимлари. – Т. 2005. – Б. 177-181.

**Ilm ul-bayon** – oz miqdordagi so‘zlardan foydalanib, fikrning aniq va tiniq ma’nosini ifodash.

**Ilm ul-arud** – aruz nazariyasiga oid qonun-qoidalarni mukammal egallash- she’riy asarni ma’lum bir maromda o‘qishga, she’rning jilva- jilosidan zavq olishga yordam beradi.

**Ilm ul-qavafi** – qofiya haqidagi ma’lumotlar majmuasini to‘la-to‘kis anglash, qofiyalanish tartibi, qofiyalanish tartibi, qofiyalarni saralash va ularni to‘g‘ri ishlatish, qofiya turlari hamda she’r bitishdagi vazn qoliplaridan tashqari zaruriyati seziladigan boshqa formal omillar bilan shug‘illanadi.

**Insha un-nasr** – nasriy matn yozish san’ati.

**Qird ush-shi’r** – she’rni ruknga monand bo‘lagini biroz pauza bilan o‘qilgandagina ma’lum bir musiqiy ohang paydo bo‘ladi. Mazkur jarayon taqti’ deb ataladi.

**Ilm ul-kitaba** – xat yozish san’ati, xattotlik san’ati haqidagi ilm.

**Ilm ul-muhadarat** – notiqlik san’ati haqidagi ilm.

**Ilm ul-bade’** – Badiiy vositalar haqida bilim (علم البديع). She’rning badiiy yetuk bo‘lishini ta’minovchi ta’sir vositalari va ulardan to‘liq foydalanish yo‘riqlari. Bu she’rning mazmundor va badiiy yetuk bo‘lishida ahamiyatlidir.

**Qasida** – dastlabki arab she’riyati janrlaridan bo‘lib, uning ildizlari joxiliya davri adabiyotiga borib taqaladi. Ma’lumki, johiliya davrida yozuv bo‘lmasa-da, she’riyat juda rivoj topgan. Ayniqsa, qasida janrida har bir shoir mohirona ijod etgan.

Qasida 50-100 baytdan iborat bo‘lib, bir necha mavzuni o‘z ichiga olgan. Uning birinchi qismi – nasib, ikkinchi qismi vasf, uchinchi qismi fahr, to‘rtinchi qismi *madh* deb ataladi.

**Rukn** – bu juzvlardan iborat birikmalardir. Aruzda eng kichik o‘lchovlar *rukni*dir. Vaznlar ruknlardan tuziladi, ruknlar esa juzvlardan iboratdir. Arablar *af’ila* yoki *taf’ila* deb atashadi.

**Rukn** harakatli va sukunli harflarning ma’lum vaziyat talabiga monandlashib, zarur tartib bilan keluvchi maxsus birligidir. Ana shu birlik aruz bahrlarini o‘zaro farqlovchi asosiy o‘lchov vazifasini o‘taydi.

**Taqte'** (arabcha so'z bo'lib, bo'laklarga, parchalarga bo'lish ma'nosini beradi) – misralarni rukn qoliplariga mos tushuvchi bo'laklarga ajratib chiqishga **taqti'** (تقاطع ko'p تقاطيع – kesilgan) deyiladi. Bu faoliyat natijasida biz baytni qaysi bahrga taalluqli ekanligini topa olamiz. Bu nihoyatda murakkab jarayon bo'lib, katta diqqat-e'tibor va mehnat talab etadi. unda she'rning so'zlarga bo'linib, tabiiy o'qilishi emas, balki ohang bilan, ma'lum bir vazn ruknlariga moslanib o'qilishiga e'tibor qilinadi.

**Juzvlar** – vaznlar ya'ni she'rning o'lchovi **ruknlardan** tashkil topadi. Ruknlar o'zlari esa, **juzv** (ko'pligi **ajzo**)lardan tashkil topadi. Juzvlar uch turlidir – sabab, vatad, fosilalar.

**She'r** – inson ichki hissiyotlari va ruhiyatini o'ziga xos tarzda aks etdirishga qaratilgan badiiy asar bo'lib, inson dunyosi, uning fikr va o'ylari, iztiroblari va kechinmalarini butun murakkabligi, ziddiyati, ko'zga ko'rinmas, yashirin jihatlari bilan talqin qiluvchi, she'riy nutqning murakkab qurilish prinsiplari majmuasi asosiga qurilgan poetik ijod namunasi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

### I. Manbalar

1. الدكتور أحمد الحوفي. الزمخشري. دار الفكر العربي القاهرة. 1966.
2. الدكتور فخير الدين قباوة. القسطاس في علم العروض. مكتبة المعارف بيروت. 1989.
3. الدكتور عبد العزيز عتيق. علم العروض و القافية. دار النهضة العربية بيروت. 1987. ص.9.
4. الدكتور عبدالله درويش. دراسة في العلم العروض و القافية. جامعة دار العلوم القاهرة. 1987. ص.157.
5. الدكتور مصطفى حركات. أوزان الشعر. الدار الثقافية للنشر. القاهرة. 1998. ص.233.
6. القسطاس المستقيم في علم العروض. محمود بن عمر الزمخشري. دار الكتب.
7. الختیب التبریزی. كتاب الكافي في العروض و القوافي. تحقيق الحسانی حسن عبد الله.

### II. Ilmiy adabiyotlar

1. Aliyev S. Aruz ilmi. – Buxoro, 1995.
2. Boboyev T. Aruz vaznlarini o'rganish. – Toshkent, 1991.
3. Ziyovuddinova M. Abu Abdulloh al-Xorazmiyning “Mafotih al-ulum” asarida poetika. – T.: ToshDShI, 2001.
4. Ziyovuddinova M. Yusuf as-Sakkokiy va uning “Miftoh al-ulum” asari // Sharq filologiyasining tugun va yechimlari, Toshkent, 2005. – B: 177-181.
5. Navoiy A. Mezon-ul-avzon. – T.: Fan, Asarlar, 14 j, 1968. – B.142
6. Rustamov A. Aruz haqida suhbatlar. – T.: Fan, 1972.
7. Talabov E. Arab she'riyatida aruz tizimi, DDA. – T., 2004.
8. Talabov E. Arab aruzi. – T., 1977.
9. To'ychiyev U. O'zbek poeziyasida aruz sistemasi. – T.: Fan, 1985.
10. To'ychieva G. Fors aruzi risolalari. – T.: ToshDShI.



- 11.Frolov D. V. Klassicheskiy arabskiy stix. Istoriya i teoriya aruda. – M.,1991. –317s.
12. Xudjanova D. Mahmud ibn Umar az-Zamaxshariyning aruz ilmiga oid “al-Qistos fi ilmi-l-aruz” asari. Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan dis. – T.ToshDShI.2015.
- 13.Zahiriddin Muhammad Bobir. Muxtasar, nashrga tayyorlovchi Saidbek Hasan. Toshkent 1971.
- 14.Sultonov Izzat. Adabiyot nazariyasi. – T.:O‘qituvchi, 1980.
- 15.Hojiahmedov A. Maktabda aruz vaznini o‘rganish. . –T., 1978.
- 16.Xomidiy X., Abdullaeva Sh., Ibrohimov S. Adabiyotshunoslik terminlari lug‘ati. . –T., 1967.
- 17.Gibb X.A.R. Arabskaya literatura. Klassicheskiy period / Perevod A. B. Xalidova. – M.: Izd-vo vostochnoy literatury, 1960. – S. 85-86.
- 18.Ziyovuddinova M. Poetika v “Mafatix ul ulum” Abu Abdallaxa al-Xorezmi”, AKD. – Tashkent, 1990.
- 19.Filshtinskiy I. M. Arabskaya klassicheskaya literatura. – M.,1965.

### **Internet saytlari**

- 1.53. <http://www.al-mostafa.com>
- 2.54. <http://www.wattpad.com>
- 3.55. <http://www.waqfeya.com>
- 4.56. <http://www.madinahnet.com>
- 5.57. <http://ru.wikipedia.org>
- 6.58. <http://www.marefa.org>

## MUNDARIJA

<b>KIRISH</b> .....	<b>3</b>
<b>I BOB. ARUZ ILMI VA UNING TARKIBIY QISMLARI</b>	
1.1. “Aruz” atamasi va uning ixtirochisi Xalil ibn Ahmad ...	5
1.2. Bayt tushunchasi.....	9
1.3. Juzvlar haqidagi tushuncha.....	12
1.4. Aruzda ruknlarning ahamiyati.....	15
<b>II BOB. ARUZ BAHRLARI VA ARUZIY DOIRLAR</b>	
2.1. She’r bahrlarining tarkibi.....	33
2.2. Bahrlarning turlari.....	37
2.3. Aruziy doiralar.....	84
<b>III BOB. ARUZ ILMINING TARIXIY ILDIZLARI</b>	
3.1. Aruzshunos olimlarning aruz ilmiga doir asarlari.....	97
3.2. Hazrati Alisher Navoiy g‘azallarida ichki qofiya.....	106
<b>GLOSSARIY</b> .....	<b>114</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR</b> .....	<b>118</b>

**Ziyovuddinova Muxlisa  
Xudjanova Dildora Jur'at qizi**

# **ARUZ ILMI**

**DARSLIK**

***Toshkent - "Innovatsiya-Ziyo" - 2020***

*Muharrir Xolsaidov F. B.  
Korrektor Abdurahmonova S. A  
Nashriyot litsenziyasi AI №023, 27.10.2018.  
Bosishga 30.10.2020. da ruxsat etildi. Bichimi 60x84.  
"Times New Roman" garniturasini.  
Ofset bosma usulida bosildi.*

*Shartli bosma tabog'i 8. Nashr bosma tabog'i 7,5.  
Adadi 100 nusxa.*

*"Innovatsiya-Ziyo" MCHJ matbaa bo'limida chop etildi.  
Manzil: Toshkent shahri Farhod ko'chasi 6-uy*

ISBN 978-9943-6790-2-3



9 789943 679023